**“Kapitalbank” ATB**
**Boshqaruvining**
**25.12.2019 yildagi 41-sonli**
**Bayonnomasi bilan**
**TASDIQLANGAN**

**“Kapitalbank” ATB**
**Boshqaruvi raisi**
**Kim O.R.**

______________________

# “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki
# “Kapital24” chakana biznes filialida
# Jismoniy shaxslarga kompleks (majmuaviy) bank xizmatlari ko‘rsatish
# QOIDALARI
# (yangi tahriri)
# (2020 y. 1 yanvardan kuchga kiradi)

**Toshkent sh.**

# 1. ATAMA VA TA'RIFLAR

**1.1. “**Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki “Kapital-24” chakana biznes filialida Jismoniy shaxslarga kompleks (majmuaviy) bank xizmatlari koʻrsatishning mazkur Qoidalari (keyingi oʻrinlarda - Qoidalar) Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Qoidalar va ularga Ilovalarga muvofiq “Kapitalbank” ATBda (keyingi oʻrinlarda - bank) jismoniy shaxslarga kompleks (majmuaviy) bank xizmatalari koʻrsatish tartibini belgilaydi.

Qoidalarga koʻshilish va oʻz navbatida Kompleks (majmuaviy) bank xizmati koʻrsatish shartnomasini tuzish Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 360, 367 va 370-moddalariga muvofiq mijozning mazkur qoidalarga qoʻshilganligini tasdiqlovchi:

- Mobil bank (mazkur Qoidalarning 6-Ilovasi) orqali Ommaviy ofertani akseptlash (Qoidalarga qoʻshilish) yoki

- Bank ofisida Qoidalarga qoʻshilish shartnomasini (mazkur Qoidalarning 6 Ilovasi) imzolash orqali amalga oshiriladi

**1.2.** Mijozlarni mazkur Qoidalar va Bank Tariflari bilan tanishtirish maqsadida Bank ularni Bankning Internetdagi www.kapital24.uz saytiga, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qiladi

**1.3.** Kompleks (majmuaviy) bank xizmati koʻrsatish shartnomasi ommaviy shartnoma ekanligini va bank hamda bir marotabalik xizmatlar haqi barcha Mijozlar uchun (Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan Mijozlarning alohida toifasiga imtiyozlar berilishi mumkinligi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) bir xilda oʻrnatilishini inobatga olib Qoidalarga uning Ilovalari bilan birga, Ilovalarning miqdori va tarkibiga, shuningdek, Bank mahsulotlarni taqdim qilish shartnomasi va Bank tariflariga oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish tashabbusi Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi 1-bandiga muvofiq faqat Bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

**1.4.** Taraflar bank Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki toʻlov tizimlari Qoidalari oʻzgarganligi va/yoki Bank tomonidan yangi mahsulotlar taqdim qilinishi va/yoki bank mahsulotlarini taqdim qilish texnologiyasi va/yoki loyallik dasturi shartlari oʻzgarganligi munosabati bilan va/yoki oʻz xohishiga koʻra mazkur Qoidalarga, shu jumladan Qoidalarning Ilovalariga, bank mahsulotlarini taqdim qilish toʻgʻrisidagi Shartnomaga va bank Tariflariga oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish huquqiga ega ekanligi toʻgʻrisida kelishib olishgan.

**1.5.** Bank Qoidalarning, Qoidalarga Ilovalarning, bank mahsulotini taqdim qilish Shartnomalarining va Bank Tariflarining yangi (oʻzgartirilgan) tahriri toʻgʻrisida oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish rejalashtirilgan sanadan kamida 10 (oʻn) kalendar kun oldin quyidagi usullardan (bankning tanloviga koʻra) biri orqali xabar berish yoʻli bilan ularga oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritadi, xabar berish muddati 1 (bir) kalendar kunni tashkil etuvchi Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining yoki Bankning nomi yoxud Bankning/Bank ofisining yuridik/pochta manzili oʻzgarishi bilan bogʻliq oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish hollari bundan mustasno:

- masofaviy xizmat koʻrsatish imkoniyatlari orqali, shu jumladan, Mijozning shaxsiy kabinetiga elektron xabarnoma yuborish orqali;

- Bankning internetdagi www.kapital24.uz saytiga tegishli e'lonni joylashtirish orqali;

- Bank ofislarining axborot stendlariga yangilangan hujjatlarni joylashtirish orqali;

- Mijozning Bankka ma'lum boʻlgan yashash manzili va amaldagi yashash joyiga yozma xabarnoma yuborish orqali.

**1.6.** Qoidalarning mazkur bandiga muvofiq kiritilgan oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kuchga kirgunga qadar Mijozdan bankka Kompleks bank xizmatlari shartnomasini va/yoki bank

mahsulotini taqdim qilish Shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida yozma ravishda ariza kelib tushmagan taqdirda, bunday holat Mijozning kiritilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar bilan so‘zsiz va to‘liq roziligini anglatadi. Bunda kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasi va/yoki bank mahsulotini taqdim qilish shartnomasiga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagi kelishuvning O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq yozma shakliga rioya etilgan deb hisoblanadi.

**1.7.** Kompleks (majmuaviy) bank xizmati ko‘rsatish shartnomasining va/yoki bank mahsulotini taqdim etish to‘g‘risidagi Shartnomasining yangi tahriri va/yoki o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kuchga kirganidan keyin Mijoz tomonidan operatsiyaning amalga oshirilishi Mijozning o‘zgargan va/yoki to‘ldirilgan kompleks (majmuaviy) bank xizmati ko‘rsatish shartnomasi va/yoki bank mahsulotini taqdim etish to‘g‘risidagi Shartnoma bilan roziligining qo‘shimcha tasdig‘i hisoblanadi.

**1.8.** Mazkur Qoidalarda quyidagi atama va ta'riflardan foydalaniladi:

***Abonent qurilmasi -*** KBXSh doirasida aloqaga kirishish uchun elektr aloqa (ma'lumotlar uzatish) tarmoqlariga ulanuvchi shaxsiy kompyuter, smartfon, telefon va boshqa qurilma.

***Avtorizatsiya -*** Operatsiyani o‘tkazish uchun so‘rovda mavjud bo‘lgan Operatsiyani o‘tkazishning qonuniyligini tasdiqlovchi informatsion xavfsizlik elementlarini tekshirish asosida Bank/YaOPM tomonidan Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda Operatsiya o‘tkazishga ruxsat berish.

***Elektron pochta manzili -*** Mijoz tomonidan KBXSh tuzish jarayonida Ariza-Anketaning “Aloqa ma'lumotlari» bo‘limida elektron xujjatlarning nusxalarini olish uchun ko‘rsatilgan elektron pochta manzili. Elektron pochta manzili Mijoz tomonidan shaxsan Bank Ofisiga kelib Mijoz to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘zgartirish haqida Bank belgilagan shakldagi Arizani imzolash orqali o‘zgartirilishi mumkin. KBXSh doirasida bir vaqtning o‘zida Mijozda faqatgina bitta elektron pochta manzili bo‘lishi mumkin**.**

***Autentifikatsiya -*** Login, Parol yoki Tekshiruv kodini to‘g‘ri kiritish natijasida MBXdan foydalanish uchun huquq layoqatini tasdiqlovchi tekshirish jarayoni. Autentifikatsiyaning ijobiy natijasi barcha harakatlar mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilayotganligini tasdiqlaydi, shuningdek, qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatga o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzoga teng hisoblanadi.

***Bank* – “**Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki.

***Bank mahsuloti -*** Mijozning muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan alohida bank xizmati yoki funksional jihatdan tartibga solingan bank xizmatlari to‘plami va oldindan belgilangan xususiyatlarga (belgilarga) ega yordamchi harakatlar (masalan Kartochka, muddatli omonat va boshqa).

***Benefitsiar mulkdor -*** Mijoz qabul qiladigan qarorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita (uchinchi shaxslar orqali), shuningdek, Mijoz bilan tuzilgan shartnoma asosida ham unga sezilarli ta'sir o‘tkazish huquqiga (imkoniyatiga) ega jismoniy shaxs, jismoniy shaxs Mijoz daromadining miqdoriga ta'sir ko‘rsatish maqsadida o‘z vakolatlaridan foydalanadi, bitimlar (shuningdek, kredit xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan (kredit, kafolat berish to‘g‘risida)) tuzish, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risida Mijoz tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mana shunday shaxs mijoz – jismoniy shaxsning benefitsiar mulkdori bo‘lib hisoblanadi, boshqa jismoniy shaxsni benefitsiar mulkdor deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollar bundan mustasno.

***Amaldagi qonunchilik -*** O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, aynan, qonunlar, qonunosti hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari va qarorlari (farmoyishlari, xatlari), ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma va bitimlar.

***Masofaviy bank xizmatlari (MBX) -*** bank tomonidan vakolatli Bank xodimining ishtirokisiz MBX xizmatlaridan foydalangan holda Mijozga kompleks xizmat ko'rsatish.

***Kompleks bank xizmati ko'rsatish shartnomasi (KBXSh) -*** Mijoz tomonidan imzolangan kompleks bank xizmatlari ko'rsatish Qoidalarida, shuningdek, Qoidalarning ilovasi bo'lgan bank mahsulotlarini taqdim qilish to'g'risidagi Shartnomalarni tuzish Tartibida, Bank tariflarida, Ariza-Anketada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Mijozning kompleks bank xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga ko'shilishi orqali Mijoz va bank o'rtasida tuziladigan shartnoma.

***Bank mahsulotlarini taqdim qilish to'g'risidagi Shartnoma (Shartnoma) -*** KBXSh doirasida "Kapital 24" chakana biznes filiali va mijoz o'rtasida mazkur Qoidalarning tegishli Ilovasida belgilangan tartibda imzolanadigan shartnoma, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining konunchiligida va elektron xujjat aylanishi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda bitimni oddiy yozma shakld tuzish talabiga javob beradi va bitim tuzayotgan shaxsning shaxsan (shaxslarning o'zaro) ishtirokida amalga oshiradigan bitimlar bilan bir xil bo'lgan yuridik oqibatlarga olib keladi. Bunday Shartnomalar harakatlar qog'oz ko'rinishadagi hujjatlar bilan tasdiqlanmagan degan asos bilangina nizoli deb topilishi mumkin emas.

***Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ShTH) -*** O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, 16 yoshga to'lmagan fuqarolarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi, harbiy xizmatchilarning harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo'mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno), xorijiy fuqarolarning pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy fuqarolar tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro'yxatga olinishi lozim) yoki O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O'zbekiston Respublikasida akkreditasiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

***Foydalanish mumkin bo'lgan Pul mablag'lari -*** Mijoz mazkur pul mablag'lari doirasida operatsiyalar amalga oshira oladigan Hisobvaraq/Kartdagi pul mablag'lari qoldig'i. Foydalanish mumkin bo'lgan Pul mablag'lari Mijozning Hisobvaraqdagi/Kartochkadagi o'z mablag'lari qoldig'iga va Kartochka bo'yicha amalga oshirilgan Operatsiyalarning avtorizatsiya qilingan miqdorini ayirgan holda overdraftning foydalanilmagan chegarasiga teng bo'ladi.

***Qarzdorlik -*** kreditning so'ndirilmagan qismi, hisoblangan, biroq to'lanmagan foizlar, neustoyka va tegishli Shartnoma, shuningdek, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni ham o'z ichiga olgan, Mijoz tomonidan KBXSh va Shartnoma bo'yicha Bankka to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari.

***Ariza -*** Bank tomonidan belgilangan shakld tuzilgan va Mijoz tomonidan imzolangan elektron yoki qog'oz shaklidagi hujjat, bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomaning muhim shartlari ko'rsatilgan ariza. Ariza bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. MBX vositasida beriladigan ariza Mijoz tomonidan Tekshiruv kodi yordamida imzolanishi kerak. Ariza faqat KBXShga qo'shilgan "Kapital 24" ChBF Mijozi tomonidan berilishi mumkin.

***Ariza-anketa -*** KBXShning ajralmas qismi hisoblangan, Bank belgilagan shakld yozilgan, Mijoz tomonidan KBXSh tuzish maqsadida Bankka taqdim qilingan, "Kapitalbank" ATBda kompleks xizmat ko'rsatish haqida ariza.

***Identifikatsiyalash -*** jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan Bankning Mijoz haqida ma'lumotlarni aniqlash, xujjatlarning asl nusxasi va/yoki lozim darajada tasdiqlangan nusxalaridan foydalanib, ushbu ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlash

bo‘yicha chora tadbirlar majmui. Mijoz tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlar Bankka taqdim qilingan sanada haqiqiy bo‘lishi lozim.

***Internet bank–*** Mijozga bankning vakolatli xodimi ishtirokisiz Intrenet tarmog‘i vositasida Autentifikatsiya o‘tkazilganidan keyin o‘zining nomiga ochilgan barcha Hisobvaraq va Kartochkalar bo‘yicha ma'lumot olish, Ariza/Topshiriqnoma berish, shu jumladan bank operatsiyalarini o‘tkazish, shuningdek, bank xizmatlari to‘g‘risidagi axborot ma'lumotlarni olish imkoniyatini beruvchi MBX xizmati.

***Axborot ko‘rinishidagi opersiya -*** Mijoz Autentifikatsiya qilinganidan so‘ng Bank tomonidan Mijozga Hisobvaraqlar/Kartochkalarning holati va foydalanilishi, Hisobvaraqlar/Kartochkalar bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiyalar, shuningdek, Hisobvaraqlar/Kartochkalar aylanmasi haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilish bo‘yicha operatsiya va Moliyaviy operatsiyalar hisoblanmaydigan boshqa operatsiyalar.

***Kartochka -*** pul mablag‘lari bilan naqd pulsiz hisob kitoblarda vosita hisoblanadigan hamda maxsus karta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan, to‘lov tizimiga aloqador har qanday bank kartochkasi. Kartochkadan foydalangan holda hisob kitoblar amaldagi qonunchilik, mazkur Qoidalar va kartochka tegishli bo‘lgan to‘lov tizimi qoidalariga asosan amalga oshiriladi. Agar Qoidalarda va Shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, Qoidalar matnida asosiy Kartochka ham, qo‘shimcha Kartochka ham Kartochka sifatida tushuniladi. Qoidalarning ilovalarida “Kartochka” atamasiga alohida ta'rif beriladi.

***Mijoz -*** Bank bilan KBXSh tuzgan, Qoidalarda belgilangan hollarda esa bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risida alohida Shartnoma(lar) tuzgan jismoniy shaxs (rezident yoki norizedent).

***Kodli so‘z -*** Mijoz mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga telefon orqali murojaat qilganida, Bank mijozni identifikasiyalashi uchun Mijoz tomonidan foydalaniladigan so‘z/jumla.

***Shaxsiy kabinet -*** Mijozga mazkur bo‘limga kirgandan so‘ng (Autentifikatsiya o‘tkazilganidan keyin) unga MBXning barcha imkoniyatlariga kirishni ta'minlaydigan MBX xizmatlarining alohida bo‘limi.

***Login*** – Mijozga MBX xizmatlariga kirishga ruxsat berishda keyinchalik Mijozni Autentifikatsiya qilish maqsadida bir necha bor foydalaniladigan, Bank tomonidan Mijozga beriladigan belgilarning o‘ziga xos ketma-ketligi.

***Mobil bank*** – Abonent qurilmaga (mobil telefon, smartfon, planshet va boshq.) oldindan o‘rnatilgan mobil ilovadan foydalangan holda Mijozga vakolatli bank xodimining ishtirokisiz, Autentifikatsiya o‘tkazilganidan so‘ng uning nomiga ochilgan barcha Hisobvaraq va Kartochkalar bo‘yicha ma'lumot olish, Ariza va/yoki Topshiriqnomalar berish, shu jumladan, bank operatsiyalari o‘tkazish, bank xizmatlari to‘g‘risida axborot ko‘rinishidagi ma'lumotlarni olish amalga oshirish imkonini beruvchi MBX xizmati.

***Mobil telefon raqami*** – KBXSh tuzish paytida Ariza-Anketaning (“Mobil telefon” (to‘ldirish shart) qatorida) “Aloqa ma'lumotlari” bo‘limida Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan, Bank mijozlarining ma'lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan uyali aloqa raqami. Mobil telefon raqami Mijoz tomonidan Bank ofisiga shaxsan kelib Bank belgilagan shakldagi Mijoz to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘zgartirish haqida Arizani imzolash orqali o‘zgartirilishi mumkin. KBXSh doirasida bir vaqtning o‘zida Mijozda faqatgina bitta mobil telefon raqami bo‘lishi mumkin.

***Operatsiya -*** pul mablag‘larini Hisobvaraqqa / Hisobvaraqdan, shuningdek, Kartochkalardan yoki ularning rekvizitlaridan foydalangan holda ham kirim qilish/o‘chirish hamda o‘tkazib berishga, naqd pul mablag‘lari berishgava h.k.larga olib keluvchi, Amaldagi qonunchilik, Qoidalar, Bank tariflari (zarurat bo‘lsa) va To‘lov tizimlar qoidalari (zarurat bo‘lsa) ga asosan o‘tkaziladigan har qanday operatsiya.

***Operatsion kun*** – bank ish kunining (Bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalari amalga oshiriladigan va mijozlarga xizmat ko‘rsatiladigan ochiq balansli ish kuni) bir qismi bo‘lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

***Bank ofisi*** – “Kapital 24” ChBFning har qanday ofislaridan, shuningdek, smartbanklari va minibanklaridan biri. Bank ofislarining ro‘yxati Bankning sayti va Bank ofislarida joylashtirilgan.

***Parol*** **-** Mijozni Autentifikatsiya qilish jarayonini albatta o‘tkazish imkoniyatini beruvchi, Mijozga berilgan Login bilan bog‘langan raqamli va harfli belgilarning ketma-ketligi.

***To‘lov tizimi*** **–** Visa International va / yoki Uzcard EMV tizimlaridan biri**.**

***Topshiriqnoma/Yozma ariza*** **-** Topshiriqnoma/Arizada belgilangan summani Hisobvaraqdan/Kartochkadan oluvchining Hisobvarag‘iga/Kartochkasiga o‘tkazib berish, shuningdek, boshqa Moliyaviy operatsiyalar o‘tkazish to‘g‘risida Mijozning Bankka beradigan topshirig‘ini nazarda tutuvchi, MBX vositasida yoki Bank ofisida Bankka taqdim qilinadigan elektron yoki yozma shakldagi hujjat. MBX vositasida beriladigan topshiriqnoma Mijoz tomonidan Tekshiruv kodi yordamida imzolanishi kerak.

***Kompleks bank xizmati ko‘rsatish Qoidalari (Qoidalar)*** **-** Bank tomonidan tasdiqlangan va Bank belgilagan muddatdan kuchga kiradigan, ilovalarini ham o‘z ichiga oluvchi Bankda jismoniy shaxslarga kompleksbank xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risidagi ushbu Qoidalar.

***Tekshiruv kodi*** – Bank tomonidan generatsiya qilinadigan hamda Moliyaviy operatsiya o‘tkazishda, Ariza, Topshiriq berishda Mijoz tomonidan foydalaniladigan Mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma ko‘rinishida yuboriladigan maxsus bir martalik o‘zgaruvchan kod. Ariza, Topshiriqnoma berishda tekshiruv kodining kiritilishi Taraflar tomonidan Mijozning o‘z qo‘li bilan ko‘yilgan imzosiga teng deb hisoblanadi. Mijozning tekshiruv kodidan foydalangan holda amalga oshirgan barcha harakatlari bo‘yichabahslashilmaydi va Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb tan olinadi hamda amaldagi qonunchilik talablari asosidao‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzodan foydalanganda olib keladigan yuridik oqibatlarga teng oqibatlar olib keladi.

***Mijozning vakili (Vakil)*** – vakolatlari faqat notarial tasdiqlangan (yoxud Amaldagi qonunchilikka asosan unga tenglashtirilgan) ishonchnomaga asoslangan, Mijozning nomidan uning manfaatlarini ko‘zlab uning hisobidan harakat qiladigan jismoniy shaxs. Mijozning Vakili KBXShga asosan KBXSh shartlari bo‘yicha Mijoz shaxsan amalga oshirishi shart bo‘lgan harakatlardan tashqari boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega. Mijozning Vakili uning nomidan Bank ofisiga yoki Bankka har bir murojaat qilganida ShTH va Ishonchnomaning asl nusxasini shaxsan ko‘rsatadi.

***Loyallik dasturi*** – **“**Kapitalbank” ATBda amal qiladigan va Loyallik dasturiga qo‘shilgan Hamkorlardan Mijozni tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olishga rag‘batlantiradigan loyallik dasturlaridan har qaysisi.

***Chiqim limiti (chegarasi)*** **-** Mijozning arizasi, shuningdek, Shartnomaga asosan Hisobvaraq/Kartochka bo‘yicha mablag‘lardan foydalanishga Bank tomonidan ko‘yiladigan chegara (bunda imkoniyat Bankda mavjud bo‘lsa**)**.

***Doimiy topshiriqnomalar*** **-** davriy ijro qilinadigan, pul mablag‘larini o‘tkazishga doir topshiriqnomalar.

***Bankning sayti*** **-** Bankning Internet tarmog‘ida quyidagi manzil bo‘yicha joylashtirilgan rasmiy sayti: www.kapital24.uz.

***Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmati*** - Bank mahsulotlaridan foydalanish masalalalri bo‘yicha Mijozlarga yordam beridagan Bank bo‘linmasi.Mijozlarni qo‘llabquvvatlash xizmatining telefon raqami: + 998 71 200-16-16.

***Kirish Vositalari*** - Shaxsiy kabinetga kirishda Mijozni Autentifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan Login va Parol.

***Taraflar -*** Bank va Mijoz birgalikda.

***Hisobvaraq -*** Bank mahsulotini taqdim qilish to'g'risidagi Shartnomaga asosan Amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda Bank tomonidan Mijozga ochiladigan bank hisobvarag'i.

KBXSh doirasida Mijozga bir necha turdagi Hisobvaraqlar ochilishi mumkin, ular Qoidalar matnida alohida ko'rsatilganda quyidagicha bo'ladi:

- ***Maxsus karta hisobvarag'i (MKH, karta hisobvarag'i) -*** Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda o'kaziladigan operatsiyalar bo'yicha pul mablag'lari hisobini yuritish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

- ***Muddatli omonat hisobvarag'i -*** muddatli omonat hisobini yuritish, shuningdek, joylashtirilgan pul mablag'lariga hisoblanadigan foiz ko'rinishidagi daromadlarni olish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

- ***Talab qilib olinguncha hisobvaraq -*** jismoniy shaxslarning joriy maqsadlari uchun foydalaniladigan pul mablag'larining hisobini yuritish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

***Ssuda hisobvarag'i -*** Bank bilan tuzilgan kredit shartnomalari bo'yicha kredit majburiyatlarini bajarish uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalaniladigan bank hisobvarag'i.

***Bank tariflari -*** Bank tomonidan Mijozga ko'rsatiladigan xizmatlarning moliyaviy va boshqa shartlarini belgilovchi, stavkalar, vositachilik haqini ham o'z ichiga olgan Bank tomonidan tasdiqlangan hujjatlar. Bank tariflari Bankning sayti va/yoki Bank ofislarida joylashtiriladi hamda KBXShning ajralmas qismi hisoblanadi.

***Kirish vositalarining yo'qotilishi -*** Mijozning ruxsati bilan yoki ruxsatisiz bir yoki bir nechta Kirish Vositalarining uchinchi shaxslar tomonidan ko'lga kiritilishi.

***"Kapital 24" ChBF*** – "Kapitalbank" ATB "Kapital 24" chakana biznes filiali. Moliyaviy operatsiya – Qoidalarga asosan taqdim qilinadigan Mijozning Topshiriqnomasi/Arizasi asosida Autentifikasiya o'tkazilganidan so'ng Mijozning Hisobvaraq/Kartochkada joylashtirilgan pul mablag'larini tasarruf qilish bo'yicha Bank tomonidan bajariladigan operatsiya.

***SMS-bank -*** Mijoz o'z mobil telefoni raqamidan Bankka xizmat taqdim qilinishini, shunindek, Karta hisobvarag'i/Kartochka bo'yicha ma'lumot taqdim qilinishini, Kartochkani bloklash/bloklashdan ochishni so'rab so'rovnoma yuborishxizmati. SMS-bank faqatgina Visa International Kartochkalari bo'yicha +99871 233-33-01 telefon raqami orqali amalga oshiriladi.

***SMS-axborot -*** Kartochkayoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda Operatsiyalalar amalga oshirilganida Mijozning mobil telefon raqamiga Bank/YaUPMdan SMS-xabarnoma (SMS-bildirishnoma) yoki Qoidalarga asosan boshqa turdagi SMS-xabarnomalarni qabul qilish imkoniyatini beruvchi Bank/YaUPMning Mijozga taqdim qiladigan xizmati.

**1.9.** Qo'shimcha atama va ta'riflar Shartnomalarda belgilangan. Qoidalarda va Qoidalarning Ilovalarida foydalaniladigan atama va/yoki ta'riflarning mazmunida qarama qarshiliklar bo'lganida Qoidalarning Ilovalarida foydalaniladigan atama va/yoki ta'riflar ustunroq kuchga ega bo'ladi.

**1.10**. Shartnoma va Qoidalarda belgilanmagan atama va ta'riflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va "Kapitalbank" ATBning boshqa ichki hujjatlarida belgilangan mazmunda iboraning matnidan kelib chiqib, ularning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi hamda sharhi bo'yicha qo'llaniladi.

## 2. KOMPLEKS BANK XIZMATI KOʻRSATISH SHARTNOMASINING PREDMETI

2.1. Mazkur Qoidalar Bank tomonidan Mijozga ushbu Qoidalarda va uning ilovalarida keltirib oʻtilgan bank xizmatlari va mahsulotlarini Bank Ofislarida ham MBX orqali ham taqdim qilish tartibini hamda umumiy shartlarini belgilaydi: KBXSh tuzishni anglatadigan - Qoidalarga qoʻshilish (uning shartlarini qabul qilish), Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 moddalariga muvofiq Ariza-Anketa (Qoidalarning 5-Ilovasi) asosida amalga oshiriladi.

***KBXShning toʻliq funksiyalari, shu jumladan, Shartnomalarni tuzish/oʻzgartirish/bekor qilish imkoniyati faqatigina "Kapital 24" ChBF Mijozlariga taqdim qilinadi.***

Mazkur Qoidalar va uning Ilovalari, shuningdek, Bank Tariflari (agar Qoidalarning tegishli Ilovasida nazarda tutilgmagan boʻlsa) Mijoz hamda Bank oʻrtasida Kompleks bank xizmati shartnomasi (KBXSh) bilan birgalikda tuzilgan hisoblanadi.

2.2. Mijoz tegishli Ariza berish orqali (Bank Ofisida yozma shakldа ham MBX vositasida ham) Qoidalarning Ilovalarida va Bank Tariflarilarida oʻrnatilgan tartibda Shartnoma tuzib, Bank tomonidan KBXSh doirasida taqdim qilinadigan har qanday bank mahsulotidan foydalanishi mumkin.

Tuzilgan Shartnoma KBXShning ajralmas qismi hisoblanadi. Shartnomaning kuchga kirish tartibi va sanasi Qoidalarning tegishli Ilovasi bilan belgilanadi. Mijoz arizasida koʻrsatilgan bank xizmatlari boʻyicha tegishli huquq va majburiyatlarga ega boʻladi.

Tekshiruv kodi yordamida tasdiqlangan, MBX vositasida berilgan ariza Mijoz tomonidan shaxsan berilgan deb hisoblanadai va qoʻl bilan imzo qoʻyilgan qogʻoz koʻirinishdagi tegishli hujjatlar bilan teng deb tan olinadi hamda Taraflar uchun shartnoma boʻyicha xuddi shunday hujjatlar keltirib chiqaradigan huquq va majburiyatlar bilan bir xil boʻlgan huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi.

2.3. Agar Shartnomada boshqa narsa nazarda tutilmagan boʻlsa, KBXSh doirasida bank xizmatlari koʻrsatish Mijozning arizasi, Operatsiya oʻtkazish (xizmat koʻrsatish) sanasida amalda boʻlgan Shartnomalar va Bank Tariflariga asosan amalga oshiriladi.

2.4. KBXSh va Shartnomalar ommaviy ekanligini hamda bank xizmatlarining narxi barcha Mijozlar uchun bir xilda belgilanishini hisobga olib, Qoidalarga, ularning Ilovalarni ham ichiga olgan holda, Ilovalarning soni va tarkibiga, Loyallik dasturiga, Shartnomalar va Bank Tariflariga faqatgina Bank tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 382-moddasi 1-qismiga mufoviq oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritilishi mumkin.

2.4.1. Amaldagi qonunchilik normalarining, Toʻlov tizimlari qoidalarining oʻzgarishi, Bank tomonidan yangi bank mahsulotlari va/yoki xizmatlari koʻrsatilishi, bank mahsulotlarini taqdim qilish texnologiyalarining oʻzgarishi hamda boshqa sabablar munosabati bilan, bunday oʻzgarishlar kuchga kirishidan 5 (besh) kalendar kun oldin kechikmasdan Bank Qoidalarning Ilovalarini qoʻshib ushbu Qoidalarga, shuningdek, Loyallik dasturlariga, Ilovalarning miqdori va tarkibiga, shuningdek, Bank Tariflariga Mijozga yangi (oʻzgartirilgan) tahrirdagi xabarnomani (oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi ofertani) quyidagi shakllarda yuborish orqalioʻzgartirish va/yoki qoʻshimcha kiritishni taklif qilish huquqiga ega, xabarnoma muddati oʻzgarishlar kuchga kirish sanasigacha bir kundan kechiktirilmaydigan yangi bank mahsulotlarini va/yoki Bank xizmatlarini kiritish, Bankning amalda boʻlgan xizmatlarini taqdim qilish shartlarini yaxshilash yoki amaldagi qonunchilik talablarini oʻzgartirishbilan bogʻliq boʻlgan oʻzgarishlar bundan mustasno:

- Mijozning elektron pochtasi manziliga elektron shaklda;
- Bank Ofislaridagi ma'lumotlar taxtasiga yangilangan hujjatlarni joylashtirish orqali;
- ma'lumotlarni Bankning saytida yoxud ommaviy axborot vositalarida joylashtirish orqali;

• MBXning interfeysida.

Mazkur bandga muvofiq kiritilgan o‘zgarishlar kuchga kirgunga qadar Mijozdan Bankka KBXSh va/yoki Shartnomani bekor qilish to‘g‘risida yozma ariza kelib tushmagan bo‘lsa, ushbu holat (harakatsizlik) taklif qilingan o‘zgartirishlarga Mijozning roziligini (akseptini) bildiradi, KBXSh/Shartnoma/Bank Tariflari yangi tahrirning amal qilishi boshlangan sanada Taraflarning kelishuvi bo‘yicha o‘zgartirilgan hisoblanadi, agar Qoidalarning Ilovalarida va/yoki Bank Tariflarida boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq Qoidalarga va/yoki Shartnomalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagi kelishuvning yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi KBXSh/Shartnoma/Bank Tariflari kuchga kirganidan keyin Operatsiyalarning amalga oshirilishi/Arizalar berilishi Mijozning o‘zgartirilgan KBXSh/Shartnoma/Bank Tariflari bilan roziligining qo‘shimcha tasdig‘i bo‘lib hisoblanadi.

2.4.2. Amaldagi qonunchilik talablari, shuningdek, boshqa tadbirlar (xususan, Bankni qayta tashkil etish, buxgalteriya hisobini yuritish tartibining o‘zgarishi, dasturiy ta‘minotning almashishi, yangi platformaga o‘tilishi va boshq. natijasida) munosabati bilan Shartnomaning hisobvaraqning bank rekvizitlari qismiga o‘zgartirishlar kiritish Qoidalarning 2.4.1-bandida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

2.5. Mijoz ushbu Qoidalarga qo‘shilar ekan, quyidagi maqsadlar uchun Bankka/Bankning Hamkorlariga KBXSh, Shartnomalar va Mijoz hamda Bank o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, Bank va boshqa shaxslar, shu jumladan, Mijoz vakil, sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs yoki naf oluvchi bo‘lgan sug‘urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalar tuzish natijasida oylik ish haqi doirasida Bank bilan shartnoma imzolagan Mijoz, yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan Bankka taqdim qilingan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini, shuningdek, Mijozning har qanday (shu jumladan, Mijozning roziligi bilan suratga olish orqali olingan) foto ko‘rinishini qayta ishlashga (qog‘oz va/yoki elektron qurilmalarda avtomatik yig‘ish vositalaridan foydalanib va/yoki foydalanmasdan Shaxsiy ma'lumotlarni ko‘chirish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlash (yangilash, o‘zgartirish), olish, foydalanish, topshirish (tarqatish, shuningdek, uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun topshiriq berishda kirish uchun ruxsat berish) egasizlantirish, bloklash, o‘chirish, yo‘q qilish) o‘z roziligini bildiradi:

- Tuzilishi uchun, shu jumladan, faqatgina Mijoz shaxsiy ma'lumotlarini avtomatik qayta ishlash yo‘li bilan Bank tomonidan ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilinishi mumkin bo‘lgan, KBXSh, KBXSh doirasida Shartnomalar, ta'minot va boshqa shartnomalarni tuzish imkoniyatining Bank tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun;

- Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini, shuningdek, Mijozning bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqishda kreditga layoqatliligi/ to‘lovga layoqatliligini tekshirish (shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim qilishni ham o‘z ichiga oladigan) uchun;

- Shartnomalarni, shu jumladan, bank operatsiyalarini amalga oshirish hamda barcha turdagi bank xizmatlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi shartnomalarni bajarish va bekor qilish, Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan ta'minot to‘g‘risidagi hamda boshqa shartnomalarni, shuningdek, Bank hamda boshqa shaxslar, shu jumladan, Mijoz vakil, sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs yoki naf oluvchi bo‘lgan, sug‘urtalovchi bilan bunday shartnomalar bo‘yicha Mijoz shaxsiy ma'lumotlarini mazkur shaxslarga taqdim qilgan holda tuzilgan shartnomalarni bajarish, Shartnomalar bo‘yicha kreditor huquqlarining huquqdan (talabdan) uchinchi shaxs foydasiga voz kechish orqali sotib yuborilishi munosabati bilan Bank bilan bitimlar tuzish uchun;

- Shartnomalar bo‘yicha Qarzni talab qilish (so‘ndirish, undirish) uchun;

- shaxsiy ma'lumotlarni, shuningdek, elektron ko‘rinishda ham himoya qilish, saqlash hamda Mijozning shaxsiy ma'lumotlari va bank siridan iborat hujjatlarni amaldagi qonunchilikka asosan tashish uchun;

- shartnomalarni tuzish, bajarish hamda bunday shartnomalar bo‘yicha Bank tomonidan o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq har qanday shakldagi xulosalar va maslahatlar olish uchun, bunday xulosalar va maslahatlar olish uchun Bank tomonidan jalb qilinadigan auditorlar va uchinchi shaxslarga Mijoz shaxsiy ma'lumotlari taqdim qilinishiham mumkin;

- Bank bilan Mijoz o‘rtasida tuzilgan Shartnomalarda, boshqa hujjatlarda ko‘rsatiladigan boshqa maqsadlar uchun.

Bunda Bank bilan bitta xoldingga kiruvchi shaxslar/Bankning afillangan shaxslari, Bank bilan shartnomaviy (hamkorlik) aloqalariga ega kompaniyalar (hamkor banklar, auditorlar, sug‘urtalovchilar, telekommunikatsiya tizimlari operatorlari va provayderlari, transport korxonalari, temir yo‘l va aviakompaniyalar, konsalting, baholovchi kompaniyalar, supermarketlar, restoranlar va boshqa xususiy hamda davlat tashkilotlari, muassaslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) Bankning Hamkorlari deb tushuniladi. Loyallik dasturlarida ishtirok qiluvchi Bank hamkorlari to‘g‘risidagi to‘liq va dolzarb ma'lumotlar Bankning saytida mavjud.

Shuningdek, agarda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash zarurati ushbu rozilikda ko‘rsatilgan qayta ishlov berish maqsadlari uchun kelib chiqqan bo‘lsa, Mijoz Bank va Bank hamkorlariga o‘z shaxsiy ma'lumotlarining va biometrik shaxsiy ma'lumotlarining har qanday maxsus toifasini qayta ishlashga huquq (rozilik) beradi.

Bankka taqdim qilinadigan hujjatlarda (Arizalar, boshqa hujjatlar) uchinchi shaxslar (turmush o‘rtog‘i, vakili, naf oluvchiva/yoki boshqa shaxslar) to‘g‘risidagi ma'lumotlarni ko‘rsata turib, Mijoz Bank tomonidan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish, shu bilan birga, bunday shartnomalar bo‘yicha Bank va Mijozning huquq hamda majburiyatlarini amalga oshirish, shuningdek, saqlash maqsadida Bankka ushbu shaxslarning Mijoz tomonidan taqdim qilingan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga topshiriq beradi. Bunda Mijoz ushbu shaxslardan ularning Bankka taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarini Mijoz (Bankka taqdim qilish ham kiradi), Bank va Bank Hamkorlari tomonidan qayta ishlanishiga rozlik olinganligini tasdiqlaydi.

2.6. Ushbu orqali Mijoz Kartochka va MBXidan foydalanish shartlari, ulardan foydalanish usullari va joylaridagi cheklovlar, ulardan foydalanishdagi yuqori xavf, shu jumladan, Mijozning hisobvarag‘ida joylashtirilgan pul mablag‘lariga Mijozning ruxsatisiz uchinchi shaxslar tomonidan foydalanishning mavjud xavflari bilan tanishtirilganligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan, Mijoz Kartochkaning qadrsizlanishi va yo‘qolishining, shuningdek, pul mablag‘lariga Kartochka yoki uning rekvizitlari va/yoki MBX yordamida Mijozning ruxsatisiz kirishning oldini olish maqsadida Chiqim limitlarini (chegarasini) o‘rnatish orqali barcha ehtiyot va maxfiylik choralarini ko‘rishi, shuningdek, ushbu Qoidalar va uning ilovalariga asosan Kartochkadan foydalanish qoidalari/tartibiga rioya qilishi shart. Mijoz unga MBX orqali Bank tomonidan yuboriladigan hisobvaraq va/yoki Kartochka to‘g‘risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga ma'lum bo‘lib qolganda, buning uchun Bank javobgar emasligini tan oladi.

2.7. Mijoz ushbu orqali Bankka MBX orqali xizmat ko‘rsatish doirasida mobil telefon raqamiga xabarnoma, shu jumladan, SMS-xabarnoma xizmatiga ulanganda Tekshiruv kodi va bildirshnoma, shuningdek, Internetda 3D Secure (VerifiedbyVisa) texnologiyasidan foydalanib Operatsiyalar o‘tkazilganida verifikatsiya kodi bilan SMS-xabar hamda KBXSh va Shartnomalarni bajarish maqsadida boshqa bildirishnomalar yuborishga vakolat beradi va bunga o‘z roziligini bildiradi.

2.8. Mijoz Pensiya fondi va uning bo‘limlariga amaldagi qonunchilikka asosan Pensiya fondining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan Mijoz to‘g‘risidagi va boshqa ma'lumotlarning Bank tomonidan taqdim qilinishiga, shuningdek, Pensiya fondi va uning bo‘limlaridan Mijoz to‘g‘risidagi ma'lumotlarning olinishiga o‘z roziligini bildiradi.

2.9. Ushbu orqali Mijoz Konversion operatsiyalarni o‘tkazish uchun Bank tomonidan o‘rnatilgan xorijiy valyuta kursining Bank saytida joylashtirilishi Mijozni lozim darajada xabardor qilish ekanligiga roziligini bildiradi.

2.10. Bank xavfsizlikni ta'minlash hamda Mijozga lozim darajada xizmat ko‘rsatish maqsadida uni qo‘shimcha ravishda ogohlantirmasdan o‘zining binolarida videokuzatuv, shuningdek, audio (video) yozuv amalga oshirish va o‘zining qurilmalarida Mijoz harakatlarini, shu jumladan KBXSh doirasida Operatsiyalar o‘tkazishda va boshqa harakatlarda loginlashtirishni amalga oshirish huquqiga borligiga Mijoz o‘z roziligini bildiradi. Audio (video) yozuvlardan KBXSh va/yoki Shartnoma bo‘yicha hamda prosessual harakatlarda Taraflar o‘rtasidagi nizoni hal qilishda dalil sifatida foydalanilishi mumkin.

2.11. Taraflar KBXSh va/yoki Shartnomani tuzish, o‘zgartirish va bajarish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirishda Bank vakolatli shaxslarining imzosini qo‘yishda faksimeldan va Mijozga taqdim qilinadigan yoki yuboriladigan talabnomalarni, bildirshnoma va xabarnomalarni, ofertalarni, akseptlarni Qoidalarga, Shartnomalarga asosan MBX orqali yuborganda ularni imzolashda muhr izidan foydalanish mumkinligiga kelishib oldilar.

KBXSh va/yoki Shartnomalarni bajarish uchun muhr izi deyilganda nusxa ko‘chirish vositalari orqali va tipografik usulda muhr izini grafik ko‘rinishda qo‘yish tushuniladi.

KBXSh vositasida shakllantirilgan elektron hujjatlar, ushbu Qoidalarga muvofiq Mijoz auntentifikatsiyasining ijobiy natijalaridan so‘ng qog‘ozdagi xuddi shunday hujjatlarga teng hisoblanadi va Tomonlarda Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan KBXSh hamda Shartnomalar bo‘yicha shunday hujjatlar bilan bir xil bo‘lgan huquqlarni keltirib chiqaradi. Bunday hujjatlar yozma dalillar bilan bir xil kuchga ega bo‘lgan dalillar sifatida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda taqdim qilishini mumkin, bunda ushbu dallillarning maqbulligi ular elektron hujjatlar ko‘rinishda yoki ularning qog‘ozdagi nusxasi taqdim etilgan degan asos bilan tan olinmasligi mumkin emas.

2.12. Ushbu orqali Mijoz Bank tomonidan To‘lov tizimi qoidalarining bajarilishi Mijozga Kartochkadan foydalangan holda hisob-kitoblar amalga oshirish imkoniyatini taqdim qilish uchun zarur ekanligini tushunishini va bunga roziligini tasdiqlaydi. Mijoz ushbu Qoidalarga ko‘shilar ekan, To‘lov tizimi Qoidalarining KBXSh va/yoki Bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomadan kelib chiqqan huquqiy munosabatlarga qo‘llaniladigan ta'sir kuchini tan oladi. Mijoz to‘lov tizimi Qoidalari bilan KBXSh tuzilgunga qadar tanishganligini va ularga rioya qilish majburiyatini olganligini tasdiqlaydi.

2.13. Mijoz Bank tomonidan Hamkorlarning qoidalarini bajarish Mijozga Loyallik dasturlarida ishtirok qilish imkoniyatini taqdim qilish uchun zarur ekanligini tushunishini va bunga roziligini tasdiqlaydi. Mijoz ushbu Qoidalarga ko‘shilar ekan, Hamkorlar Qoidalarining Loyallik dasturlaridan kelib chiqqan huquqiy munosabatlarga qo‘llaniladigan ta‘sir kuchini tan oladi.

2.14. Mijoz tomonidan KBXSh bo‘yicha huquqlarni uchinchi shaxslarga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 3. MASOFAVIY BANK XIZMATLARI ORQALI XIZMATLAR KO‘RSATISH TARTIBI

3.1. Taraflar KBXShni tuzib, Bank Mijozining MBXning barcha xizmatlariga - Internet bank yoki Mobil bank xizmatlariga kirishi mumkinligini tan olishadi.

3.2*. MBX vositasida ko'rsatiladigan xizmatlar ba'zi hollarda MBXning dasturiy texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqib chegaralangan miqdorda taqdim qilishini mumkin. Muayyan xizmatning yoqilganligi (o'chirilganligi)/qo'shilganligi to'g'risidagi xabar Shaxsiy kabinetda joylashtiriladi.*

3.3. Shaxsiy kabinetga Internet bank/mobil ilova orqali kiriladi. Mijozga Autentifikatsiyaning ijobiy natijasi bo'yicha Shaxsiy kabinetga kirishga ruxsat beriladi.

3.4. Mijoz MBX xizmatlariga kirishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va aloqa manbaalarni mustaqil va o'z hisobidan ta'minlaydi, shuningdek, ushbu manbaalarni ularga ruxsatsiz kirishdan vazarar keltiruvchi dasturiy ta'minotdan himoya qilishni ta'minlaydi.

3.5. MBX vositasida xizmatlar taqdim qilish amaldagi qonunchilik, Qoidalar, ularning Ilovalari, Bank tariflari, shuningdek, To'lov tizimi Qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.6. Mijoz MBX xizmatlaridan shaxsan o'zi foydalanadi, MBX doirasida huquqlarni Mijozning Vakiligi o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

3.7. Bank hohlagan paytda o'z xoxishiga ko'ra ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan tartibda MBX vositasida taqdim qilinadigan xizmatlar/mahsulotlar ro'yxatini o'zgartirish huquqini saqlab qoladi.

3.8. Ariza, Topshiriqnomalarni qabul qilish Bank tomonidan kechayu-kunduz amalga oshiriladi. Bank tomonidan Ariza, Topshiriqnomalarni ijro qilish ularning kelib tushishiga qarab navbat tartibida keyingi Operasion kundan kechiktirilmasdan amalga oshiriladi. Ariza, Topshiriqlarni ijro qilish muddati, agar Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, amaldagi qonunchilik bilan belgilanadi.

3.9. Bank Mijozning MBX vositasida shakllantiriladigan Topshiriqnomalari summasi va miqdoriga bir tomonlama tartibda doimiy yoki vaqtinchalik cheklov qo'yish, shuningdek, MBX vositasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa cheklovlar kiritish huquqiga ega.

3.10. Bank quyidagi hollarda Mijozga uning MBXdan foydalanib bergan Ariza, Topshiriqnomalari ijrosi amalga oshirishni rad qilish huquqiga ega:

- MBX xizmatlari dasturiy ta'minotida uzilishlar mavjud bo'lganda, Bank tomonidan dasturiy ta'minotdra profilaktik tadbirlar amalga oshirilganida, shuningdek, Bankning xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa hollarda (fors-major holatlari, elektr energiyasi o'chirilganida, telekommunikason uzilishlar va h.q.). ***Ushbu holatda Ariza, Topshiriqnomalar faqatgina Bank Ofisida berilishi mumkin.***
- Ariza, Topshiriqnomani MBXdan foydalangan holda yuborganda xavfsizlikni buzish belgilari aniqlanganda, shu jumladan, Bankda Ariza, Topshiriqnomani ijro qilish Bank yoki Mijoz uchun zarar keltirishi mumkin deb hisoblashga asos bo'lsa;
- Mijozning hisobvarag'i/Kartochkasida Arizada, Topshiriqnomada ko'rsatilgan operatsiyalarni amalga oshirish uchun Operatsiya o'tkazish sanasida amalda bo'lgan Bank tariflariga muvofiq Bankning vositachilik haqini qo'shib hisoblaganda yetarli pul mablag'lari majud bo'lmasa;
- Operatsiyaning miqdori o'rnatilgan Chiqim chegarasidan ortiq bo'lsa;
- Mijoz tomonidan Ariza, Topshiriqnomada ko'rsatilgan mavjud bo'lmagan/noto'g'ri rekvizitlar aniqlanganida;
- Mijozning ushbu Qoidalarni buzganligi to'g'risida Bank tomonidan ma'lumot olinganida;
- Topshiriqnoma orqali rasmiylashtirilgan Operatsiya Mijozning tadbirkorlik foaliyati bilan bog'liq bo'lsa;
- amaldagi qonunchilik talablarining Mijoz tomonidan buzish belgilari aniqlanganida;

- amaldagi qonunchilik, mazkur Qoidalar, To‘lov tizimi qoidalari va Bank hamda Mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda ko‘rsatilgan boshqa hollarda.

3.11. Bankda MBXga Mijozning nomidan ruxsatsiz kirishga haraqat qilinayotgan bo‘lishi mumkin degan yetarli asoslar majud bo‘lganida, Bank Mijozni ogohlantirmasdan uning MBXga kirishini vaqtincha to‘xtatib turish yoki cheklash huquqiga ega. Taraflardan birining tashabbusi bilan Mijozning MBXga kirishini to‘xtatib turish yoki cheklash bungacha kelib chiqqan o‘zaro hisob-kitoblar va zararni qoplash bo‘yicha majburiyatlarning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi.

3.12. Mijoz MBX vositasida taqdim qilingan Ariza, Topshiriqnomalarning ijro etilganligini tasdiqlash to‘g‘risidagi yozma so‘rov bilan Bank Ofisiga murojaat qilish huquqiga ega.

3.13. Arizalar, Topshiriqnomalar, shuningdek, mazkur Qoidalarga muvofiq Mijozni Autentifikatsiya qilgandan ko‘ng Tekshiruv kodi yordamida imzolangan boshqa hujjatlarni Bankka topshirish orqali tuzilgan Bitimlar (shartnomalar) yozma shaklda bitim tuzishga qo‘yilgan talablarni qanoatlantiradi va bitim tuzayotgan shaxsning shaxsan ishtirokida tuzilgan bitimlar olib keladigan yuridik oqibatlan bilan bir xil bo‘lgan yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday hujjatlar, bitimlar (shartnomalar) yozma dalillar bilan bir xil kuchga ega bo‘lgan dalillar sifatida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda taqdim qilishini mumkin, bunda ushbu dallillarning maqbulligi ular elektron hujjatlar ko‘rinishda yoki ularning qog‘ozdagi nusxasi taqdim etilgan degan asos bilan tan olinmasligi mumkin emas.

3.14. Mijoz Bankning talabi bilan Bankka o‘zi bergan Ariza, Topshiriqlarning qog‘ozdagi nusxasiga imzo qo‘yishi shart.

3.15. Mijoz MBX vositasida operatsiya amalga oshirishda qo‘llaniladigan Mijozni identifikasiya va Autentifikasiya qilish usullari yetarli ekanligiga va Mijozning Hisobvaraqlari/Kartochkalari bo‘yicha Banknig operatsiya o‘tkazish huquqini va MBX doirasida boshqa ma'lumotlar taqdim qilish huquqini lozim darajada tasdiqlashiga o‘z roziligini bildiradi.

3.16. Taraflar Mijozning tekshiruv kodidan foydalanishini Mijoz tomonidan MBX vositasida berilgan Arizalar, Topshriqlar qonuniyligining, haqiqiyligining, o‘zgarmasligining va muallifi Mijoz ekanligining tasdig‘i sifatida tan oladilar hamda quyidagilarga kelishadilar:

- Tekshiruv kodi Ariza, Topshiriqning Mijoz nomidan tuzilganligi va imzolaganligini tasdiqlaydi;
- Tekshiruv kodi qog‘ozda qo‘l bilan qo‘yilgan imzoga teng deb tan olinadi;
- Tekshiruv kodi yordamida imzolangan Ariza, Topshiriqlar, mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan hamda Ariza, Topshiriqlarning barcha majburiy rekvizitlarini saqashni ta'minlovchi usullarda Bankka topshiriladi.

Mijoz va Bankning dasturiy ta'minoti ishlab turgan hamda Mijozning Autentifikatsiyasi amal qilib turgan uzluksiz bir vaqtning oralig‘ida Mijoz tomonidan MBX vositasida yuborilgan Barcha Ariza, Topshiriqlar Mijoz tomonidan topshirilgan va Bank tomonidan qabul qilib olingan hisoblanadi.

3.17. Mijoz MBXdan foydalanganida MBXga kirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan ma'lumotlarni, shu jumladan, Kirish vositalarini boshqa shaxslarga oshkor qilmasligi kerak.

3.18. Mijoz yoki Bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlar/Operatsiyalar Bankning axborot tizimlarida elektron hujjatlar va elektron xabarnomalar ko‘rinishida qayd qilinib boriladi. Bank va Mijoz o‘rtasida MBX orqali amalga oshirilgan harakatlar/Operatsiyalar bilan bog‘liq biror-bir kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, Taraflar Bankda saqlanayotgan elektron hujjatlar va elektron xabarnomalarni dalil sifatida tan oladilar.

MBXdan foydalanib amalga oshirilgan harakatlar/Operatsiyalar bo‘yicha Bank tomonidan Bank tasdiqlagan shaklda qog‘ozda shakllantirilgan, Bankning vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan va Bank muhri qo‘yilgan muayyan hisobotlar Taraflar tomonidan Qoidalarda nazarda

tutilgan Operatsiya va harakatlarning amalga oshirilganligiga yetarli dalil boʻlib hisoblanadi va har qanday nizolarni hal qilishda foydalanilishi, shuningdek, har qanday sud organlariga taqdim qilinishi mumkin.

MBX vositasida Bank va Mijoz tomonidan tuzilgan/yuborilgan/shakllantirilgan elektron hujjatlar va elektron xabarnomalar amaldagi qonunchilikda oʻrnatilgan muddatlarda Bankda saqlanadi.

3.19. MBXga ruxsatsiz kirish holatlarida va/yoki Kirish vositalari yoʻqolganida Mijoz Bank Ofisiga kelib yoki mijozlarni koʻllab-quvvatlash Xizmatiga qoʻngʻiroq qilib, ShTH ma'lumotlari va lozim boʻlsa Kodli soʻzni aytib, zudlik bilan MBXga kirishni bloklashi shart. MBX xizmatlariga kirishni yangidan ochish uchun Mijoz Bank ofisiga shaxsan murojaat qilishi kerak.

3.20. Mijoz mobil telefon raqamining boshqa shaxslar tomonidan foydalanishiga imkon bermaslik majburiyatini oladi, mobil telefon raqamidan boshqa shaxlar insofsizlarcha foydalashini mumkin deya taxmin qilish uchun asoslar paydo boʻlganida, Mijoz mobil telefon raqamining yoʻqolganligi/oʻgʻirlanganligi, oʻzgarganligi haqida Bank ofisiga shaxsan kelib, zudlik bilan xabar berishi shart.

Mobil telefon raqamining oʻzgarganligi haqidagi ariza Bank tomonidan olingunga qadar Bankka oldin taqdim qilingan mobil telefon raqamidan foydalanib amalga oshirilgan harakatlar uchun Mijoz javobgar hisoblanadi.

3.21. Bank Mijoz tomonidan MBXdan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan kirish chegaralangan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz/noqonuniy kirishini oldini olish uchun barcha oqilona choralarni koʻradi.

3.22. Mijoz MBX xizmatlariga kirish uchun ishlatiladigan qurilmaning axborot xavfsizligini oʻzi mustaqil taʻminlaydi.

3.23. **Internet bank va Mobil bank xizmatlarini taqdim qilish va ulardan foydalanish tartibi.**

Internet bank va Mobil bank xizmati Moliyaviy va Axborot operatsiyalarini oʻtkazish imkoniyatiga ega boʻlgan barcha Mijozlarga, shuningdek, MKHga ega boʻlmagan Qoʻshimcha kartochka egalariga axborot operatsiyalari qismi boʻyicha taqdim etiladi.

Mijoz Internet bank va Mobil bank xizmatlariga kirish uchun Kirish vositalaridan foydalanadi.

MBX xizmatlaridan foydalanganda Mijoz Bankka Ariza va Topshiriqnomalar yuborish imkoniyatiga ega boʻladi.

MBX xizmatlari orqali Mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega boʻladi:

- tegishli namunani sozlash orqali Doimiy topshiriqnomalarni rasmiylashtirish, Mijoz Doimiy topshiriqnomani ijro qilishning tanlash mumkin boʻlgan davriyligidan birini mustaqil oʻzi tanlaydi. Doimiy Topshiriqnoma ijro qilinishi uchun Mijoz Kartochkada/Hisobvaraqda Bank Tariflarida nazarda tutilgan Bankning vositachilik haqini qoʻshib hisoblaganda pul mablagʻlarini koʻchirish uchun yetarli boʻlgan pul mablagʻlarining boʻlishini ta'minlashi shart. Doimiy Topshiriqnomani ijro qilish paytida Kartochkada/Hisobvaraqda Bankning vositachilik haqini hisobga olgan holda Doimiy Topshiriqnomani ijro qilish uchun yetarli boʻlgan pul mablagʻlari mavjud boʻlmaganida, pul mablagʻlari koʻchirib berilmaydi, bu haqida Bank Mijozni mobil telefon raqamiga tegishli SMS-xabarnoma joʻnatish yoki Shaxsiy kabinetida tegishli bildirishnoma joylashtirish orqali xabardor qiladi;

- milliy valyutadagi pul mablagʻlarini (Oʻzbekiston Respublikasining ichida) Bankda ochilgan hisobvaraqdan/Kartochkadan, Bankda ham boshqa banklarda ham ochilgan Hisobvaraq/Kartochkaga, shu jumladan, uchinchi shaxslarning foydasiga oʻtkazish. Xorijiy valyutada mijozlarning hisobvaragʻidan mijozning nomiga ochilgan oʻzining hisobvaragʻiga. Xalqaropul oʻkazmalari tizimi vositasida amalga oshiriladigan pul oʻtkazmalari;

- tovarlar/ishlar/xizmatlar, shu jumladan, Bank tomonidan ajratilgan kreditlar uchun; DYHXB jarimalari; soliqlar va yig‘imlar; byudjet tashkilotlari, kommunal, telekommunikasiya xizmati ko‘rsatuvchi tashkilotlarning xizmatlari uchun va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish;

- MBXga kiritilgan boshqa imkoniyatlar.

MBX xizmatlarida Ariza, Topshiriqnomalarni shakllantirishda va ularning qonuniyligini, haqiqiyligini, o‘zgarmasligini va muallifi Mijoz ekanligini tasdiqlashda Mijoz tekshiruv kodidan foydalanadi.

Ushbu orqali Mijoz Internet tarmog‘i kirish uchun xavfsiz kanal emasligini tushunadi hamda ma'lumotni Internet tarmog‘i orqali yuborishda uning maxfiyligi va to‘liqligining ehtimoliy buzilishi xavfini o‘z bo‘yniga oladi.

3.24. **MBX doirasida Bank tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlar.**

3.24.1 ***SMS-bank:***

MBX doirasida Bank tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlar

SMS-bank xizmati tegishli Ariza berish orqali ushbu xizmatga ulangan barcha Mijozlarga ko‘rsatiladi.

Mijoz SMS-bank vositasida mobil telefon raqamidan Bankka Axborot operatsiyalarini amalga oshirishga so‘rovlar, Kartochkani bloklashga so‘rovlar, shuningdek, SMS-bank imkoniyatlaridan kelib chiqib boshqa so‘rovlar yuborishi mumkin.

SMS-bank vositasida yuborilgan so‘rovlar, ular Mijozning mobil telefon raqamidan yuborilganligi bilan tasdiqlanadi, bu narsa ular Mijozning o‘zi tomonidan tuzilganligini tasdiqlashga imkon beradi.

Jo‘natilgan SMS-xabarlar uchun hisob-kitoblar SMS-xabar jo‘natuvchi tomonidan uyali aloqa operatori bilan mustaqil amalga oshiriladi.(Bankning ishtirokisiz).

Uyali aloqa operatorining aybi bilan yoki Mijoz sutka davomida xizmat doirasidan tashqarida bo‘lganida yoxud telefon o‘chirilgan, nosoz va boshq. holatda bo‘lganda javob SMS-xabar yetkazib berilmaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi, bunda SMS-xabar Bank yuborgan sanada Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

SMS-bank xizmatidan foydalanganda Mijoz o‘z mobil telefonida SMS funksiyasining bo‘lishini, shuningdek, SMS xizmatiga ulanishni, o‘z uyali aloqa operatorida qisqa raqamlardan foydalanish imkoniyatini mustaqil ta'minlaydi.

Mijoz mobil telefon raqamiga/raqamidan yuborilgan SMS-xabar bevosita Mijozning o‘zi tomonidan/o‘ziga yuborilganligini tasdiqlaydi.

3.24.2. ***SMS-axborot:*** SMS-axborot xizmati tegishli Ariza berish orqali ushbu xizmatga ulangan barcha Mijozlarga ko‘rsatiladi.

SMS-axborot xizmati doirasida Bank/YaUPM Mijozning mobil telefon raqamiga Kartochka va uning rekvizitlaridan foydalangan holda o‘tkazilgan Operatsiyalar to‘g‘risida, Kartochkaning amal qilish muddati tugaganligi to‘g‘risida, Mijozning kreditlar bo‘yicha Bank oldidagi majburiyatlari to‘g‘risida SMS-xabar ko‘rinishidagi ma'lumotlarni va boshqa ma'lumotlarni yuboradi.

Bank SMS-axborot xizmati doirasida yuboriladigan ma'lumotlar ro‘yxatiga ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Ushbu orqali Mijoz mobil telefon raqamining o‘zgarganligi to‘g‘risida Bankni xabardor qilguniga qadar Mijoz tomonidan Bankka oldin taqdim qilingan mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar bevosita Mijozning o‘ziga yuborilgan hisoblanadi.

Bank/YaUPM tomonidan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborilgan sana Mijoz tomonidan SMS-xabarnoma (SMS-bildirishnoma) qabul qilingan sana hisoblanadi.

Uyali aloqa operatorining aybi bilan yoki Mijoz sutka davomida xizmat doirasidan tashqarida bo‘lganida yoxud telefon o‘chirilgan, nosoz va boshq. holatda bo‘lganda SMS-xabar yetkazib berilmaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi, bunda SMS-xabar Bank yuborgan sanada Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

Mijoz Mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar bevosita Mijozning o‘ziga yuborilgan deb hisoblanishini tasdiqlaydi.

## 4. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**

4.1.1. Mijozni, Mijoz vakilini, Benefitsiar mulkdorni indentifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan, shu jumladan, Mijoz tomonidan tuziladigan bitimlarning asosi va maqsadini tushuntiradigan ma'lumotlar hamda hujjatlarni so‘rash, qasddan ishonchsiz hujjatlar taqdim qilinganida yoki Bank tomonidan so‘ralayotgan hujjatlar taqdim qilinmaganida amaldagi qonunchilikka asosan Mijozga Shartnoma tuzishni, Operatsiyalar amalga oshirishni, shuningdek, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa xizmatlar ko‘rsatishni rad qilish.

4.1.2. Mijoz, Mijoz vakili, Benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yangilash maqsadida amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda bir yilda kamida bir marotaba, shuningdek, boshqa hollarda, biroq uch yila kamida bir marotaba va Mijoz ma'lumotlarida o‘zgarishlar majvud bo‘lganida, shuningdek, oldin olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi va aniqligiga shubha tug‘ilganida hujjatlar va ma'lumotlarni so‘rab olish.

4.1.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq identifikatsiya o‘tkazishda va ma'lumotlarni yangilashda Bank Mijozdan, uning Vakilidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, Mijoz tomonidan tuziladigan bitimlarning yoki Mijozning Hisobvaraq va/yoki Kartochkasi bo‘yicha amalga oshiriladigan, shuningdek, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan operatsiyalarining iqtisodiy mohiyatini, asosini va maqsadini tushuntiradigan hujjatlarni taqdim qilishni talab qilish hamda Mijozdan va uning Vakilidan olish huquqiga ega.

4.1.4. Mijoz Vakilining farmoyishini ijro qilishni boshlashdan oldin Bank tomonidan o‘rnatilgan ichki hujjatlar hamda jarayonlarga muvofiq Mijoz Vakilining vakolatlarini tekshirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish, shuningdek, bu narsa amaldagi qonunchilik, bank hisobvarag‘i (omonat) Shartnomasi, To‘lov tizimlari Qoidalariga zid yoki ta'qiqlangan bo‘lsa, shuningdek, Bankning ichki hujjatlari va jarayonlariga zid bo‘lsa, Mijoz Vakilining Arizasi va Topshiriqnomasini ijroga qabul qilmaslik.

4.1.5. Mijoz va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan to‘lov rekvizitlarini ko‘rsatishda xatoliklar aniqlanganganda yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida o‘rnatilgan to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha talablar Mijoz tomonidan buzilganida, Mijozning farmoyishlarini bir tomonlama ijro qilmaslik.

4.1.6. Mazkur Shartnoma jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish uchun operatsiyalar amalga oshirish maqsadida tuzilayotganligi haqida shubha mavjud bo‘lsa Amaldagi qonunchilik talablarigamuvofiq Shartnoma tuzishni bir tomonlama rad qilish.

4.1.7. Bank xodimlarida Operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganligiga shubha paydo bo‘lsa, Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozning Operatsiya (jismoniy shaxsning hisobvarag‘iga kelgan pul mablag‘larini kirim

qilish bo‘yicha operatsiya bundan mustasno) o‘tkazish to‘g‘risidagi Topshiriqnomasini ijro qilishni bir tomonlama rad qilish.

4.1.8. Qonunchiligi ushbu mamlakat soliq to‘lovchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ochiladigan hisobvaraqlarning mavjudligini va ular bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirishni nazorat qilish maqsadida kredit tashkilotlaridan (moliya institutlaridan) maxsus bitim tuzishni talab qiladigan chet davlat fuqarosi -jismoniy shaxs bilan, shuningdek, Mijoz tomonidan uning chet el fuqaroligini va/yoki xorijiy davlatlarga soliq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini tasdiqlaydigan yoxud inkor qiladigan ma'lumotlar va hujjatlar taqdim qilish rad qilinganida bank hisobvarag‘i (omonat) shartnomasini (to‘liq yoki qisman) tuzishni Bir tomonlama rad qilish.

4.1.9. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda, shu jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish sohasida bir tomonlama tartibda Mijozning muayyan Operatsiyalarini (jismoniy shaxsning hisobvarag‘iga kelgan pul mablag‘larini kirim qilish bo‘yicha operatsiya bundan mustasno) to‘xtatib turish yoki Mijozning Hisobvarag‘i/Kartochkasidagi pul mablag‘larini bloklash (muzlatish).

4.1.10. ShTHning amal qilish muddati tugagandan so‘ng Mijoz tomonidan yangi ShTH taqdim qilinmaganida, keyingi kuni MBXga kirishni bir tomonlama bloklash.

4.1.11. MBX vositasida shubhali va/yoki gumonli Operatsiyalar o‘tkazilishining xavfini kamaytirish maqsdadida bir tomonlama:

- MBX xizmatlaridan foydalanib Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlanganda, Mijozning o‘tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi to‘g‘risida yozma tushuntirish berguniga qadar Mijozga MBX vositasida xizmat ko‘rsatishni to‘xtatib turish yoki rad qilish;
- MBX xizmatlaridan foydalanib shubhali operatsiya o‘tkazilganligi haqida gumon paydo bo‘lganida Mijozni uning manzili bo‘yicha, shu jumladan operatsiyani bevosita Mijoz tomonidan amalga oshirilganligi jarayonini o‘rganish maqsdada o‘rganish;
- Undan foydalangan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan MBX vositasida xizmatlar taqdim qilishni uch kunga yoki amaldagi qonunchilikda o‘rnatilgan boshqa muddatlarga to‘xtatib turish
- MBXdan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanganlik to‘g‘risida asoslangan shubhalar mavjud bo‘lganda, KBXShni to‘liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama tartibda bosh tortish.

4.1.12. Quyidagi hollarda amaldagi qonunchilikda va mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan muddatlardaKBXShni to‘liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama tartibda bosh tortish:

- MBXdan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanganlik to‘g‘risida asoslangan shubhalar mavjud bo‘lganda;
- AQShning soliq rezidenti bo‘lgan Mijoz uning xorijiy soliq to‘lovchi sifatida identifikasiya qilish uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni taqdim qilmaganida va/yoki IRS (AQSh soliq organi)ga ma'lumot berilishiga rozilik (rozilik taqdim qilishni rad qilish) taqdim qilmaganida.

4.1.13. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijozning hisobvaraqalaridan pul mablag‘larini o‘chirish.

4.1.14. Hisobvaraqdan pensiya mablag‘larini kirim qilish uchun foydalanilganida tegishli pul mablag‘larini to‘lagan O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasi yoki uning hududiy bo‘limlari talabi bo‘yicha Mijozning qo‘shimcha roziligisiz yuqoridagi organlarga bunday Hisobvaraq va

ularning egalari to‘g‘risida ma'lumotlarni, shuningdek, tegishli to‘lovlarni to‘lashni to‘xtatishga olib keluvchi holatlarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni berish.

4.1.15. Shartnomani tuzish va bajarish maqsadida Mijozning/Kafilning kredit tarixiga oid kredit byurosida saqlanadigan ma'lumotlarni olish, shuningdek, kredit ajratish bilan va Mijoz/Kafil tomonidan kreditni qaytarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi bilan bog‘liq ma'lumotlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurosiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga taqdim qilish.

4.1.16. Quyidagi hollarda Mijozning Hisobvarag‘iga kelgan pul mablag‘larini “Aniqlash jarayonidagi transakitsiyalar” hisobvarag‘iga kirim qilish:

- Operatsiyaning savdo tusiga ega emasligini tasdiqlash maqsadida;
- to‘lov hujjatida to‘lov maqsadlari (tafsilotlari) to‘g‘risida ma'lumotlarning bo‘lmasligi;
- to‘lov hujjatida xatolarning mavjudligi, shu jumladan, hisobvaraq raqami, Mijozning F.I.Sh.
- amaldagi qonunchilikda va KBXShda ko‘rsatilgan boshqa hollarda;

Operatsiyaning qonuniyligini, shuningdek, to‘lov hujjatining zarur rekvizitlarini aniqlash maqsadida Bank Mijozdan tegishli hujjatlarni taqdim qilishni talab qilish huquqiga ega. Pul mablag‘larini Mijozning hisobvarag‘iga kirim qilish uchun mavjud bo‘lmasa, ular (pul mablag‘lari) yuboruvchiga qaytarilishi mumkin.

4.1.17. Talab qilib olinguncha, jamg‘arma, muddatli omonatlarda (20206, 20406, 20606, 22616, 22618,22617 hisobvaraqlarda) saqlanayotgan pul mablag‘larini kredit bo‘yicha ta'minot sifatida garovga olish.

4.1.18. Chet davlat fuqarosi – jismoniy shaxs tomonidan chet el fuqaroligini va/yoki xorijiy davlatlarga soliq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini tasdiqlaydigan yoxud inkor qiladigan ma'lumotlar va hujjatlar taqdim qilish rad qilinganida u bilan KBXSh va Shartnomalar tuzishni rad qilish yoxud KBXShni bajarishni bir tomonlama rad qilish (to‘liq yoki qisman).

4.1.19. Shartnomalarni tuzish va bajarish maqsadida Mijozning Arizada yoki boshqa hujjatlarda aks etgan roziligi mavjud bo‘lgan taqdirda Mijozning/Kafilning kredit tarixiga taalluqli kredit byurosida saqlanadigan ma'lumotlarni olish, shuningdek, kredit ajratish bilan va Mijoz/Kafil tomonidan kreditni qaytarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi bilan bog‘liq ma'lumotlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurosiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga taqdim qilish.

4.2. Bankning majburiyatlari:

4.2.1. Pul mablag‘larini ular kelib tushgan kuning keyingi Operasion kunidan kechiktirmasdan Mijozning hisobvaraq(lar)iga kirim qilish, Mijozning hisobvaraq(lar)idan pul mablag‘larini ko‘chirish va/yoki berish to‘g‘risidagi farmoyilsharini bajarish, shuningdek, Hisobvaraq(lar) orqali amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda boshqa Operatsiyalarni o‘tkazish.

4.2.2. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Operatsiyalar, Hisobvaraqlar, omonatlar va Mijozlar haqida ma'lumotlarni sir saqlash. Bank uchinchi shaxslarga Operatsiyalar, Hisobvaraq(lar), Mijozning omonatlari va Mijoz tomonidan olingan kreditlar hamda uning so‘ndirilishi haqida faqatgina amaldagi qonunchilikda ko‘rsatilgan hollarda va tartibda ko‘chirma va ma'lumot taqdim qiladi.

4.2.3. Mijozning talabi bo‘yicha Hisobvaraqlar va Kartochkalardagi pul mablag‘larining holati va harakati to‘g‘risida ko‘chirmalar hamda Bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risiagi Shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qiladi.

4.2.4. Elektron hujjatlarning arxivini yuritadi, qog‘ozdagi xuddi shunday hujjatlarni saqlash uchun o‘rnatilgan muddat davomida ularni saqlaydi.

4.2.5. Mijozga Kartochka yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshirilgan har bitta Operatsiya bo‘yicha Operatsiya amalga oshirilgandan keyin uch kun ichida Shaxsiy kabinetga joylashtirilganKartochka va/yoki Hisobvaraq bo‘yicha ko‘chirma shaklida ma'lumot beradi. Bunda Mijozga Qoidalarga muvofiq MBX xizmatlariga kirishga ruxsat berilganda va Kartochka/Hisobraqam bo‘yicha ko‘chirmani shakllashtirish imkoniyati berilganda BankningKartochka yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya bo‘yicha ma'lumot berish majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

4.2.6. Mijozga Qoidalarga muvofiq xizmat ko‘rsatish hamda amaldagi qonunchilikda va Mijoz hamda Bank o‘rtasida tuzilgan Shartnomalarda belgilangan tartibda Mijozning Topshiriqnomalarini ijro qilish.

4.2.7. Mijozning amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solinadigan daromadi paydo bo‘lganida, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq hisoblash, ushlash va to‘lash, shuningdek, soliq davrining (kalendar yili) oxirida o‘zi ro‘yxatdan o‘tgan soliq organiga jismoniy shaxslarning daromadi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni amaldagi qonunchilikka asosan taqdim qilish bo‘yicha soliq agenti vazifasini bajarish.

4.3. **Mijozning quyidagi huquqlarga ega:**

4.3.1. Shaxsan yoki Shartnoma shartlarida Mijoz tomonidan harakatlar shaxsan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan hollardan tashqari, shuningdek, agar ushbu holat amaldagi qonunchilik, ichki hujjatlar va Bank jarayonlariga zid bo‘lmasa, Vakilorqali (MBX vositasida amalga oshiriladigan harakatlar bundan mustasno) harakat qilish. Mijoz Vakilida vakolatlarning mavjudligi Mijozning Vakil vakolatlarini bekor qilish to‘g‘risidagi yozma arizasi Bankka taqdim qilingunga qadar taqdim etilgan, amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu vakolatlarni tasdiqlaydigan xujjatlardan kelib chiqib Bank tomonidan aniqlanadi. Bunda Mijoz Vakilining vakolatlari bekor bo‘lganligi haqida o‘z vaqtida xabar berilmagan hollarda, Bank Mijoz Vakili tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javob bermaydi.

4.3.2. Xizmat ko‘rsatishga oid masalalar bo‘yicha Bank Ofisiga va/yoki mijozlarni qo‘llab-quvvatlash Xizmatiga murojaat qilish.

4.3.3. So‘rovga asosan hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilgan Operatsiyalar bo‘yicha ko‘chirmalarni olish. Amaldagi qonunchilik, shuningdek, Hisobvaraq bo‘yicha Operatsiya Kartochka va uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan bo‘lsa,Kartochka tegishli bo‘lgan To‘lov tizimi qoidalariga asosan Hisobvaraq bo‘yicha Operatsiyalarga tegishli bo‘lgan e'tirozlarni yozma shaklda bildirish.

4.3.4. Bank MBX vositasida berilgan ijro qilingan Topshiriqnomalar to‘g‘risida muhim va to‘g‘ri ma'lumotlar olish.

4.3.5. Muddatli omonatlar yoki jamg‘arma omonatla hisobvaraqlarida saqlanayotgan pul mablag‘larini kredit bo‘yicha ta'minot sifatida garovga qo‘yish.

4.3.6. Bank tomonidan Qoidalarga, Qoidalarning Ilovalariga, Bank Tariflariga kiritilgan o‘zgartirishlarga, boshqa o‘zgartirishlarga, shu jumladan, To‘lov tizimi qoidalariga rozi bo‘lmaganda, Bank mahsulotidan foydalanishni rad etish to‘g‘risida Bank belgilagan shakldagi tegishli arizani Bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi shartnomada belgilangan tartibda Bankka taqdim qilish orqali Bank mahsulotidan foydalanishdan voz kechish va tegishli Shartnomani bekor qilish.

4.3.7. Bank Ofislarida bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida oldindan maslahat olish.

4.4. **Mijozning majburiyatlari:**

4.4.1. Shartnomalarga asosan ochiladigan Hisobvaraq/Kartochkalardan quyidagi masqadlarda uchun Operatsiyalar (shu jumladan, Bank tomonidan halqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi) oʻtkazishda foydalanmaslik:

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan;
- Bankning va/yoki Mijozning zarar koʻrishiga, shu jumladan, Mijozga (uning pul mablagʻlariga) nisbatan xorijiy davlatning qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va xorijiy davlatning boshqa vakolatli organlari qarorlari bilan oʻrnatilgan cheklovlar munosabati bilan Mijozga (uning pul mablagʻlarigi) va/yoki Bankka nisbatan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari va/yoki xorijiy davlatlarning moliya tashkilotlari tomonidan sankiyalar qoʻllash kabi boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan;
- Amaldagi qonunchilikka zid boʻlgan.

4.4.2. Shartnoma tuzishdan oldin taqdim qilish paytida Mijoz, Mijozning vakili va Benefisiar mulkdorlar toʻgʻrisida toʻgʻri va haqiqiy boʻlgan ma'lumot hamda hujjatlarni amaldagi qonunchilikka, Qoidalarga va Bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq taqdim qilish.

Mijoz tomonidan tavdim qilinadigan hujjatlar ularni taqdim qilish sanasida haqiqiy boʻlishi lozim. Toʻliq yoki bir qismi chet tilida tuzilgan Bankka taqdim qilinadigan hujjatlar, oʻzbek yoki russ tiliga tarjima qilingan, amaldagi qonunchilikda oʻrnatilgan tartibda tasdiqlangan tarjimasi bilan birga taqdim qilinishi kerak, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda hujjatning tarjimasi talab qilinmaydigan hollar bundan mustasno. Bank talabiga binoan mijoz tomonidan bankka taqdim qilingan xorijiy rasmiy hujjatlar Bank tomonidan faqatgina legalizasiya (konsullik legalizasiyasi) yoki imzo qoʻygan shaxs imzosining hamda tegishli muxr va shtamplarning haqiqiyligini va sifatini tasdiqlash uchun apostil' qoʻyilgan holda qabul qilinadi.

4.4.3. Mijoz, Mijozning Vakili, Benefisiar mulkdor toʻgʻrisidagi ma'lumotlarning oʻzgarganligi haqida (ShTH ma'lumotlari, uning almashganligi, shuningdek, yashash joyini roʻyxatga olish toʻgʻrsidaga ma'lumotlar, telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqamlari, faks, elektron (pochta) manzili va boshqa ma'lumotlar oʻzgargan taqdirda) Bankni xabardor qilish va ushbu oʻzgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni oʻzgarishlar kiritilgan sanadan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida Bank Ofisiga taqdim qilish.

Tegishli oldingi xabarnoma olingan yoki Mijoz, Mijozning Vakili, Benefisiar mulkdori dastlabki identifikasiya (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish toʻgʻrisidagi qonunchilikka muvofiq) qilingan paytdan boshlab 12 (oʻn ikki) oy mobaynida Bank tomonidan Mijozdan anketa (shaxsiy) ma'lumotlarning oʻzgarganligi toʻgʻrisida xabarnoma olinmagan boʻlsa, Bank Mijoz tomonidan oldin taqdim qilingan ma'lumotni tasdiqlangan deb hisoblaydi.

Mijoz tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar va aloqa axoborotining oʻzgarganligi toʻgʻrisida xabarni oʻz vaqtida olinmaganligi natijasida kelib chiqqan oqibatlar uchun Bank javobgar boʻlmaydi.

Mijoz tomonidan oldin taqdim qilingan anketa (shaxsiy) ma'lumotlarni oʻzgartirish uchun Mijoz shaxsan tegishli ariza bilan Bank Ofisiga murojaat qilishi shart.

4.4.4. Mijozning Vakiliga berilgan ishonchnomaning muddatidan oldin bekor qilinganligi haqida Bankni oʻz vaqtida xabardor qilish.

4.4.5. Naf oluvchi foydasiga Operatsiya oʻtkazishdan oldin hujjatlarni, shu jumladan, agentlik, topshiriq, vositachilik, ishonchli boshqaruv va boshqa fuqarolikhuquqiy tusdagi shartnomalarni, shuningdek, Naf oluvchi boʻyicha identifikasiyalash uchun zarur boʻlgan ma'lumotlar/hujjatlarni Bankning talabi bilan va/yoki amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda taqdim qilish.

4.4.6. Daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi qonunchilikka muvofiq Mijoz yuqori mansabdor shaxs yoki uning Vakili, ishonchli shaxsi, turmush oʻrtogʻi yoki yaqin qarindoshi (nasl nasab shajarasi boʻyicha toʻgʻri tutashgan (ota-ona va farzandlar, bobolar, buvilar

va nevaralar, tug‘ishgan va o‘gay (umumiy ota yoki onasi bo‘lgan) aka-uka va opa-singillar) bo‘lsa, Bankni xabardor qilish.

4.4.7. Mijoz AQSh fuqaroligini olsa yoki oldin AQSh fuqarosi bo‘lsa, AQShda doimiy borish uchun ruxsatnomaga (doimiy istiqomat qiluvchi kartochkasi (I-551-shakl (GreenCard)) ega bo‘lsa, joriy kalendar yilni hamda oldingi ketma-ket ikki yilni hisobga olgan holda joriy kalendar yilda 31 kundan kam bo‘lmagan va 3 yil mobaynida 183 kundan kam bo‘lmagan muddatda AQSh hududida bo‘lgan bo‘lsa, AQSh fuqarosining ijtimoiy sug‘urta raqamiga (SocialSecurityNumber) yoki AQSh soliq to‘lovchisining shaxsiy indentifikasiya raqamiga (IndividualTaxpayerIdentificationNumber) ega bo‘lsa Bankni xabardor qilish.

4.4.8. Qoidalar, amaldagi Bank tariflari va kompleks bank xizmati ko‘rsatish Shartnomasiga aloqador boshqa hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek, yangi Bank xizmatlari/mahsulotlari haqida o‘z vaqtida ma'lumot olish maqsadida doimiy ravishda, biroq, 2 (ikki) kalendar kunda kamida bir marotaba har qanday maqbul usullarda Bankning tarkibiy bo‘limlariga murojaat qilish va/yoki Bank saytining tegishli bo‘limlariga kirib turish.

4.4.9. Bank tomonidan mazkur Qoidalarga muvofiq so‘ralgan ma'lumot va hujjatlarni Bank talabi olingan kunning ertasidan 2 (ikki) kalendar kun mobaynida taqdim qilish.

Bank ko‘rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish va aniqlash maqsadida rasmiy manbaalardan foydalanish huquqiga ega.

4.4.10. KBXSh va Shartnomalarni tuzish hamda bajarish uchun Bankka taqdim qilinadigan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javob berish.

4.4.11. Bank tariflari va Shartnomalarga asosan vositachilik haqi va/yoki Bank foydasiga to‘lanadigan boshqa to‘lovlarni to‘lashga yetarli bo‘lgan pul mablag‘larining Hisobvaraqda mavjud bo‘lishini ta'minlash orqali tegishli Shartnomalar va Bank tariflari shartlariga muvofiq KBXSh va/yoki Shartnomalarda ko‘rsatilgan vositachilik va boshqa to‘lovlarni Bankka to‘lash.

4.4.12. MBXdan foydalanganda mazkur Qoidalar va Bank tariflari hamda MBX doirasida Taraflarning munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarning qoidalariga rioya qilish.

4.4.13. Mijoz vakilining nomiga rasmiylashtirilgan ishonchnomaning amal qilish muddati tugaganida Bank ofisiga tegishli yozma ariza taqdim qilish orqali darhol Bankni xabardor qilish. Mijoz tomonidan Yuqorida ko‘rsatilgan ishonchnomaning amal qilish muddati tugaganligi to‘g‘risida Bankni ogohlantirmaslik/ o‘z vaqtida ogohlantirmaslik natijasida kelib chiqqan zarar va boshqa salbiy oqibatlarning xavfi bo‘yicha javobgarlik Mijozga yuklatiladi.

4.4.14. Bankka KBXSh va Shartnomalarni bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan zararlarni to‘lab berish.

4.4.15. Qoidalarning 2.4.2-bandiga asosan Hisobvaraq raqami o‘zgarganda barcha topshiriqnomalar, oldin berilgan akseptga topshiriqnomalar ham, eski Hisobvaraq raqamlari ko‘rsatilgan ishonchnoma bilan rasmiylashtirilgan Hisobvaraqni tasarruf qilishga vakolatlar ham o‘z kuchida qolishini va Mijoz raqami o‘zgargan Hisobvaraqqa keyinchalik xizmat ko‘rsatishda Bankka ushbu topshiriqnomalardan foydalanishga topshiriq berishini Tasdiqlash.

4.4.16. Mijozga nisbatan bankrotlik tamoyillari qo‘llanilayotganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida Bankni yozma ravishda xabardor qilish, shuningdek, Bankni xabardor qilmaslik/o‘z vaqtida xabardor qilmaslik natijasida kelib chiqqan barcha salbiy oqibatlar xavfini o‘z zimmasiga olish.

4.4.17. Qoidalar va/yoki Tariflar va/yoki KBXShga aloqador boshqa hujjatlarga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek, yangi Bank xizmatlari haqida o‘z vaqtida ma'lumot olish maqsadida doimiy ravishda (2 (ikki) kalendar kunda kamida bir marotaba) har qanday maqbul usullarda shaxsan yoki ishonchli o‘\shaxslar orqali Bankning tarkibiy bo‘limlariga murojaat qilish va/yoki Bank saytining tegishli bo‘limlariga kirib turish. Mijozning Qoidalar va/yoki Tariflar va/yoki

KBXShga aloqador boshqa hujjatlarga kiritiladigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar bilan oʻz vaqtida tanishmaganligi Bank tomonidan ularni koʻllamaslik uchun asos boʻlmaydi.

4.4.18. KBXSh va Shartnomalarni tuzish hamda bajarish uchun Bankka taqdim qilinadigan Ariza(lar) va boshqa hujjatlarda koʻrsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javob berish.

4.4.19. Bank tariflari va Shartnomalarga asosan vositachilik haqi va/yoki Bank foydasiga toʻlanadigan boshqa toʻlovlarni toʻlashga yetarli boʻlgan pul mablagʻlarining Hisobvaraqda mavjud boʻlishini ta'minlash orqali tegishli Shartnomalar va Bank tariflari shartlariga muvofiq KBXSh va/yoki Shartnomalarda koʻrsatilgan vositachilik va boshqa toʻlovlarni Bankka toʻlash.

4.4.20. Mijozning F.I.Sh., manzili va/yoki pasport ma'lumotlari oʻzgarganda 5 (besh) kalendar kun ichida oʻzgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini Bank ofisiga taqdim qilish.

4.4.21. Kartochkaga(dan) xato oʻtkazilgan/oʻchirilgan pul mablagʻi aniqlanganda, bu haqida darhol Bankka ma'lum qilish.

4.4.22. Bankning talabi bilanMijoz tomonidan Bankka taqdim qilingan Topshiriqnomalarning qogʻoz nusxasini imzolash.

4.4.23. Mazkur Qoidalar va Bank hamda Mijoz oʻrtasida tuzilgan Shartnoma shartlariga asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4.5. Bank va Mijoz mazkur Qoidalarda koʻrsatilgan huquq va majburiyatlardan tashqari tegishli Shartnomalar bilan belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflar oʻz majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun amaldagi qonunchilik, mazkur Qoidalar va tuzilgan Shartnomalarga asosan javobgar boʻladi. Mijoz tomonidan Qoidalarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik oqibatida Bankka yetkazilgan zarar Mijoz tomonidan qoplab beriladi.

5.2. Mijozning KBXSh doirasida ochil(adi)gan Hisobvaraqlarida joylashtirilgan pul mablagʻlari Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarining banklardagi omanatlarini himoyalash kafolatlari» toʻgʻrisidagi Qonunda belgilangan tartibda, miqdorda va shartlarda himoyalanishi kafolatlanadi.

5.3. Bank Kartochka/Hisobvaraq yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar haqida Mazkur Qoidalarning 3,4 boʻlimlariga asosan Mijozga ma'lum qilish boʻyicha majburiyatini bajargan, Mijoz esa Kartochkaning yoʻqoganligi va/yoki undan Mijozning roziligisiz foydalanilganligi va/yoki MBXga ruxsatsiz kirilganligi haqida Qoidalarning 3-boʻlimida oʻrnatilgan tartibda va muddatlarda Bankni xabardor qilmagan boʻlsa, Bank Mijozning roziligisiz Kartochka/Hisobvaraq yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan foydalanib Operatsiyalar amalga oshirilganligi uchun javobgar hisoblanmaydi,

5.4. Kartochkaning yoʻqolganligi va/yoki undan Mijozning roziligisiz foydalanilganligi va/yoki MBXga ruxsatsiz kirilganligi, Kirish vositalarining yoʻqoganligi haqida Bankka xabar berilgunga qadar Hisobvaraq va Kartochka boʻyicha amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar, shuningdek, MBX vositasida bajarilgan boshqa harakatlar boʻyicha Mijoz javobgar boʻladi.

5.5. Bank quyidagi hollarda javobgar boʻlmaydi:

- uning nazoratida boʻlmagan va pochta ishidagi, Internetdagi, aloqa tizimlaridagi hamda boshqa tashqi tashkilotlar va tarmoqlar ishidagi nosozliklar bilan bogʻliq boʻlgan va ularning oqibatida Bank xabarnomalari Mijoz tomonidan oʻz vaqtida olinmagan hamda umuman olinmagan holatlar uchun;

- Mijozning abonent qurilmasi zarar keltiruvchi viruslar bilan zararlanishi oqibatidava uning ishlashidagi nosozliklaruchun;

- Bankning KBXSh taqdim qilish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishini imkonsiz qilib qo‘yadigan O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligidagi o‘zgarishlar oqibatida;

- Mijoz vakilining vakolatlarini bekor qilish to‘g‘risidagi Mijozning arizasi Bankka kelib tushganiga qadar Mijoz vakilining amalga oshirgan harakatlari uchun;

5.6. Bank KBXSh bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, shu jumladan, Mijozning Arizalari, Topshiriqnomalarini bajarmaganlik/o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun ham javobgar bo‘lmaydi, agar:

- ijro uchinchi tarafning muayyan harakatlariga bog‘liq bo‘lib, uni bajarmaslik yoxud o‘z vaqtida bajarmaslik uchinchi tarafning zarur harakatlarni amalga oshira olmasligi yoki amalga oshirishni rad qilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, uchinchi taraf ushbu harakatlarni o‘rnatilgan tartibni buzgan holda amalga oshirsa yoki Bank uchun amalga oshira olinmaydigan bo‘lsa;

- ijro qilmaslik yengib bo‘lmaydigan kuch, ya'ni shartnoma tuzilganidan keyin kelib chiqqan favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan holatlar natijasida kelib chiqqan bo‘lsa;

- bajarmaslik/vaqtida bajarmaslik O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning bo‘limlari, korrespondent banklar yoki uchinchi shaxslarning xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, xalqaro huquqiy xujjatlar, sud qarorlari va boshqa vakolatli organlarning qarorlari bilan Mijozga (uning pul mablag‘lariga) o‘rnatilgan cheklovlar bilan bog‘liq harakati/ harakatsizligining natijasi bo‘lsa;

- ijro qismaslik uchinchi shaxslar tomonidan ta'minlanadigan, uzatiladigan, ekspluatasiya qilinadigan va/yoki xizmat ko‘rsatiladigan quilma, elektr energiyasini uzatish tarmog‘i va/yoki aloqa liniyasi va tarmoqlari ishining buzilishi bilan bog‘liq avariyalar, nosozliklar va xizmat ko‘rsatishdagi uzilishlarning natijasi hisoblansa;

- banklararo elektron to‘lovlar tizimida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nosozliklarda;

- to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan qo‘l qo‘yilgan kamchiliklar natijasida;

- pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulklar muzlatilgan hollarda, shuningdek, hisobvaraqda mavjud bo‘lgan pul mablag‘lariga ta'qiq solinganida yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilganida;

5.7. Mijoz mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo‘ladi va buning natijasida kelib chiqqan barcha salbiy oqibatlarni o‘z zimmasiga oladi, shuningdek, o‘zi tomondan yuqorida ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan barcha zararlarni Bankka qoplab beradi.

5.8. Bank MBX doirasida taqdim qilinadigan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning ehtimoliy ruxsatsiz kirishi uchun, shuningdek, MBX vostasida yuboriladigan yuqorida ko‘rsatilgan ma'lumotlarning ehtimoliy buzib ko‘rsatilganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.9. Mijoz Arizalar, Topshiriqnomalarning to‘g‘ri tuzilganligi uchun javobgar hisoblanadi.Mijozning xato tuzilgan Arizalari, Topshiriqnomalarini ijro qilish natijasida Mijoz ko‘rgan zarar uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

5.10. Mijoz unga tegishli bo‘lmagan qurilmalarda MBX xizmatlariga kirilganligi uchun, ma'lumotlar maxfiyligi va butligining ehtimoliy buzilishlari bilan bog‘liq xavf uchun, shuningdek, uchinchi shaxslarning ehtimoliy noqonuniy haraktlari uchun javobgar bo‘ladi.

5.11. Taraflar tomonidan KBXShni bajarish bilan bog‘liq nizoli holat kelib chiqqan taqdirda, Taraflar nizoli holatni muzokara yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha choralarni ko‘radilar.

KBXSh bo‘yicha xizmat ko‘rsatish doirasida Bankning haraktlaridan norozi bo‘lganda, shu jumladan, Bank tomonidan MBX doirasida Ariza, Topshiriqnoma bo‘yicha o‘tkazilgan

Operatsiyalarga Mijoz tomonidan e'tiroz bildirilganida, u Bank Ofisiga yozma ariza bilan murojaat qilishi kerak.

5.12. Bank Mijoz vakilining vakolatlari bekor qilinganligi to‘g‘risidagi Mijozning yozma arizasi Bankka kelib tushganiga qadar Mijoz vakilining amalga oshirgan harakatlari uchun Mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi.

5.13. Agar Mijozning hamkori yoki pul mablag‘larini oluvchi shaxs terroristik harakatlar yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishda qatnashadigan yoki gumonlanadigan shaxslar ro‘yxatida va/yoki sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lsa, mijoz javobgalikka (shu jumladan moliyaviy javobgarlikka ham) tortiladi.

## 6. KOMPLEKS BANK XIZMATI SHARTNOMASINING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI.

6.1. KBXSh Mijoz Qoidalarga ko‘shilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va agar tegishli Shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, cheklanmagan muddatga amal qiladi.

6.2. KBXSh Mijozning Bank Ofisiga bevosita beriladigan yozma arizasi asosida bekor qilinadi. Bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi aniq Shartnomalarda boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, KBXShni bekor qilish KBXSh doirasida tuzilgan barcha shartnomalarning amal qilishini to‘xtashiga va tegishli.

Hisobvaraqalar (Kartochkalar)ning yopilishiga olib keladi, bunda Mijoz barcha tuzilgan Shartnomalar bo‘yicha KBXSh bekor qilingunga qadar kelib chiqqan o‘z majburiyatlarini bajarishi shart.

6.3. KBXSh doirasida tuzilgan bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi alohida Shartnomaning bekor qilinishi KBXShni bekor qilinishiga olib kelmaydi. KBXSh doirasida tuzilgan alohida Shartnomani bekor qilish tartibi mazkur Qoidalar va tegishli Shartnomada belgilangan.

6.4. Hisobvaraq(lar)/Kartochka(lar)ni yopish hamda qoldiq pul mablag‘larini Mijozga qaytarish amaldagi qonunchilikda va Qoidalarning Ilovalarida ko‘rsatilgan hamda To‘lov tizimi Qoidalarida (zarurat bo‘lganda) ko‘rsatilgan shartlarda tuzilgan bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

6.5. Bank ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Mijozning manziliga yozma xabarnoma yuborish orqali KBXShni to‘liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama voz kechish huquqiga ega.Bunda KBXSh Bank tomonidan pochta xizmati orqali xabarnoma yuborilgan sanadan boshlab uchinchi kunda bekor qilingan hisoblanadi.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, yer silkinishi, yong‘in, ish tashlash va boshqa vaziyatlar (taraflardan birining aybi bilan kelib chiqmagan, biroq ular tomonidan majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir o‘tkazadigan texnikaning ishdan chiqishi, dasturiy ta'minotdagi, elektr ta'minotidagi va ma'lumotlar uzatish tizimidagi uzilishlar), ommaviy tartibsizliklar, davlat boshqaruv va nazorat organlarining hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining cheklovchi-ta'qiqlovchi choralari/hujjatlari, kommunal avariyalar vanatijasi KBXSh yoki bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risida tuzilgan har qanday Shartomalarni bajarish imkoniyatini cheklaydigan yoki ularni bajarishga yo‘l qo‘ymaydigan Taraflar ta'sir ko‘rsata olmaydigan hamda ularning kelib chiqqanligi uchun javobgar bo‘lmaydigan boshqa hodisalar kabi yengib bo‘lmaydigan kuch natijasida KBXSh bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi,

Taraflarning majburiyatlarini bajarish muddati KBXSh yoki bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi tegishli Shartnomani bajarilishiga ta'sir qiluvchi yuqoridagi vaziyatlarning amal qilish muddati tugagan muddatgacha ko‘chiriladi. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari kelib chiqqanida Mijoz bu haqida, shu jumladan, KBXSh va uning doirasida tuzilgan bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkoniyati mavjud emasligi haqida Bankni 3 (uch) kalendar kun mobaynida yozma shaklda, Bank esa har qanday maqbul usulda (Bank saytida, Bank ofislarida, SMS-xabarnoma va boshq.) xabardor qilishi shart.

7.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari bunga vakolatli bo‘lgan organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda tasdiqlanganida fors-major bo‘lib hisoblanadi.

## 8. YaKUNIY QOIDALAR

8.1. KBXSh va/yoki uning doirasida alohida tuzilgan Shartnoma shartlari va ushbu shartlarning Taraflar tomonidan bajarilishi bo‘yicha kelishmovchilik va nizolarkelib chiqqan taqdirda, Taraflar nizoli holatni muzokara yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha choralarni ko‘radilar.

Mijoz KBXSh bo‘yicha xizmat ko‘rsatish doirasida Bankning haraktlaridan norozi bo‘lganda, u Bank Ofisiga yozma ariza bilan murojaat qilishi kerak.

Shartnomani bajarmaslik oqibatida Taraflar o‘rtasida KBXShdan, shuningdek, bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomalardan va ulardan kelib chiquvchi majburiyatlardan, shu jumladan, ularni bajarish, o‘zgartirish kiritish, bekor qilishdan kelib chiqadigan barcha nizolar Bank joylashgan joydagi fuqarolik sudida yoki O‘zbekiston Respublikasi savdo-sanoat Palatasi huzuridagi hakamlik sudida (keyingi o‘rinlarda “Hakamlik sudi») Hakamlik sudi Reglamenti, Hakamlik sudi to‘g‘risidagi, Hakamlik sudida taraflarning yig‘imi, xarajatlari va chiqimi to‘g‘risidagi Nizomlarga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan yagona hakamlik sudi sud'yasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.U yoki bu sudga murojaat qilishni tanlash huquqi da'vogarda qoladi.

8.2. Qoidalarda nazarda tutilmagan holatlar bo‘yicha Taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga amal qiladilar.

8.3. Qoidalarga va/yoki Qoidalarning Ilovalariga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, ular mazkur Qoidalarning 2.4-bandi talablariga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lsa, haqiqiy hisoblanadi.

## 9. BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI

“Kapitalbank” Aksiyadorlik tijorat banki nomidan
“Kapital-24” chakana biznes filiali
Manzil (joylashgan joyi): O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 7A-uy.
Ma'lumot uchun telefonlar +99871 200-16-16
Bankning Internet tarmog‘idagi rasmiy sayti: www.kapital24.uz

## 10. KOMPLEKS XIZMAT KO‘RSATISH QOIDALARIGA ILOVALAR

10.1. Quyidagi ilovalar mazkur Qoidalarning ajralmas qismi hisoblanadi:

***1-Ilova** – “Jismoniy shaxsning so‘mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzish va bajarish Tartibi”*

***2-Ilova***– *"Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasiga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish Tartibi"*

***3-Ilova***– *"Jismoniy shaxsga talab qilib olinguncha omonat (hisobvaraq) ochish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish Tartibi"*

***4-Ilova***– *"Jismoniy shaxsga muddatli omonat ochish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish Tartibi"*

***5-Ilova***– *"Kapitalbank" ATB "Kapital24" chakana biznes filiali tomonidan jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish uchun ARIZA-ANKETA"*

***6-Ilova***– *"Hisobvaraq ochish uchun ariza"*

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Boshqaruv raisi o'rinbosari-<br>'Kapital-24' ChBF Boshqaruvchisi | Akramov Sh.S. |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| Boshqaruv raisi o'rinbosari | Nadjimitdinov E.R. |
| Boshqaruv raisi o'rinbosari | Raxmatov B.S. |
| Boshqaruv raisi o'rinbosari | Nurutdinova M.D. |
| Bosh buxgalter | Skuybida Ye.E. |
| Plastik kartochkalar<br>Departamenti direktori | Riksiyev S.M. |
| Chakana biznes Departamenti<br>Direktori | Pulatov O.O. |
| Axborot texnologiyalari<br>Departamenti direktori | Emirsaliyev T.Sh. |
| Kreditlash Departamenti direktori | Yaxyoev A.A. |
| Kredit operatsiyalarini monitoring<br>Qilish Departamenti direktori | Tursunov A.A. |
| Yuridik departamenti<br>Direktori v.b. | Berdimuratova G.B. |
| Xatarlarni boshqarish<br>Departamenti Direktori | Yusufzoda Sh.N. |
| Pul muomalasi Departamenti<br>Direktori | Shirmuxamedov B.B. |

Ichki nazorat Departamenti
Direktori Xasanov K.A.

Ichki audit Departamenti
Direktori Allayorova D.N.

**“Kapitalbank” ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalariga**
**1-ILOVA**

## JISMONIY SHAXSNING SO‘MDAGI UZCARD EMV PLASTIK KARTOCHKASINI CHIQARISH VA UNGA XIZMAT KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA TUZISH VA BAJARISH TARTIBI

### 1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Tartibning maqsadlari uchun quyidagi atama va ta'riflardan foydalaniladi:

***Kartochkani faollashtirish -*** Kartochkani chiqarish/qayta chiqarish paytida Kartochkadan foydalanib Operatsiya amalga oshirishga ko‘yilgan texnik cheklovning Bank/YaUPM tomonidan bekor qilish jarayoni.

***Bankomat -*** Mijozlarga o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy-texnik majmua, ichki bank va banklararo to‘lov tizimlari kassa operatsiyalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bankomatlar Ekvayerning/Bankning xizmat ko‘rsatish tarmoqlari orqali avtomatik ravishda naqd pul mablag‘lari berish, Mijozga Karta hisobvarag‘ining holati bo‘yicha ma'lumot taqdim qilish, tegishli operatsiyalarni tasdiqlovchi ma'lumotlarni berish, shuningdek, boshqa operatsiyalarni, jumladan, tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishga (dasturiy-texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda) mo‘ljallangan.

***Kartochka bo‘yicha operatsiya amalga oshirilgan sana -*** Mijoz tomonidan Kartochkadan foydalangan holda tovar/xizmatlar uchun to‘lov qilish, va/yoki naqd pul mablag‘lari olish/kiritish bo‘yicha Operatsiyalar amalga oshirish sanasi, Karta hisobvarag‘idan/ga pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi bilan mos kelmasligi mumkin.

***Karta hisobvarag‘idan/ga pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi -*** Mijoz tomonidan Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya amalga oshirilganligini tasdiqlovchi yoki Karta hisobvarag‘idan/ga oldin o‘tkazilgan pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilishni bekor qiluvchi Topshiriqnoma Bankka kelib tushgan Operasion kunning ertasidan kechiktirmasdan amalga oshiriladigan Karta hisobvarag‘i bo‘yicha pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi, operatsiya amalga oshirilgan sana bilan mos kelmasligi mumkin.

***Kartochkaning saqlovchisi (Saqlovchi) -*** Bank tomonidan amaldagi qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlari, mazkur Qoidalarga asosan nomiga Kartochka chiqarilgan jismoniy shaxs (rezident, norezident).

***Ish haqi Mijozi -*** Bank bilan ish haqi loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida Shartnoma imzolagan yuridik shaxsning/yakka tartibdagi tadbirkorning xodimi hisoblangan Mijoz.

***Ish haqi loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida Shartnoma -*** Bankning Ish haqi Mijozlari Hisobvarag‘iga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, shuningdek, pensiyalarni ko‘chirib berish to‘g‘risida Bank/Bank filiali va yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor o‘rtasidagi kelishuv.

***Kartochka -*** Kompleks bank xizmati Qoidalariga, ushbu Tartibga, Bank Tariflariga va amaldagi qonunchilikka asosan Saqlovchiga Kartochkadagi foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar chegarasida Operatsiyalar amalga oshirish imkniyatini beruvchi Bank kartochkasi (so‘mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasi).

***Karta hisobvarag‘i -*** undagi pul mablag‘laridan Kartochka vositasida foydalanish mumkin bo‘lganbank hisobvarag‘i.

***Kodli so'z -*** Mijoz mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga telefon orqali murojaat qilganida Bank Mijozni identifikatsiyalash uchun Bank tomonidan foydalaniladigan Mijoz tomonidan Ariza-anketada ko'rsatiladigan so'z/jumla.

***Operatsiyalar bo'yicha chegara -*** Kartochkadan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshriladigan Operatsiyalar (Topshiriqnomalar)ni o'tkazishga Bank tomonidan o'rnatilgan cheklov.

***Asosiy kartochka -*** Shartnoma doirasidaKarta hisobvarag'iga uning egasi nomiga birinchi bo'lib chiqarilgan Kartochka, shuningdek, oldin chiqarilgan Asosiy Kartochka o'z kuchini yo'qotganida, uning o'rniga chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartochka.

***Qo'shimcha kartochka -*** ochish uchun Asosiy Kartochka egasining yozma arizasi talab qilinadigan Asosiy Kartochkaga (Asosiy Kartochkaning karta hisobvarag'iga) Qo'shimcha kartochka.

***PIN-kod*** - Karta hisobvarag'ida hisobdaturgan pul mablag'larini tasarruf qilish huqukini tasdiqlovchi, topshiriqning bank kartochkasi saqlovchisi tomonidan berilganligini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartochkada saqlanadigan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi Kartochkaning shaxsiy indentifikasion raqami. Pinkod maxfiy ma'lumot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim.

***Savdo (xizmat ko'rsatish) korxonasi*** - Kartochkani tovarlar va xizmatlar uchun to'lov sifatida qabul qiladigan har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

***Kartochkani amal qilishini to'xtatib turish*** - mazkur Tartibda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra Karta hisobvarag'i bo'yicha Operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turish.

***O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish Terminali*** - majmuaning vazifa va imkoniyatlariga qarab naqd pul mablag'laridan ham, bank kartochkalaridan ham foydalangan holda xizmatlar, ishlar, tovarlar, kreditlarni so'ndirish va h.k. bo'yicha to'lovlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan Bankning dasturiy-apparat majmuasi.

***Transaksiya*** - tovarlar va xizmatlarga to'lov qilish maqsadida Kartochka yordamida amalga oshiriladigan har qanday to'lov, shuningdek, bank kassalari yoki bankomatlardan naqd pul mablag'lari olish operatsiyasi.

***Reversal*** - kommunikasion xatoliklarda (aloqadagi uzilishlar) yoki Mijoz tomonidan tovarlar (xizmatlar)ni sotib olish rad qilinganida Kartochka bo'yicha terminaldagi transaksiyani bekor qilish.

1.2. Mazkur Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta'riflar Kompleks xizmat ko'rsatish Qoidalaridagi mazmun bilan bir xil ma'noga ega.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI VA KARTOCHKANI CHIQARISH TARTIBI

2.1. Mazkur Tartib jismoniy shaxsning so'mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasiga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi Shartnomani (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) tuzish va bajarish jarayonini tartibga soladi.

2.2. Mijoz Shartnoma imzolash uchun Bank belgilagan shakl bo'yicha to'ldirilgan Arizani (Ushbu Tartibning 2-Ilovasi) hamda amaldagi qonunchilik va Bank tomonidan o'rnatilgan tartibga asosan Shartnoma tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni MBX vositasida yoki Bank Ofisiga taqdim etadi. Mijozning Arizasi Bank tomonidan akseptlanganidan so'ng Shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Bank Arizani Karta hisobvarag'i ochish orqali akseptlaydi. Bunday holda Shartnoma Mijozning nomiga Karta hisobvarag'i ochilgan sanada tuzilgan hisoblanadi;

Mijoz tomonidan to'ldirilgan va imzolangan Ariza Bank tomonidan akseptlangan taqdirda Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi va Shartnomaning Qoidalarda, mazkur Tartibda bayon etilgan umumiy shartlariga Mijozning to'liq va so'ssiz roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Ariza berish jarayonida Mijozning Bank Tariflari bilan tanishganligini va ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Shartnoma aralash shartnoma hisoblanadi va bank hisobvarag‘i hamda bank kartochkalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarning elementlarini o‘z ichiga oladi. Bank belgisi qo‘yilgan Ariza nusxasi Mijozgauning so‘rovi bo‘yicha Bank Ofisida beriladi.

2.3. Qoidalar, mazkur Tartib, Bank Tariflari, Bank tomonidan akseptlangan Ariza Shartnomani tashkil qiluvchi hujjatlar hisoblanadi.

2.4. Kartochka Bankning mulki hisoblanadi va Kartochkaning amal qilish muddati tugagandan so‘ng keyingi kun yoki Shartnoma bekor qilinganda, shuningdek, mazkur Tartibda nazarda tutilgan boshqa hollarda Bankka qaytariladi.Kartochka Mijozdan Kartochkani olish uchun Ariza Bankka kelib tushgandan va Kartochka chiqarish uchun Bank Tariflariga muvofiq vositachilik haqi Bankka to‘langandan so‘ng 3 (uch) ish kuni mobaynida Bank tomonidan chiqariladi.

2.5. Chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartochka Saqlovchiga faol bo‘lmagan holatda topshiriladi. Kartochkani faollashtirishPOS – terminal yoki o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminali orqali (unda bunday imkoniyat mavjud bo‘lsa)PIN-kod o‘rnatish yo‘li bilan Mijoz tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

2.6. Kartochka shaxsiy to‘lov vositasi hisoblanadi, Kartochkaning nomiga Kartochka chiqarilgan qonuniy Saqlovchisi – shaxsga tegishliligi uning Kartochkadagi ismi, sharifi va/yoki imzo namunasi (Kartochkada shunday qator bo‘lganda), shuningdek, PIN-kod bilan aniqlanadi

2.7. Kartochkadan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank Mijozning nomiga Karta hisobvarag‘i ochadi, Arizaga muvofiq, shuningdek, mazkur Tartibda o‘rnatilgan tartib va muddatlarda Kartochka(lar)ni chiqaradi hamda beradi.

2.8. Karta hisobvarag‘i va Kartochka(lar)ga (shu jumladan Qo‘shimcha kartochkalarga ham) xizmat ko‘rsatish mazkur Tartib va Bank Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.9. Kartochkadan faqatgina Mijozning o‘zi yoki Karta hisobvarag‘ida hisobda turgan pul mablag‘larini tasarruf qilish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxs foydalanishi mumkin. Bunday holda Kartochkadan foydalanish bo‘yicha javobgarlik Kartochka Saqlovchisining zimmasida bo‘ladi.

## 3. KARTOCHKADAN FOYDALANISHNING UMUMIY QOIDALARI

3.1. Shartnomaga asosan chiqariladigan Kartochkadan tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish, bank kassalari va bankomatlardan naqd pul olish, pul mablag‘larini ko‘chirib berish, shuningdek, uning raqami va xavfsizlikning boshqa belgilaridan foydalanib Internet orqali to‘lovlar qilish uchun foydalaniladi.

3.2. Kartochkaning PIN-kodi Kartochka Saqlovchisi tomonidan muayyan to‘lov tizimi Kartochkasining PIN-kodini o‘zgartirish funksiyasi ega bo‘lgan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminallari/POS – terminallar orqali o‘zgartirilishi mumkin. Bank texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lgandagina PIN-kodni o‘zgartirish imkoniyatini taqdim qiladi. Yangi PIN-kod o‘rnatayotganda bir xil yoki ketma-ket keladigan raqamlardan iborat bo‘lgan kombinasiyadan foydalanish tavsiya etilmaydi. Saqlovchi PIN-kodni chegaralanmagan miqdorda almashtirishi mumkin.

U yo‘qotib qo‘yilganda PIN-kod qayta tiklanmaydi, bunday hollarda Bank Ofisiga murojaat qilish lozim.

3.3. Kartochkaning ishlashini ta'minlash uchun Saqlovchi mazkur Tartibning ilovasida bayon etilgan Kartochkani saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilishi hamda quyidagilarga yo‘l qo‘ymasligi kerak:

- magnit maydonlarining Kartochkaga ta'sir ko‘rsatishiga. Quyidagilar magnit maydonlarining manbaasi bo‘lishi mumkin: metall narsalar (tangalar, magnitli yopqichlar, lineykalar va boshq.); uyali aloqa telefonlarining ba'zi modellari; video-audio qurilmalar; qo‘lda foydalaniladigan metallodetektor va boshqa.

- Kartochkaning mexanik shikastlanishiga;
- Kartochkaning ifloslanishiga;

yuqori haroratning, shuningdek, kartochkaning plastik qatlamini va/yoki chipini buzadigan tajovuzkor muhitning Kartochkaga ta'sir ko‘rsatishiga.

3.4. Saqlovchi Kartochkadan uning amal qilish muddati tugaguncha foydalanishi mumkin. Kartochkaning amal qilish muddati uning yuza qismida ko‘rsatilgan va oyning ikkita raqami hamda yilning oxirgi ikkita raqamlari bilan belgilangan.Kartochka unda ko‘rsatilganoyning va yilningoxirgi kunigacha amal qiladi.

3.5. Kartochkaning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng u yangi muddatga qayta chiqarilishi (amal qilish muddati o‘tgan Kartochka o‘rniga chiqrilishi) mumkin.Kartochkani/Qo‘shimcha kartochkani qayta chiqarish uchun Mijoz, agar, bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan yuo‘lsa, Kartochka amal qilish muddatining oxirgi oyi mobaynida yoki uning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng MBX vositasida/Bank Ofisiga Kartochkani qayta chiqarish uchun Ariza bilan murojaat qilishi kerak.

3.6. Kartochka tegishli To‘lov tizimlari va kartochkalar turlarining logotipiga ega savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonalarida Operatsiya o‘tkazish uchun mo‘lajallangan. Kartochkadan biror-bir noqonuniy maqsadlarda, shu jumladan, amaldagi qonunchilik bilan ta'qiqlangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun foydalanish mumkin emas.

3.7. PIN-kod 3 (uch) marotaba noto‘g‘ri terilgan taqdirda Kartochka avtmatik ravishda bloklanadi.Kartochkani bloklashdan ochish uchun Saqlovchi Bank Ofisiga murojaat qilishi lozim.

3.8. Xarid amalga oshirilganida yoki naqd pul olinganda Saqlovchi PIN-kodni kiritishi va zarur bo‘lsa Kartochka bo‘yicha Operatsiyaning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi chekni imzolashi kerak. PIN-kodni kiritishda yoki chekni imzolash chog‘ida Saqlovchi ko‘rsatilgan summaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi va Operatsiya summasi ko‘rsatilmagan chekka imzo qo‘ymasligi kerak. Xariddan/xizmatdan voz kechilganida Operatsiyaning bekor qilinganligiga (Reversal) ishonch hosil qilish kerak.

3.9. Kartochka bo‘yicha Operatsiya amalga oshirilganida savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasining xodimi,agar, to‘lov tizimi Qoidalari va amaldagi qonunchilikda boshqa hol belgilanmagan bo‘lsa, Saqlovchidan yoki Kartochkaning boshqa foydalanuvchisidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatni va PIN-kodni so‘rash huquqiga ega emas. Bankkassasidan naqd pul olish faqatgina shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiriladi, amaldagi qonunchilik va/yoki to‘lov tizimi Qoidalari bilan nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.10. Xariddan/xizmatdan voz kechilganida tovar/xizmatning qiymati Bank va/yoki To‘lov tizimi tomonidan o‘natilgan tartibda Mijozning Kartochkasiga qaytarib beriladi. SaqlovchiKartochka bo‘yicha sotib olingan hamda sotuvchiga qaytarilgan tovar qiymatini naqd pulda qoplab berishni talab qilish huquqiga ega emas.

3.11. Mijoz Karta hisobvarag‘idan o‘chirilgan pul mablag‘larining miqdoriga rozi bo‘lmaganda, bu haqida Bank Ofisiga yozma ariza bilan murojaat qilib xabar berishi kerak. Kartochka bo‘yicha amalga oshirilgan Operatsiya summasining to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligini nazorat qilish uchun Mijoz Bank Ofisiga kelganida, MBX vositasida Karta hisobvarag‘i/Kartochka bo‘yicha ko‘chirmalarni olishi kerak. Ko‘chirmada ko‘rsatilgan Operatsiyalar (summalar) va haqiqatda o‘tkazilgan (to‘lov amalga oshirilgan) Operatsiyalar o‘rtasida tafovut aniqlanganida, aniqlangan tafovutlarning mohiyati haqida Mijoz Bankni ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda xabardor qilishi kerak.

Mijozning Karta hisobvarag‘idan hisobdan chiqarilgan summalar bilan noroziligi haqidagi murojaati Bank tomonidan To‘lov tizimi qoidalariga muvofiq qo‘rib chiqiladi.

3.12. Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya Bank va/yoki Mijoz tomonidan oʻrnatilgan chegara doirasida amalga oshiriladi. Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya bajarish Avtorizatsiya oʻtkazib ham Toʻlov tizimlari Qoidalari va/yoki amaldagi Qonunchilikda belgilangan hollarda Avtorizatsiya oʻtkazmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

3.13. Kartochka boʻyicha Operatsiya oʻtkazilayotganida PIN-kodni toʻgʻri kiritish, Tekshiruv kodidan, Kartochkaning toʻgʻri rekvizitlaridan foydalanish Operatsiya shaxsan Kartochka Saqlovchisi tomonidan amalga oshirilayotganligining soʻssiz tasdigʻi va keyinchalik Kartochka hisobvaragʻi/Kartochkada Operatsiya summasini yechib olish orqali mazkur Operatsiyani Avtorizatsiyadan oʻtkazish (Avtorizatsiya jarayoni toʻlov tizim Qoidalari bilan belgilangan boʻlsa) uchun asos boʻlib hisoblanadi, ushbu holatda bunday Operatsiya oʻtkazilayotganligi uchun Mijoz javobgar hisoblanadi.

3.14. Kartochka rekvizitlaridan (Kartochka raqami, uning amal qilish muddati, Kartochkaning magnit chizigʻida va mikroprosessorida (chipida) joylashtirilgan ma'lumotlar (agar u boʻlsa), ulardan foydalanganda Kartochka boʻyicha Operatsiyalarni bajarishga imkon beruvchi boshqa ma'lumotlar) foydalangan holda oʻtkazilgan Operatsiyalar Kartochkalardan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar deb hisoblanadi. Kartochkadan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalarga taalluqli boʻlgan Shartnomalarning barcha qoidalari, shu jumladan Bank Tariflari Kartochka rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalarga nisbatan ham qoʻllaniladi.

3.15. Kartochkadan ruxsatsiz foydalanish natijasida Karta hisobvaragʻidan pul mablagʻlarini yoʻqolib qolishining oldini olish maqsadida Mijoz mumkin boʻlgan barcha choralarni koʻrishi kerak, xususan:

- Kartochka/karta hisobvaragʻi boʻyicha barcha harakatlar toʻgʻrisida SMS-xabar vositasida tezkor ma'lumot olish maqsadida “SMS-axborot” xizmatiga ulanish;
- PIN-kod va/ yoki Kartochkani boshqa shaxslarga bermaslik;
- PIN-kodni Kartochkaga yozib qoʻymaslik;
- PIN-kodni Kartochka bilan bir joyda saqlamaslik;
- Kartochka rekvizitlarini va Operatsiya oʻtkazish uchun zarur boʻlgan boshqa ma'lumotlarni aytmaslik, Kartochkaga xizmat koʻrsatish boʻyicha Bankka murojaat qilish hollari bundan mustasno;
- Kartochka va uning rekvizitlaridan boshqa shaxslar foydalana olmasligini ta'minlash, Kartochkani oʻzida yoki boshqalar bilmaydigan joyda saqlash;
- Kartochkaning saqlash joyida mavjudligini muntazam tekshirish, ayniqsa, uzoq muddat boʻlmaslikdan (mehnat ta'tili, xizmat safari) soʻng;
- tovarlar (xizmatlar) uchun toʻlov qilganda bir vaqtning oʻzida bir nechta Kartochkani koʻrsatmaslik;
- elektron pochta orqali yuborilgan xabarlarga, shaxsiy va Kartochka haqidagi ma'lumotlar soʻralgan SMS-xabarlarga javob bermaslik. Kodli ma'lumotni, pasport raqamini, Kartochka raqamini va uning PIN-kodini, Kartochka boʻyicha oxirgi Operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni soʻrayotgan har qanday kompaniya yoki shaxslarga shubhali munosabatda boʻlish;
- Internet tarmogʻi orqali Operatsiya oʻtkazishda foydalaniladigan komp'yuter/uyali telefon/boshqa qurilmani tarmoq hujumlaridan, zarar yetkazadigan dasturlarni oʻrnatishdan va shaxsiy ma'lumotlarni oʻgʻirlashdan himoya qiluvchi dasturiy ta'minot oʻrnatish va uni muntazam yangilash;

3.16. Taraflar Bank Mijozni Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqida tegishli bildishnomani Internet bank, Mobil bankda joylashtirish orqali xabardor qilishi toʻgʻrisida kelishdilar. Kartochka yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan

foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqidagi Bank bildirishnomasini, Kartochka va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmani olish uchun Mijoz har kuni Internet bank/Mobil bankka murojaat qilishi kerak. Ko‘chirmada ko‘rsatilgan Operatsiyalar (summalar) bilan amalda bajarilgan (to‘lov qilingan) Operatsiyalar o‘rtasida tafovutlar aniqlanganida Mijoz mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq bu haqida darhol Bankka bildirishi kerak.

To‘lov tizimining Protsessing markazi Mijozni, agar, SMS-axborot xizmati ulangan bo‘lsa, u orqali Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqida qo‘shimcha ravishda xabardor qiladi.

3.17. Mijoz Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini amaldagi qonunchilik, Qoidalar, mazkur Tartib, Bank Tariflari va Banknig ichki hujjatlari hamda jarayonlariga asosan Operatsiya amalga oshirish orqali tasarruf qiladi.

3.18. Slip (chek)/elektron chek yoki amaldagi qonunchilik talablariga javob beradigan boshqa hujjat va/yoki Karta hisobvarag‘i bo‘yicha Operatsiyalar haqida ko‘chirma Operatsiya amalga oshirilganligining tasdig‘i bo‘lib hisoblanadi.

3.19. Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanish Amaldagi qonunchilik, Qoidalar, mazkur Tartib hamda Kartochka mansub bo‘lgan To‘lov tizimi Qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.20. Bank Kartochkada Bank Tariflariga asosan Bankka to‘lanishi lozim bo‘lgan vositachilik haqini to‘lash uchun yetarli pul mablag‘lari bo‘lsagina Shartnomaga muvofiq xizmatlarni ko‘rsatadi. Bunda Karta hisobvarag‘i ochish va Kartochka chiqarish Bank Tariflarida ko‘rsatilgan miqdordagi vositachilik haqi to‘langandan keyin amalga oshiriladi.

3.21. Mijoz o‘zining Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish maqsadida amaldagi qonunchilikda belgilangan hisob-kitob hujjatlari asosida qo‘shimcha topshiriqlarsiz Bankka ushbu Shartnoma doirasida ochilgan Karta hisobvarag‘idan Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar summasini va Bank Tariflarida o‘rnatilgan vositachilik haqini, shuningdek, Mijozning Bank oldidagi boshqa shartnomalar bo‘yicha qarzdorligini qo‘shgan holda ushbu Shartnomaga asosan Mijozning Bank oldida mavjud qarzdorligi miqdoridagipul mablag‘larini yechib olish huquqini beradi hamda roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept), bunda Bankning Karta hisobvarag‘idan pul mablag‘larini yechib olish haqidagi talabini qisman ijro qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur Shartnomaga asosan ochigan Karta hisobvarag‘iga Bank tomonidan pul mablag‘lag‘i xato kirim qilinganida, Mijoz Bankka qo‘shimcha topshiriqlarsiz Karta hisobvarag‘idan xato kirim qilingan pul mablag‘lari miqdoridagi pullarni yechib olish olish huquqini beradi va roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept). Ushbu holatlarda Kartochka hisovarag‘idan pul mablag‘larini qisman yechib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.22. Mijoz To‘lov tizimi qoidalariga va Bank ichki hujjatlariga asosan Kartochkani majburiy qaytarib berishi sharti bilan MBX orqali yoki Bank Ofisida Ariza (Mazkur Tartibning 4-Ilovasi) berish orqaliKarta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopish huqiga ega. Bunda Mijoz Kartochka Bankka qaytarilganidan yoki Bank Tariflariga asosan Kartochkaning yo‘qolganligi/ yaroqsiz holga kelganligi uchun vositachilik haqini to‘lagandan keyin (Kartochkani qaytarishning imkoniyati bo‘lmasa) Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘ini o‘zining Bankdagi talab qilib olinguncha omonat hisobvarag‘iga va/yoki boshqa Karta hisobvarag‘iga va/yoki Bank kassasi orqali naqd pul ko‘rinishida olishi mumkin.

## 4. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. ***Mijozning majburiyatlari:***

4.1.1. Kartochka chiqarish uchun bank vositachilik haqini Ariza berilgan kuni va Karta hisobvarag‘i ochish hamda Kartochkani chiqarishdan oldin Bank Tariflariga asosan to‘lab berish;

4.1.2. Operatsiya bajarilgan paytda amalda bo‘lgan Bank tariflariga asosan Bank xizmatlariga haq to‘lash;

4.1.3. Kartochkadan Shartnomaga asosan foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari chegarasida, Kartochkaning yuzida ko‘rsatilgan amal qilish muddati mobaynida foydalanish;

4.1.4. Kartochkadan amaldagi qonunchilik bilan sotish ta'qiqlangan tovar va xizmatlar uchun to‘lov qilishda foydalanmaslik;

4.1.5. Qo‘shimcha Kartochkalarni ham xisobga olgan holda Kartochkadan foydalanib noto‘g‘ri bajarilgan va Qoidalar, To‘lov tizimi qoidalari yoki ushbu Shartnomani lozim darajada bajarmasdan amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar bo‘yicha javobgar bo‘lish. Karta hisobvarag‘iga qo‘shimcha Kartochka chiqarilganida yoki Kartochka uchinchi shaxslarga berilganida uchinchi shaxslar tomonidan Kartochkadan foydalanib amalga oshirilgan barcha harakatlar uchun javobgar bo‘lish;

4.1.6. Kartochka Ish haqi loyihasi doirasida rasmiylashtirilgan bo‘lsa, Mijoz ish beruvchi-yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarini to‘xtatganida va/yoki Ish haqi Shartnomasi bekor qilinganida mehnat munosabatlari to‘xtagan va Ish haqi Shartnomasi bekor qilingan sanadan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida Kartochkani Qo‘shimcha Kartochkalar bilan birga Bankka qaytarish yoki Bankning amaldagi Tariflariga asosan yangi Kartochka ochish orqali jismoniy shaxslar uchun Kartochkaga xizmat ko‘rsatish va Karta hisobvarag‘ini yuritish shartlariga (Ish haqi shartnomasi bo‘lmagan) o‘tish;

4.1.7. Mijoz Kartochkani yangi muddatga qayta chiqarishni rad qilganida, Kartochkaning amal qilish muddati tugagan kunning keyingi kunidankechiktirmasdan Bankka MBX orqali yoki Bank Ofisiga Karta hisobvarag‘i va Kartochkani yopish to‘g‘risida Ariza berish, bu holat Shartnomaning bekor bo‘lishigi olib keladi. Bunday holda Mijoz Kartochkani Bank Ofisiga qaytarishi yoki Kartochkaning yo‘qolganligi/yaroqsiz holga kelganligi uchun Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘lashi lozim. (Kartochkani qaytarishning imkoni bo‘lmaganda).

4.1.8. Yashash joyining, pasport ma'lumotlarining yoki telefon raqamlarining o‘zgarganligi haqida bundan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 bank kuni ichida Bankka ma'lum qilish.

4.1.9. Shartnomaning barcha shartlarini, shu jumladan, mazkur Qoidalarning Ilovasida bayon qilingan Kartochkani saqlash va unan foydalanish shartlarini bajarishi.

4.1.10. To‘lov tizimi bilan o‘rnatilgan bank plastik kartochkalaridan foydalanish qoidalari va tartibiga rioya qilish.

4.1.11. Kartochka yo‘qolganida uni MBX vositasida (texnik imkoniyat mavjud bo‘lsa) yoki Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga telefon orqali ShTX va Kodli so‘zni ma'lum qilib, bloklash.

4.1.12. Bankning birinchi talabi bilan Bankka Kartochka(lar)ni, Qo‘shimcha kartochka(lar)ni taqdim qilish.

4.1.13. Bank Tariflariga, Shartnoma doirasida foydalaniladigan yo‘riqnoma va boshqa xujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida yangi ma'lumotlarni olish maqsadida Bankning Internet tarmog‘idagi saytlarini muntazam ravishda kuzatib boorish.

4.1.14. Kartochkadan Karta hisobvarag‘idagi qoldiq pul mablag‘lari, overdraft chegarasida va Kartochkaning amal qilish muddati mobaynida foydalanish.

4.1.15. Kartochkani saqlashda ehtiyotkorlik ko‘rsatish, shuningdek, PIN-kdni sir saqlash va oshkor qilmaslik, Karta hisobvarag‘ida hisobi yuritiladigan pul mablag‘larini tasarruf qilish huquqini uchinchi shaxslarga berish hollari bundan mustasno. (Amaldagi qonunchilik, To‘lov tizimi Qoidalarida boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa).

4.1.16. Saqlovchi tomonidan Shartnomani buzish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash, shuningdek, Shartnoma, Qoidalarning shartlariga rioya qilmaslik oqibatida kelib chiqqan Bankning zararlarini qoplab berish.

4.2. ***Mijozning huquqlari:***

4.2.1. Bank tomonidan Operatsiyalar bo‘yicha o‘rnatilgan chegara miqdorini hisobga olib, Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining qoldig‘i va Arizada ko‘rsatilgan Xarajatlar chegarasida Kartochka bo‘yicha Operatsiyalar amalga oshirish.

4.2.2. Karta hisobvarag‘idagi qoldiqni Bank kassasiga naqd pul topshirish orqali, shuningdek, amaldagi qonunchilikka asosan naqd pulsiz shaklda to‘ldirish.

4.2.3. Kartochkadagi mavjud pul mablag‘lari chegarasida Pul mablag‘larini ko‘chirish uchun Ariza berish.

4.2.4. Amaldagi Bank Tariflariga asosan va Bank ichki hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zining nomiga Karta hisobvarag‘iga Qo‘shimcha Kartochka rasmiylashtirish.

4.2.5. O‘z Karta hisobvarag‘iga chiqarilgan Kartochka bo‘yicha Xarajat chegarasini belgilash, bunda, Mijozning Arizasiga asosan o‘rnatilgan Xarajatlar chegarasining miqdori Bank Tariflariga asosan Bank tomonidan o‘rnatilgan cheklovdan ko‘p bo‘lsa, Operatsiyalar (Topshiriqnomalar) Bank Tariflari bilan o‘rnatilgan Operatsiyalar bo‘yicha chegara miqdoriga asosan amalga oshiriladi.

4.2.6. Haqiqiyligiga shubha bo‘lgan va o‘zi amalga oshirmagan Transaksiyalarga nisbatan Bankka e'tiroz yo‘llash, Mijoz tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun Internet orqali amalga oshirilgan Transaksiyalar bundan mustasno. E'tiroz Bankka Mijoz shubhalarining sababini ko‘rsatgan holda va ularni tasdiqlovchi hujjatlarning qog‘oz nusxasini ilova qilib yuboriladi.

4.2.7. MBX vositasida yoki Bank Ofisiga ShTHni ko‘rsatgan holda murojaat qilib, Karta hisobvarag‘i/Kartochka bo‘yicha ko‘chirma olish.

4.2.8. Mazkur Tartibga muvofiq Kartochkaning amal qilishini to‘xtatish yoki Karta hisobvarag‘i va Kartochkani, shu jumladan Qo‘shimcha Kartochkani yopish.

4.2.9. Kartochkadan foydalanish Qoidalari va undan foydalanib bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha Kartochka saqlovchisining va emitentining javobgarlik chegarasi to‘g‘risida to‘liq ma'lumot olish.

4.2.10. Bankda barcha amalga oshirilgan Operatsiyalar bo‘yicha ma'lumot olish.

4.2.11. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

## 5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. ***Bankning majburiyatlari:***

5.1.1. Mijoz arizasini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilinganda hamda Mijoz tomonidan Bankka Karta hisobvarag‘i va Kartochka ochish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilganida Mijozga Karta hisobvarag‘i ochish va Kartochka chiqarish, amaldagi Qonunchilik va Bankning ichki hujjatlari, Kompleks bank xizmati ko‘rsatish Shartnomasi va mazkur Tartibga asosan ularga xizmat ko‘rsatish.

5.1.2. Mijozning Karta hisobvarag‘ini Mijozning savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalarida, Bankomatlarda, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminallarida, Bank Ofisida Kartochkadan foydalanib amalga oshirgan Transaksiyalar summasiga, shuningdek, Kartochkaning rekvizitlaridan foydalanib, Internet orqali amalga oshirgan Transaksiyalar summasiga debetlash.

5.1.3. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ijobiy Qaror qabul qilinganida Kartochkani yetkazib berish muddatini hisoblamaganda (Bankda yetkazib berish xizmati mavjud bo‘lgan

hollarda) Ariza berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kunida Mijozga Kartochka chiqarish/qayta chiqarish.

5.1.4. Naqd pulsiz shaklda kelgan pul mablag‘larini, shu jumladan, qaytarilgan to‘lovlar va Reversal (transaksiyani bekor qilish) miqdorida amaldagi Bank Tariflariga asosan Mijozning Karta hisobvarag‘iga kirim qilish;

5.1.5. Mijozdan Kartochka yo‘qolganligi va Qoidalarning talabiga asosan undan noqonuniy fodalanganlik to‘g‘risida xabarnoma olinganida darhol Kartochkani bloklash;

5.1.6. Tegishli Arizaga asosan Mijozga “SMS-axborot” xizmatini ko‘rsatish.

5.1.7. Kartochkadan foydalanib bajarilgan Operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarning amalga oshirilishini va to‘g‘riligini ta'minlash.

5.2. ***Bankning huquqlari:***

5.2.1. Mijoz tomonidan ushbu Tartib va/yoki Qoidalarning shartlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, amaldagi qonunchilik talablarining hamda Shartnoma yoki KBXSh doirasida Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan boshqa Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Kartochka (lar)ning, Qo‘shimcha Kartochkalarning ham amal qilishini to‘xtatib turish.

5.2.2. Firibgarlik tahdidi yoki Bank va Mijoz manfaatlari uchun boshqa xavf kelib chiqqanda, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda Karta hisobvarag‘i va/yoki Kartochka bo‘yicha Operatsiyalar o‘tkazishni bir tomonlama bloklash yoki cheklash.

5.2.3. Quyidagi hollarda, qabul qilingan qaror to‘g‘risidagi xabarni Shaxsiy kabinetda joylashtirish orqali Kartochkadan foydalanib operatsiya amalga oshirishni vaqtincha to‘xtatib turish, shuningdek Kartochkani olish:

Kartochka va uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanganlik to‘g‘risida aniq guvog‘lik beruvchi holatlarning mavjudligi; vakolati bo‘lmagan shaxsning Bank plastik kartochkasidan foydalanishi; mazkur Tartib va amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

5.2.4. Kartochka chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan boshlab 1 (bir) yil mobaynida Mijoz tomonidan olinmagan Kartochkani vositachilik haqini qaytarmasdan yopish (Karta hisobvarag‘ini yopish bilan). Bankning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishi maqsadda Mijoz ushbu band Mijozning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopish uchun berilgan Arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

5.2.5. Arizada ko‘rsatilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish va ushbu ma'lumotlar noto‘g‘ri bo‘lsa, Mijozga sababini tushuntirmasdan Kartochka chiqarish va Karta hisobvarag‘i ochishni rad qilish.

5.2.6. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurishish maqsadida Mijozdan uni identifikasiya qilishga imkon beruvchi va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshiriladigan Operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish.

Bank tomonidan quyidagilar aniqlangan kunda Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bir tomonlama to‘liq yoki qisman voz kechish:

- Kartochkadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida foydalanilganligi haqida asoslangan shubhalar;

- shubhali (gumonli) operatsiyalar takroran o‘tkazilganligi v Kartochkadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun foydalanilganligi haqida asoslangan shubhalar;

5.2.7. Mijozning Bank oldidagi quyidagi Bitimlardan kelib chiquvchi majburiyatlarini bajarishi maqsadida Karta hisobvarag‘idan Mijozning qo‘shimcha topshirig‘isiz (oldindan berilgan aksept) akseptsiz tartibda pul mablag‘larini o‘chirish.

- Bank Tariflarida o‘rnatilgan vositachilik haqini qo‘shib hisoblaganda mazkur Tartibga asosan tuzilgan shartnomalar

- asosiy qarz, foiz, penyalar, jarimalar, tovon va kredit shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni qo‘shib hisoblaganda Bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomalari;

- Mijoz kafil sifatida qatnashadigan Bank bilan tuzilgan kafillik shartnomalari;

- Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar.

5.2.8. Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari buzilganda va Kartochkadan foydalanish natijasida Bank asossiz moliyaviy xavf ostiga qo‘yilganida Bank tomonidan tasdiqlangan jarima sanksiyalarini qo‘llash hamda Kartochkaning amal qilishini to‘xtatib turish.

5.2.9. Karta hisobvarag‘ida yetarli mablag‘lar bo‘lmaganda savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasiga Avtorizatsiya jarayonini o‘tkazishni rad qilish;

5.2.10. Mijozga Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatilganida Bank Tariflarida bo‘lmagan, biroq, To‘lov tizimida nazarda tutilgan, Bank tomonidan amalga oshirilgan vositachilik haqi xarajatlarini Mijozning hisobvarag‘idan undirish;

5.2.11. Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda Shartnomaga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritishni taklif qilish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Bank o‘zining nazoratidan tashqarida bo‘lgan fors-major holatlari uchun hamda tashqi hisob-kitob tizimlaridagi, To‘lov tizimlaridagi, ma'lumotlarni qayta ishlash va yuborishdagi nosozliklar uchun, shuningdek, Kartochka uchinchi shaxs tomonidan to‘lov uchun qabul qilinmaganida javobgar bo‘lmaydi.

6.2. Bank Kartochkadan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun boshqa kredit tashkilotlari, moliya muassasalari, To‘lov tizimlari va hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilari tomonidan undiriladigan vositachilik haqi va qo‘shimcha to‘lovlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.3. Bank Mijoz uni Kartochka bo‘yicha Operatsiyalarni amalga oshirishni to‘xtatib turish (bloklash) va Kartochkaning yo‘qolganligi to‘g‘risida xabardor qilguniga qadar Kartochka bo‘yicha, shu jumladan, Kartochka rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun javobgar bo‘lmaydi. Bank To‘lov tizimi talablariga asosan Kartochkadan yoki uning rekvizitlaridan foydalanib bajarilgan to‘lovlarni amalga oshirishga majbur va Mijozning Karta hisobvarag‘ini Mijoz tomonidan Kartochka bo‘yicha Operatsiyalarni amalga oshirishni to‘xtatib turish (bloklash) va Kartochkaning yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berilgunga qadar amalga oshirilgan Operatsiya miqdoriga teng summani debetlash huquqiga ega.

6.4. Bank quyidagi hollarda Mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi:

- Kartochka Saqlovchisi Qoidalarda, Shartnomada, Bank Tariflari va amaldagi qonunchilikda ko‘rsatilgan qoidalar hamda jarayonlarni buzgan bo‘lsa;

- Kartochka Saqlovchisi tomonidan huquqqa xilof harakatlar qilinsa;

- bank plastik kartochkasi va (yoki) PIN-kodning yo‘qolishi Mijozning aybi va ehtiyotsizligi sababi sodir bo‘lsa;

6.5. Bank quyidagilar uchun javob beramaydi:

- Transaksiya Kartochkaning rekvizitlarini ko‘rsatgan holda Internet orqali o‘tkazilgan bo‘lsa, Mijozning moliyaviy yo‘qotishlari uchun;

- Bankning nazoratidan tashqarida bo‘lgan holatlar sababli o‘z majburiyatlarini bajara olmasa;

- Savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalarining tovar/ish/xizmatlarni sotish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun;

- Transaksiyada qatnashuvchi uchinchi shaxslarning qurilmasidagi va aloqa kanallaridagi nosozliklar uchun;

- Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan yoki zid bo‘lgan Transaksiya bo‘yicha pul mablag‘larini undirish yoxud ushbu Tartibning 5.2.6 b.da ko‘rsatilgan sabablar bo‘yicha;

6.6. Mijoz quyidagilar uchun javob beradi:

- Shartnoma shartlarini buzganlik uchun;

- Kartochkaning butligi va saqlanishi uchun, shuningdek, Mijoz va Kartochka rekvizitlaridan xabardor bo‘lgan uchinchi shaxslar tomonidan Kartochka yordamida amalga oshirilgan Transaksiyalar uchun;

- PIN-kod va Kartochka rekvizitlarini boshqa shaxslarga berganligi uchun;

- PIN-kod uchinchi shaxslarga oshkor bo‘lganligi haqida Bank yozma ravishda xabardor qilingunga qadar bajarilgan har qanday transaksiyalar uchun;

- Kartochka Mijoz tomonidan yo‘qotilgan hollarda Bank xabardor qilingunga qadar Kartochkadan foydalanib o‘tkazilgan barcha Transaksiyalar bo‘yicha;

- Kartochka rekvizitlaridan foydalanib Internet orqali o‘tkazilgan barcha;

- Transaksiyalar uchun;

- Bankka taqdim qilinadigan barcha ma'lumotlarning to‘g‘riligi uchun.

## 7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur Tartibga asosan Shartnoma tuzilgan sanadan kuchga kiradi va muddatsiz hisoblanadi.

7.2. Shartnoma Mijozning Arizasiga (Ushbu Tartibning 4-Ilovasi) ko‘ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Mijoz Shartnoma bo‘yicha chiqarilgan, amal qilib turgan barcha Kartochkalarni Ariza berilgan kunida qaytarib berishi shart.Qarta hisobvarag‘idan Pul mablag‘lari qoldig‘ini qaytarish amaldagi qonunchilik talablariga, To‘lov tizimi va mazkur Tartib qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

7.3. Shartnoma faqatgina quyidagi shartlar asosida bekor qilishini mumkin:

- Mazkur Tartibga asosan barcha Kartochkalarni Bankka qaytarib berilgan bo‘lishi sharti bilan Mijozning yozma arizasiga asosan;

- Mijoz Shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarni bajarganda;

- Mijozning Bank oldida qarzdorligi bo‘lmasa.

7.4. Kartochka chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan boshlab 1 (bir) yil mobaynida Mijoz tomonidan olinmagan bo‘lsa va Shartnoma doirasida chiqarilgan boshqa amal qilib turgan Kartochkalar mavjud emasligi sharti bilan Shartnomaning amal qilish muddati tugagan (bekor qilingan) hisoblanadi. Mijoz ushbu band Mijozning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopish uchun berilgan Arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

7.5. Shartnoma tugatilganda (bekor qilinganda), Shartnoma bekor qilingunga qadar Mijoz tomonidan Bank Tariflariga asosan to‘langan Kartochka va u bo‘yicha operatsiyalar bilan bog‘liq barcha vositachilik haqlari Mijozga qaytarib berilmaydi.

7.6. Shartnomani tugatish (bekor qilish) Taraflarning Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarining tugatilishiga olib keladi hamda Karta hisobvarag‘ini yopish uchun asos hisoblanadi.

## 8. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

8.1. Shartnomadan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklar Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

8.2. Mazkur Tartibning shartlari bilan belgilanmagan qolgan barcha holatlar bo‘yicha Taraflar amaldagi qonunchilik, Qoidalar va Bank Tariflariga amal qiladilar.

8.3. Shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgarish va qo‘shimchalar, agar ular Qoidalarning talablariga asosan amalga oshirilgan bo‘lsa haqiqiy hisoblanadi.

## 9. MAZKUR TARTIBNING ILOVALARI

9.1. Quyidagi ilovalar mazkur Tartibning ajralmas qismi hisoblanadi (*murojaatlar qilish shakli (elektron yoki yozma) va shartlariga qarab arizalar shakli ilovadagilardan farq qilishi mumkin)*:

***1-Ilova*** – “Kartochkani saqlash va undan foydalanish shartlari”

***2-Ilova*** – “Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini chiqarishga ariza”

***3-Ilova*** – “Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini qayta chiqarishga ariza”

***4-Ilova*** – “Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini yopishga ariza”

**KARTOCHKANI SAQLASH VA UNDAN FOYDALANISH SHARTLARI**

**Kartochkaning PIN-kodini o'rnatish/qayta o'rnatish va saqlash** PIN-kod eng ko'pi bilan 4 ta raqamdan iborat bo'lishi mumkin.

Kartochkani shaxsan o'z qo'lingizga olganingizda, quyidagi qoidalarga rioya qilib maxfiy ravishda unga o'zingizning PIN-kodingizni o'rnating:

- ✓ PIN-kodni o'rnatishda takrorlanadigan raqamlardan, mashhur sanalar va Siz haqingizda barchaga ma'lum ma'lumotlardan (masadan: tug'ilgan yilingiz, avtomashinangiz, telefoningiz raqami va boshq) foydalanmaslik lozim.
- ✓ PIN-kodni yozib qo'ymang, esingizda saqlang.
- ✓ Kartochkangizning PIN-kodini boshqa shaxslarga aytmang. Hech kimning, Bank va savdo (xizmat ko'rsatish) Korxonasi xodimlarining ham Kartochkangiz PIN-kodini oshkor qilishni talab qilishga huquqi yo'q. Kartochkangizning PIN-kodi Siz tomoningizdan boshqa shaxsga oshkor qilinganida Kartochkangiz bo'yicha amalga oshirilgan Transaksiya bo'yicha barcha javobgarlik Sizning zimmangizga yuklatiladi, chunki, Siz uchun Kartochka chiqargan Bank bilan tuzilgan shartnomaga asosan faqatgina Siz Kartochkaning qonuniy Saqlovchisi bo'lib hisoblanasiz.
- ✓ PIN-kodingiz Sizning xohishingizdan tashqari boshqa shasxlarga oshkor etilganligini aniqlaganingizda PIN-kodni maxfiy ravishda o'zgartirish lozim.
- ✓ PIN-kodni o'zgartirganda, oldin Kartochkaning amaldagi PIN-kodini kiritib, POS-terminal yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish Terminalining (shunday imkoniyatlari mavjud bo'lsa) ko'rsatmalariga amal qilib, keyin yangisini qayta o'rnatish lozim.
- ✓ PIN-kodni muntazam ravishda bir oyda kamida bir marotaba almashtirib turing. Kartochkangizga ish haqi o'tkaziladigan bo'lsa, Karta hisobvarag'iga navbatdagi ish haqi o'tkazilishidan 1-2 kun oldin PIN-kodni oldindan almashtirishga harakat qiling. Bunda holatda Kartochka yo'qolgan taqdirda ham Karta hisobvarag'iga o'tkao'ilgan mablag'larning xavfsizligi oshadi.
- ✓ Uch marotaba ketma-ket noto'g'ri terilgan PIN-kod Kartochkani bloklab qo'yishini esda tuting. Shuning uchun PIN-kod terayotgan vaqtda klaviaturaning tegishli tugmasini har bosganingizda terminal displeyida yoki POS – terminal yoxud o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminalining ekranida o'ziga xos uslubdagi "yulduzcha» aks etishini diqqat bilan kuzating. Bu narsa POS – terminal yoxud o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminalining klaviaturasiga kiritilgan PIN-kodning barcha raqamlari qurilma tomonidan qayta ishlash uchun qabul qilinganini bildiradi. Aks holda, klaviatura tugmasi yetarli bosilmaganligi yoki tugmaning nosozligi tufayli Siz PIN-kodni xato terishingiz va Kartochkani bloklab qo'yishingiz mumkin.
- ✓ Agar Siz PIN-kodni ikki marta noto'g'ri kiritib, uchinchi marta to'g'ri kiritgan bo'lsangiz, PIN-kodni kiritishga urinish yana qaytib uch martaga tiklanadi.
- ✓ Faqatgina Kartochkani Sizga chiqargan Bank Ofisidagina Kartochkani blokdan chiqarish mumkin. Bunda Kartochka PIN-kodni uch marotaba noto'g'ri terish natijasida bilan bloklangan bo'lsa, Kartochkani Mijozlarni qo'llab-quvvatlar markaziga tel qilib operatorga ShTH ma'lumotlarini va Kodli so'zni ma'lum qilib blokdan chiqarish mumkin.

- ✓ Kartochkani Bank Ofisida bloqdan chiqarish uchun oldingizda ShTH, shuningdek, Kartochkadan foydalanishga tegishli tarzda rasmiylashtirilgan Ishonchnoma bo‘lishi kerak (agarda Siz Kartochkani qonuniy Saqlovchisining ishonli vakili bo‘lsangiz).
- ✓ Bank Ofisida Kartochkangizni tekshirishadi va blokdan chiqarishadi. Bloqdan chiqarish jarayonida Kartochkaning yangi PIN-kodini maxfiy ravishda shaxsan o‘rnatishingiz lozim bo‘ladi.

**Kartochkani saqlash va boshqa shaxslarga berish**

Kartochka naqd pulsiz hisob-kitoblar vositasi bo‘lib hisoblanadi, mablag‘laringizning butligini va xavfsizligini ta'minlaydi, tovar va xizmatlarni sotib olishingizda qo‘shimcha qulayliklar taqdim qiladi. Biroq, Siz tomoningizdan bir qator xavfsizlik choralariga rioya qilinmagan taqdirda, Kartochkaning afzalliklari ahamiyatsiz bo‘lib qoladi.

Shuning uchun Siz quyidagi qoidalarni doim esdatutishingiz va bajarishingiz lozim:

1. Kartochkani hamyoningiz va naqd pullar bilan bir joyda, shuningdek, kiyimingizning Kartochkaga tasodifan zarar yetkazish ehtimoli yuqori bo‘lgan joylarida (masalan: shimlarning orqa cho‘ntagi, kalitlar va boshqa narsalar bilan saqlash va boshqa) saqlamang.
2. Agar Siz begona shaxsning Kartochka bilan amalga oshiradigan harakatlarini keyinchalik nazorat qila olmasangiz, Kartochkani hatto qisqa muddatga ham ularga bermang. Kartochkaning mavjudligini muntazam tekshirib turing.
3. Kartochkangizning yuzasiga tushirilgan raqamini, shuningdek, Kartochkani chiqargan bank muassasasi kodini yozib qo‘ying va saqlang.
4. Agar Siz Kartochkangizni boshqa shaxsning foydalanishiga ishonch bildirmoqchi bo‘lsangiz, bu narsani tegishli tarzda rasmiylashtirish va ishonchli vakil mazkur Shartlardagi tavsiyalar bilan tanishganligiga va ularni o‘zlashtirganligiga hamda ularga qat'iy rioya qilishiga ishonch hosil qilish lozim.
5. Savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonasi xodimlarining va Bank ishchilarining Kartochkangiz bilan qilayotgan harakatini har doim kuzatib turing va Kartochkani hech qachon Bankomatda/ o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminalida yoki savdo terminalida qoldirmang.
6. Kartochkaning chipiga turli xil nurlanishlarning ta'sir qilishidan, unga nam va agressif kimyoviy moddalar tegishidan saqlaning, Kartochkadan boshqa maqsadlarda foydalanmang – bu uning buzilishiga olib keladi.

**Kartochka yo‘qolganida/buzilganida hamda oldin yo‘qolgan Kartochka topilganida amalga oshiriladigan harakatlar**

Siz yoki Sizning ishonchli vaklingiz Kartochkani yo‘qotganlaringizda Sizlar Qoidalarga muvofiq bu haqda darhol Bankka xabar berishlaringiz lozim

Yo‘qotilgan Kartochkangiz bo‘yicha Transaksiyalar amalga oshirilganida, ushbu Transaksialarning summalari Bank tomonidan qaytarilmasligini esda tuting. Shuning uchun, Kartochkadan mablag‘lar yo‘qolishi xavfini kamaytirish maqsadida o‘z PIN kodingizni begona shaxslarga aytmang.

Oldin yo‘qolgan va Siz uning yo‘qolganligi hamda uni bloklash haqida Bankka ariza berilgan Kartochkani topib olganingizda,hech qachon ushbu Kartochkadan naqd pulsiz to‘lov vositasi sifatida foydalanishga harakat qilmang, Kartochkangiz allaqachon bloklangan va Bankomat/o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali tomonidan qaytarib berilmasligi mumkin.

Birinchi navbatda Siz Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga telefon qilib oldin yo‘qotilgan, bloklangan Kartochkangizni topib olganligingizni ma'lum qilishingiz kerak. Shundan so‘ng Bank xodimi Sizga keyingi yo‘riqnomalarni tushuntiradi.

Topib olingan Kartochkadan terminal/Bankomat/o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminalida foydalanishga harakat qilinganida, u bloklangan bo‘lsa, Siz Kartochkani blokdan chiqarish uchun uni Bank Ofisiga ko‘rsatishingiz kerak. Oldingizda ShTH, shuningdek, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan Kartochkadan foydalanishga ishonchnoma bo‘lishi kerak (agar Siz ishonchli vakil bo‘lsangiz).

Bank quyidagi hollarda Kartochkangiz bo‘yicha o‘tgan Transaksiyalar bo‘yicha mablag‘larini qoplab bermasligini esingizda saqlang:

- Transaksiyalar Kartochka bloklangan vaqtgacha amalga oshirilgan bo‘lsa.
- Transaksiya protsessing markaziga kelib tushmagan bo‘lsa.

**Kartochkadan foydalanish vaqtida sodir bo‘lgan nosozlik holatidagi haraktlar**

Kartochka va u ishlatiladigan uskuna infrastrukturasi, yuqori texnologiyali zamonaviy dasturiy-texnik qurilmalar bo‘lgani bilan, ular ham turli xususiyatdagi nosozliklarga duch kelishi mumkinligini doim esingizda saqlashingiz lozim. Quyida Kartochkadan foydalanganda duch kelish mumkin bo‘lgan keng tarqalgan nosozliklar va favqulodda holatlarning ro‘yxati berilgan:

1. **Bankomatda Kartochkaning Karta hisobvarag‘idan mablag‘lar yechib olingan, biroq, naqd pul berilmagan**

Bunday holatda Siz Bankomat tomonidan Operatsiya chekining chiqarilishini kutishingiz lozim. Shundan so‘ng xuddi shu Bankomatda Kartochka bo‘yicha pul mablag‘lari berilmagan Operatsiya tarixini chiqarib oling. Keyin ushbu Bankomatga xizmat ko‘rsatuvchi Bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa telefoni raqami Bankomat chekida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak), Kartochkangizdan mablag‘lar yechilib Bankomat tomonidan berilmaganlik holati bo‘yicha belgilangan namunadagi ariza topshiring hamda chekning va Operatsiya chekining nusxasini ilova qiling. Oldingizda Kartochka, ShTH, shuningdek, Kartochkadan foydalanish uchun notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘lishi kerak (agar Siz Mijozning ishonchli vakili/vakili bo‘lsangiz). Bankomatdagi vaziyat dastlabki tekshiruvdan o‘kazilganidan so‘ng ehtimol Sizga Kartochka chiqargan bank muassasiga qo‘shimcha murojaat qilishingizga to‘g‘ri kelishi mumkin.

2. **Bankomatda Kartochkaning Karta hisobvarag‘idan mablag‘lar yechib olinmagan, biroq, naqd pul berilgan**

Bunday holatda Siz Bankomat tomonidan Operatsiya chekining chiqarilishini kutishingiz lozim. Shundan so‘ng xuddi shu Bankomatda Kartochka bo‘yicha pul mablag‘lari yechilmagan, biroq, Bankomat tomonidan pul berilgan Operatsiya tarixini chiqarib oling. Keyin ushbu Bankomatga xizmat ko‘rsatuvchi Bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa telefoni raqami Bankomat chekida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak), Kartochkangizdan mablag‘lar yechilmasdan Bankomat tomonidan berilganlik holati bo‘yicha belgilangan namunadagi ariza topshiring hamda chekning va Operatsiya chekining nusxasini ilova qiling va Bankomatdan olingan naqd pul mablag‘ini Bank kassasiga kirim qiling. Oldingizda Kartochka, ShTH, shuningdek, Kartochkadan foydalanish uchun notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘lishi kerak (agar Siz Mijozning ishonchli vakili/vakili bo‘lsangiz).

**Yuqorida ko‘rsatilgan va boshqa nosozliklarning oldini olish uchun Siz quyidagilarni nazorat qilishingiz kerak:**

- Savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasi xodimi Kartochkangiz bilan Operatsiya amalga oshirishdan oldin savdo terminalining buzilmaganligiga, unga chek qog‘ozi qo‘yilganligiga va bosmaga tayyorligiga (terminal to‘liq funksiyali bo‘lsa) hamda avtonom quvvat berish elementlari – batareyka/akkumlyatorlar o‘rnatilganligiga (terminal ko‘chma bo‘lsa) ishonch hosil qilganligini.

- Savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasi xodimi Kartochkangiz bilan Terminal orqali Operatsiya amalga oshirish chog‘idaTransaksiya tugatilmaguncha va Operatsiya cheki chiqmagunicha Kartochkangizni terminalning kartrideridan olmasligini va terminalni elektr tarmog‘idan uzib qo‘ymasligini (terminal to‘liq funksiyali bo‘lsa) hamda terminaldan quvvat berish elementlari – batareyka/akkumlyatorlarni olmasligini(terminal ko‘chma bo‘lsa).
- Savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasi xodimi Terminaldan Operatsiya cheki chiqish paytida terminalning tegishli tugmasini bosish orqali qog‘ozni progonqilishni amalga oshirmasligini va terminaldan chiqayotgan Operatsiya chekini qo‘l bilan majburiy tortmasligini.
- Operatsiya chekining quyidagilarni albatta qo‘rsatgan holda tushunarli chiqqanligini: Operatsiyaning sanasi/vaqti, Kartochka raqami, Avtorizatsiya kodi, Operatsiya muvaffaqiyatli/muvaffaqiyatsiz amalga oshiriliganligi va Transaksiyaning boshqa rekvizitlari. Chekning Sizga taqdim etilgan nuxsasi mazkur talablarga javob bermasa, kasssirdan chekni takroran chiqarishini so‘rang.

**Izoh:**

- Hech qachon, hech qanday sharoitda Operatsiya chekini Kartochkangiz bilan birgalikda Kartochka bo‘yicha Operatsiya amalga oshirgan Bankomat/ o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminali yoki terminal oldida qoldirib ketmang.
- Bankomat Kartochkangizni olib qo‘ygan bo‘lsa, Siz mazkur Bankomatga xizmat ko‘rsatuvchi bank muassasasiga (aloqa telefoni raqami Bankomat chekida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak) murojaat qilishingiz kerak. Oldingizda Kartochka, ShTH, shuningdek, Kartochkadan foydalanish uchun notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘lishi kerak (agar Siz Mijozning ishonchli vakili/vakili bo‘lsangiz).

Bankomat/O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali/terminal Kartochkangiz bilan biror-bir Operatsiya juda uzoq muddat amalga oshirsa (Bankomat/O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali Sizga “qotib qolgan”dek tuyulishi mumkin) Operatsiyaning bajarilishini kutishga va Kartochkani qaytib olishga harakat qiling.

*Jismoniy shaxsning so'mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
*2*-ILOVA

**Tasdiqlayman**
________________
________________
**"Kapitalbank" ATB**
___________________

Dan_____________________________________________________________________
(F.I.Sh. jismoniy shaxsning)

**Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini chiqarishga**
**ARIZA**

UZCARDEMVplastik kartochkasini berishingizni so'rayman

So'mdagi kartochka:

Ism va familiya pasportda ko'rsatilganidek lotin harflari bilan (Sizning familiyangiz kartochkada shunday ko'rinishda bo'ladi):

SHAXSIY MA'LUMOTLAR

Tug'ilgan sana: ______________________________ Fuqarolik: ________________________________________
Fuqaroligingizni ko'rsating

Ro'yxatda turgan joy
bo'yicha manzili: ________________________________________________________________________
Ro'yxatda turgan joyingizning manzilini Pasportda ko'rsatilganidek to'liq ko'rsating

Telefon:________________________________**E**-mail: ________________________________________________________
Uy telefonini ko'rsating Elektronpochta manzilini ko'rsating

PASPORT MA'LUMOTLARI

**Pasportning seriyasi va raqami, kim**
**tomonidan va qachon berilgan**____________________________________________________________________________

ISH MA'LUMOTLARI

Ish joyi: ______________________________________________________________________________________________
Iltimos, o'zingiz ishlaydigan korxona nomini bosma harflar bilan ko'rsating

Tashkilot manzili: ______________________________________________________________________________________
o'zingiz ishlaydigan korxona yuridik manzilini ko'rsating

Lavozimi: __________________________________ Xizmat telefoni: ____________________________________
Lavozimingizni ko'rsating Aloqa telefonini ko'rsating

**<u>NAZORAT SO'ZI:</u>**

Kartochkangizga xizmat ko'rsatish masalalari
bo'yicha telefon so'zlashuvlarida Bank ishchilari
Sizni identifikasiya qila oladigan nazorat so'zini ko'rs__________________________________________________________

**NAZORAT MA'LUMOTLARI**

Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlaymiz.
Bank:

- Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishga huquqi borligiga
- Bankning reklama-ma'lumotlarini jo'natish uchun ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalanishi mumkinligiga
- Sababini tushuntirmasdan plastik kartochka chiqarishni rad qilish huquqi mavjudligiga roziligmizni bildiramiz.

**"Kapitalbank" ATBning Tariflari va UZCARDEMV kartochkalaridan foydalanish Qoidalari bilan tanishdim hamda ularni bajarish majburiyatini olaman**

**Kartochka egasining imzosi** ✓ **Sana**

- - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

BANKNING XIZMAT BELGILARI

Bank muassasasi kodi:

| Xizmat harakati/qarori/belgilari | Xodimning F.I.Sh. | Imzo |
|---|---|---|
| Arizani qabul qildi | | ✐ |
| Kelishildi | | ✐ |

*Jismoniy shaxsning so'mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
3-ILOVA

**Tasdiqlayman**

______________________
**"Kapitalbank" ATB**
______________________

Dan ______________________________________________________________
(jismoniy shaxsning F.I.Sh.)

**Kartochka raqami:**

| 8 | 6 | 0 | 0 | | | | | * | * | * | * | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

## Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini qayta chiqarishga ARIZA

**PASPORT MA'LUMOTLARI**

Pasport seriyasi: ______________ (Seriya) Pasport raqami: ______________ (Pasport raqami) Berilgan sanasi: ____|____|____ (kun) (oy) (yil)

Pasport kim tomonidan berilgan: ______________________________________
(Pasport kim tomonidan berilganligini ko'rsating)

Aloqa telefoni: ______________________ (Uy telefoni raqamini qo'rsating) ______________________ (Mobil telfon raqamini ko'rsating)

Ro'yxatda turgan joy bo'yicha manzili: ______________________________________
(Ro'yxatda turgan joyingizning manzilini Pasportda ko'rsatilganidek to'liq ko'rsating)

**Quyida ko'rsatilgan sabablargako'ra mening nomimga plastik kartochkani qayta chiqarishingizni so'rayman:**

☐ Kartochkaning amal qilish muddati tugaganligi

☐ Texnik nosozlik: ______________________________________

☐ Boshqa sabab: ______________________________________

**NAZORAT MA'LUMOTLARI**

Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlaymiz.
Bank:

- Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishga huquqi borligig
- Bankning reklama-ma'lumotlarini jo'natish uchun ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalanishi mumkinligig
- Sababini tushuntirmasdan plastik kartochka chiqarishni rad qilish huquqi mavjudligiga roziligmizni bildiramiz

**"Kapitalbank" ATBning Tariflari va UZCARDEMV kartochkalaridan foydalanish Qoidalari hamda kartochkani almashtirish tartibi bilan tanishdim hamda ularni bajarish majburiyatini olaman**

**Kartochka egasining imzosi** ✎ ______________ **Sana** ______________

- - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

**BANKNING XIZMAT BELGILARI**

| Xizmat harakati/qarori/belgilari | Xodimning F.I.Sh. | Imzo |
|---|---|---|
| Arizani qabul qildi | | ✎ |
| Kelishildi | | ✎ |

**Kartochka raqami:**

| 8 | 6 | 0 | 0 | | | | | x | x | x | x | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

*Jismoniy shaxsning so'mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

4-ILOVA

**Tasdiqlayman**

_______________________

**"Kapitalbank" ATB**

_______________________

___________________________

Dan ______________________________________________________________________
(jismoniy shaxsning F.I.Sh.)

| **Kartochka raqami:** | **8** | **6** | **0** | **0** | | | | | | * | * | * | * | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

## Milliy valyutadagi UZCARDEMV plastik kartochkasini yopishga ARIZA

| **Karta hisobvarag'i raqami:** | **2** | **2** | **6** | **1** | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

**"Kapitalbank" ATBning so'mdagi plastik kartochkasiga xizmat ko'rsatish shartnomasini bekor qilishingizni va yuqorida raqamlari ko'rsatilgan Karta hisobvarag'ini, shuningdek, so'mdagi plastik kartochkani yopishingizni so'rayman. Karta hisobvarag'ida majvud mablag'larni quyidagicha qaytarib berishingizni so'rayman:**

☐ Bank kassasi orqali naqd pul shaklida

☐ hisobvaraqqa ko'chirib berish orqali | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

Bank nomi: _________ KAPITALBANK ATB ______________________________ bank MFOsi: ________________________

**Karta hisobvarag'i va so'mdagi plastik kartochkani yopish shartlari bilan tanishdim va Bankka Tariflarda o'rnatilgan to'lovlarni to'lab berish majburiyatini olaman. Yuqorida qo'rsatilgan plastik kartochka yordamida men tomonimdan oldin amalga oshirilgan Transaksiyalar va Reversal operatsiyalarning kechikishi natijasida Kartochka bo'yicha qarzdorlik kelib chiqqanida zarur bo'lgan miqdordai mablag'nito'lab berish majburiyatini olaman.**

Karta hisobvarag'ini va plastic kartochkani yopish sabablari:
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________

Aloqa telefoni: ______________________________________________________________
(Uy telefoni raqamini qo'rsating) (Mobil telfon raqamini ko'rsating)

☐ Kartochka qaytarildi

☐ Kartochka yo'qotilgan

| **Kartochka egasining imzosi** | ✓ | **Arizaning Bankka topshirilgan sanasi va vaqti** | |
|---|---|---|---|

- - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

**BANKNING XIZMAT MA'LUMOTLARI**

| **Xizmatharakati/qarori/belgilari** | **Xodimning F.I.Sh.** | **Imzo** |
|---|---|---|
| Arizani qabul qildi | | ✎ |
| Kelishildi | | ✎ |
| Hisobvaraq yopildi | | ✎ |

**“Kapitalbank” ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalariga**
**2-ILOVA**

## JISMONIY SHAXSNING XALQARO PLASTIK KARTOCHKASINI CHIQARISH VA UNGA XIZMAT KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA TUZISH VA BAJARISH TARTIBI

### 1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Tartibning maqsadlari uchun quyidagi atama va ta'riflardan foydalaniladi:

***Kartochkani faollashtirish*** - Kartochkani chiqarish/qayta chiqarish paytida Kartochkadan foydalanib Operatsiya amalga oshirishga ko‘yilgan texnik cheklovning Bank tomonidan bekor qilish jarayoni.

***Bankomat*** - Mijozlarga o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy-texnik majmua, ichki bank va banklararo to‘lov tizimlari kassa operatsiyalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bankomatlar Ekvayerning/Bankning xizmat ko‘rsatish tarmoqlari orqali avtomatik ravishda naqd pul mablag‘lari berish, Mijozga Karta hisobvarag‘ining holati bo‘yicha ma'lumot taqdim qilish, tegishli operatsiyalarni tasdiqlovchi ma'lumotlarni berish, shuningdek, boshqa operatsiyalarni, jumladan, tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishga (dasturiy-texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda) mo‘ljallangan.

***Kartochka bo‘yicha operatsiya amalga oshirilgan sana*** - Mijoz tomonidan Kartochkadan foydalangan holda tovar/xizmatlar uchun to‘lov qilish, va/yoki naqd pul mablag‘lari olish/kiritish bo‘yicha Operatsiyalar amalga oshirish sanasi, Karta hisobvarag‘idan/ga pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi bilan mos kelmasligi mumkin.

***Karta hisobvarag‘idan/ga pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi*** - Mijoz tomonidan Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya amalga oshirilganligini tasdiqlovchi yoki Karta hisobvarag‘idan/ga oldin o‘tkazilgan pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilishni bekor qiluvchi Topshiriqnoma Bankka kelib tushgan Operasion kunning ertasidan kechiktirmasdan amalga oshiriladigan, Karta hisobvarag‘i bo‘yicha pul mablag‘larini o‘chirish/kirim qilish sanasi, operatsiya amalga oshirilgan sana bilan mos kelmasligi mumkin.

***Kartochkaning saqlovchisi (Saqlovchi)*** - Bank tomonidan amaldagi qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlari, mazkur Qoidalarga asosan nomiga Kartochka chiqarilgan jismoniy shaxs (rezident, norezident).

***Kartochka*** -Kompleks bank xizmati Qoidalariga, ushbu Tartibga, Bank Tariflariga va amaldagi qonunchilikka asosan Saqlovchiga Kartochkadagi foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar chegarasida Operatsiyalar amalga oshirish imkniyatini beruvchi Bank kartochkasi (so‘mdagi UZCARD EMV plastik kartochkasi);

***Karta hisobvarag‘i*** - undagi pul mablag‘laridan Kartochka vositasida foydalanish mumkin bo‘lganbank hisobvarag‘i;

***Kodli so‘z*** - Mijoz mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga telefon orqali murojaat qilganida Bank Mijozni identifikasiyalash uchun Bank tomonidan foydalaniladigan Mijoz tomonidan Ariza-anketada ko‘rsatiladigan so‘z/jumla.

***Operatsiyalar bo‘yicha chegara*** - Kartochkadan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshriladigan Operatsiyalar (Topshiriqnomalar)ni o‘tkazishgaBank tomonidan o‘rnatilgan cheklov.

***Milliy valyuta*** - so‘m.

***Asosiy kartochka*** - Shartnoma doirasida Karta hisobvarag‘iga uning egasi nomiga birinchi bo‘lib chiqarilgan Kartochka, shuningdek, oldin chiqarilgan Asosiy Kartochka o‘z kuchini yo‘qotganida, uning o‘rniga chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartochka.

***Qo‘shimcha kartochka*** - ochish uchun Asosiy Kartochka egasining yozma arizasi talab qilinadigan Asosiy Kartochkaga (Asosiy Kartochkaning karta hisobvarag‘iga) Qo‘shimcha kartochka.

***PIN-kod*** - Karta hisobvarag‘ida hisobda turgan pul mablag‘larini tasarruf qilish huqukini tasdiqlovchi, topshiriqning bank kartochkasi saqlovchisi tomonidan berilganligini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartochkada saqlanadigan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi Kartochkaning shaxsiy indentifikasion raqami. Pinkod maxfiy ma'lumot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim.

***PK*** - O‘zbekiston Respublikasining tijorat banki tomonidan chiqarilgan, O‘zbekiston To‘lov tizimiga aloqdar qarashli plastik kartochka.

***Savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonasi*** - Kartochkani tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov sifatida qabul qiladigan har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

***Kartochkani amal qilishini to‘xtatib turish*** - mazkur Tartibda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra Karta hisobvarag‘i bo‘yicha Operatsiyalarni vaqtincha to‘xtatib turish.

***Sug‘urta depoziti*** - Ruxsatsiz amalga oshirilgan overdraftni va Shartnomalar hamda Bank tariflarida nazarda tutilgan vositachilik haqlarini so‘ndirish uchun Bank tomonidan foydalanilagidan, Kartochka bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lmagan, Mijoz tomonidan Karta hisobvarag‘ida joylashtirilgan pul mablag‘lari.

***O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali*** - majmuaning vazifa va imkoniyatlariga qarab naqd pul mablag‘laridan ham, bank kartochkalaridan ham foydalangan holda xizmatlar, ishlar, tovarlar, kreditlarni so‘ndirish va h.k. bo‘yicha to‘lovlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan Bankning dasturiy-apparat majmuasi.

***Transaksiya*** - tovarlar va xizmatlarga to‘lov qilish maqsadida Kartochka yordamida amalga oshiriladigan har qanday to‘lov, shuningdek, bank kassalari yoki bankomatlardan naqd pul mablag‘lari olish operatsiyasi.

***Reversal*** - kommunikasion xatoliklarda (aloqadagi uzilishlar) yoki Mijoz tomonidan tovarlar (xizmatlar)ni sotib olish rad qilinganida Kartochka bo‘yicha terminaldagi transaksiyani bekor qilish.

1.2. Mazkur Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta'riflar Kompleks xizmat ko‘rsatish Qoidalaridagi mazmun bilan bir xil ma'noga ega.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI VA KARTOCHKANI CHIQARISH TARTIBI

2.1. Mazkur Tartib jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi Shartnomani (keyingi o‘rinlarda - Shartnoma) tuzish va bajarish jarayonini tartibga soladi.

2.2. Mijoz Shartnoma imzolash uchun Bank belgilagan shakl bo‘yicha to‘ldirilgan Visa xalqaro plastik kartochkasini chiqarish Arizani (Ushbu Tartibning 3-Ilovasi) hamda amaldagi qonunchilik va Bank tomonidan o‘rnatilgan tartibga asosan Shartnoma tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni MBX vositasida yoki Bank Ofisiga taqdim etadi. Mijozning Arizasi Bank tomonidan akseptlanganidan so‘ng Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.Bank Arizani Karta hisobvarag‘i ochish orqali akseptlaydi. Bunday holda Shartnoma Mijozning nomiga Karta hisobvarag‘i ochilgan sanada tuzilgan hisoblanadi;

Mijoz tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan Ariza Bank tomonidan akseptlangan taqdirda Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi va Shartnomaning Qoidalarda, mazkur Tartibda bayon

etilgan umumiy shartlariga Mijozning to‘liq va so‘ssiz roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Ariza berish jarayonida Mijozning Bank Tariflari bilan tanishganligini va ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Shartnoma aralash shartnoma hisoblanadi va bank hisobvarag‘i hamda bank kartochkalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarning elementlarini o‘z ichiga oladi.

Bank belgisi qo‘yilgan Ariza nusxasi Mijozga uning so‘rovi bo‘yicha Bank Ofisida beriladi.

2.3. Qoidalar, mazkur Tartib, Bank Tariflari, Bank tomonidan akseptlangan Ariza Shartnomani tashkil qiluvchi hujjatlar hisoblanadi.

2.4. Kartochka Bankning mulki hisoblanadi va Kartochkaning amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki Shartnoma bekor qilinganda Bankka qaytariladi. Kartochkani olish uchun Bankka Mijozdan Ariza kelib tushgandan, Mijoz tomonidan sug‘urta depozitini shakllantirish, shuningdek,Bank Tariflariga muvofiq vositachilik haqini Bankka to‘lash uchun yetarli pul mablag‘lari Karta hisobvarag‘ida shakllantirilganidan so‘ng 3 (uch) ish kuni mobaynida Bank tomonidan chiqariladi.

2.5. Kartochka va to‘rttalik PIN-kodli muhrlangan PIN-konvert (PIN-kod PIN-konvertning ichiga kiritilgan bo‘lsa) shartnoma shartlari bilan boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, Saqlovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatilganida Bank tomonidan Kartochka Saqlovchisiga yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirishlgan ishonchnoma bo‘yicha Vakiliga topshiriladi.

2.6. PIN-konvert olinganidan so‘ng, Kartochka Saqlovichisi uning muhrlanganligiga va bundan oldin ochilmaganligiga ishonch hosil qilishi kerak. PIN-konvert ochilganidan keyin PIN-kodni esda tutish va sir saqlash lozim.

2.7. Kartochka olinayotganda Kartochka Saqlovchisi Kartochkaning orqa tomonidagi “Imzolar namunasi” qatorida imzo qo‘yishi shart.

2.8. Chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartochka Saqlovchiga faol bo‘lmagan holatda topshiriladi. Kartochkani faollashtirish Bankomat/POS – terminal yoki Mobil bank va Internet bank xizmati orqali yoxud Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash Xizmatiga telefon qilib Bankka murojaat qilish yoki Bank Ofisida PIN-kod o‘rnatish yo‘li bilan Mijoz tomonidan mustaqil amalga oshiriladi;

2.9. Kartochka shaxsiy to‘lov vositasi hisoblanadi, Kartochkaning nomiga Kartochka chiqarilgan qonuniy Saqlovchisi – shaxsga tegishliligi uning Kartochkadagi ismi, sharifi va/yoki imzo namunasi, shuningdek, PIN-kod bilan aniqlanadi.

2.10. Kartochkadan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank Mijozning nomiga Karta hisobvarag‘i ochadi, Arizaga muvofiq, shuningdek, mazkur Tartibda o‘rnatilgan tartib va muddatlarda Kartochka(lar)ni chiqaradi hamda beradi.

2.11. Karta hisobvarag‘i va Kartochka(lar)ga (shu jumladan Qo‘shimcha kartochkalarga ham) xizmat ko‘rsatish mazkur Tartib va Bank Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.12. Kartochkadan faqatgina uning yuza qismida nomi ko‘rsatilgan Mijozning o‘zi yoki nomiga qo‘shimcha kartochka ochilgan qo‘shimcha kartochka Saqlovchisi foydalanishi mumkin. Kartochka yoki uning rekvizitlarini boshqa shaxsga foydalanish uchun berish mumkin emas (To‘lov tizimi Qoidalari bilan boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa). Bunday holda Kartochkadan foydalanish bo‘yicha javobgarlik Kartochka Saqlovchisining zimmasida bo‘ladi.

Nomiga Karta hisobvarag‘i ochilgan Mijoz nomidan Qo‘shimcha kartochka Saqlovchisining Operatsiyalar o‘tkazish huquqi Karta hisobvarag‘i egasining va Qo‘shimcha kartochka Saqlovchisining Qo‘shimcha kartochka Saqlovchisi ma'lumotlari ko‘rsatilgan tegishli arizani Bank Ofisida imzolash va topshirish orqali tasdiqlanadi.

2.13. Boshqa jismoniy shaxsga Kartochka chiqarilganda Mijoz Qo‘shimcha kartochka Saqlovchilarni Qoidalarning, ushbu Tartibning talablari va Bank tariflari bilan tanishtirishi, shuningdek, ularni bajarilishini ta'minlashi shart.Kartochkadan foydalanishga va Operatsiyalar amalga oshirishga nisbatan ushbu Tartib va Bank tariflari bilan o‘rnatilgan barcha talablar Qo‘shimcha kartochka Saqlovchisiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Qo‘shimcha kartochka Saqlovchisi

Karta hisobvarag‘ining egasi bo‘lmasa, Karta hisobvarag‘ining egasi bo‘lgan Mijoz o‘z nomidan Karta hisobvarag‘i bo‘yicha Bank va Karta hisobvarag‘i egasi tomonidan o‘rnatilgan cheklovlarni inobatga olgan holda ushbu Qo‘shimcha kartochkadan foydalanib, Operatsiyalar amalga oshirishga, ushbu Qo‘shimcha kartochka bo‘yicha amalga oshirilgan Operasilar bo‘yicha ma'lumot olishga huquq berilgan shaxs hisoblanadi.

## 3. KARTOCHKADAN FOYDALANISHNING UMUMIY QOIDALARI

3.1. Shartnomaga asosan chiqariladigan Kartochkadan tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish, bank kassalari va bankomatlardan naqd pul olish, shuningdek, uning rekvizitlaridan foydalanib, Internet orqali to‘lovlar qilish uchun foydalaniladi.

3.2. Kartochkaning PIN-kodi Kartochka Saqlovchisi tomonidan muayyan to‘lov tizimi Kartochkasining PIN-kodini o‘zgartirish funksiyasi ega bo‘lgan Bankomat/POS – terminallar va Mobil bank yoki Internet bank xizmati orqali o‘zgartirilishi mumkin. Bank texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lgandagina PIN-kodni o‘zgartirish imkoniyatini taqdim qiladi. Yangi PIN-kod o‘rnatayotganda bir xil yoki ketma-ket keladigan raqamlardan iborat bo‘lgan kombinasiyadan foydalanish tavsiya etilmaydi. Saqlovchi PIN-kodni chegaralanmagan miqdorda almashtirishi mumkin.

U yo‘qotib qo‘yilganda PIN-kod qayta tiklanmaydi, bunday hollarda Bank Ofisiga murojaat qilish lozim. Bunda holatda Kartochka qayta chiqariladi.

3.3. Kartochkaning ishlashini ta'minlash uchun Saqlovchi mazkur Tartibning ilovasida bayon etilgan Kartochkani saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilishi hamda quyidagilarga yo‘l qo‘ymasligi kerak:

- magnit maydonlarining Kartochkaga ta'sir ko‘rsatishiga. Quyidagilar magnit maydonlarining manbaasi bo‘lishi mumkin: metall narsalar (tangalar, magnitli yopqichlar, lineykalar va boshqalar); uyali aloqa telefonlarining ba'zi modellari; video-audio qurilmalar; qo‘lda foydalaniladigan metallodetektor va boshqa.
- Kartochkaning mexanik shikastlanishiga;
- Kartochkaning ifloslanishiga;
- yuqori haroratning, shuningdek, kartochkaning plastik qatlamini va/yoki chipini buzadigan tajovuzkor muhitning Kartochkaga ta'sir ko‘rsatishiga.

3.4. Saqlovchi Kartochkadan uning amal qilish muddati tugaguncha foydalanishi mumkin. Kartochkaning amal qilish muddati uning yuza qismida ko‘rsatilgan va oyning ikkita raqami hamda yilning oxirgi ikkita raqamlari bilan belgilangan. Kartochka unda ko‘rsatilgan oyning va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi.

3.5. Kartochkaning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng u yangi muddatga qayta chiqarilishi (amal qilish muddati o‘tgan Kartochka o‘rniga chiqrilishi) mumkin. Kartochkani/Qo‘shimcha kartochkani qayta chiqarish uchun Mijoz, agar, bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan yuo‘lsa, Kartochka amal qilish muddatining oxirgi oyi mobaynida yoki uning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng Kartochkani qayta chiqarish uchun Ariza (Ushbu Tartibning 4-ilovasi) bilan murojaat qilishi kerak.

3.6. Kartochka To‘lov tizimi kartochkalarini qabul qilish to‘g‘risida reklama ko‘rsatkichlariga ega savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonalarida Operatsiya o‘tkazish uchun mo‘lajallangan. Kartochkadan biror-bir noqonuniy maqsadlarda, shu jumladan, amaldagi qonunchilik bilan ta'qiqlangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun foydalanish mumkin emas.

3.7. PIN-kod 3 (uch) marotaba noto‘g‘ri terilgan taqdirda Kartochka avtmatik ravishda bloklanadi. Kartochkani bloklashdan ochish uchun Saqlovchi Bank Ofisiga murojaat qilishiyoki

texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, Mobil bank yoxud Internet bank xizmati orqali bloklashdan mustaqil ochishilozim.

Operatsiya Bankomat orqali amalga oshirilganida PIN-kdni 3 marta ketma-ket noto‘g‘ri terig oqibatida Kartochka bloklangan bo‘lsa, Mijoz Kartochkani olib qo‘ygan Bankomat tegishli bo‘lgan bank/filialdan Kartochkani olgandan so‘ng uni bloqlashdan ochish huquqiga ega. Bunday holatda Kartochka Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash Xizmati orqali bloklashdan ochiladi yoki texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, Mobil bank yoxud Internet bank xizmati orqali bloklashdan mustaqil ochilishi mumkin.

3.8. Bankomatdagi Operatsiya tugaganidan keyin darhol Kartochka va pulni (naqd pul mablag‘ini olish bo‘yicha Operatsiya tugaganidan so‘ng) olish kerak, aks holda, Bankomat Kartochka va pulni(naqd pul mablag‘ini olish bo‘yicha Operatsiya tugaganidan so‘ng) olib qo‘yadi. Bankomat Kartochkani ushlab tursa, Saqlovchi ushbu bankomatga xizmat ko‘rsatuvchi Bankka murojaat qilishi kerak (aloqa telefoni Bankomatning ekranida yoki Bankomatdagi axborot materiallarida ko‘rsatilgan bo‘ladi).

3.9. Xarid amalga oshirilganida yoki bank kassasidan naqd pul olinganda Saqlovchi PIN-kodni kiritishi va Kartochka bo‘yicha Operatsiyaning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi chekni imzolashi kerak. PIN-kodni kiritishda yoki chekni imzolash chog‘ida Saqlovchi ko‘rsatilgan summaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi va Operatsiya summasi ko‘rsatilmagan chekka imzo qo‘ymasligi kerak. Saqlovchining imzosi bilan tasdiqlangan yoki PIN-kod terilgan Operatsiya, Operatsiya summasini to‘lab berish majburiyati hisoblanadi. Xariddan/xizmatdan voz kechilganida Operatsiyaning bekor qilinganligiga ishonch hosil qilish kerak, chunki, Operatsiya o‘tkazilganidaKarta hisobvarag‘ida Operatsiya summasi bloklanadi. Agar Operatsiya bekor qilinmagan bo‘lsa, keyingi barcha Operatsiyalar 35 (o‘ttiz besh) kun davomida bloklangan summani ayirgan holda Karta hisobvarag‘idagi mablag‘lar chegarasidaamalga oshiriladi.

3.10. Kartochka bo‘yicha Operatsiya amalga oshirilganida savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasining xodimi, agar, to‘lov tizimi Qoidalari va joylashgan mamlakat qonunchiligi bilan boshqa hol belgilangan bo‘lmasa, Saqlovchidan yoki Kartochkaning boshqa foydalanuvchisidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishni so‘rash huquqiga ega. Bank kassasidan naqd pul olish faqatgina shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiriladi, amaldagi qonunchilik va/yoki to‘lov tizimi Qoidalari bilan nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.11. Xariddan/xizmatdan voz kechilganida tovar/xizmatning qiymati o‘natilgan tartibda Mijozning Kartochkasiga qaytarib beriladi. Saqlovchi Kartochka bo‘yicha sotib olingan hamda sotuvchiga qaytarilgan tovar qiymatini naqd pulda qoplab berishni talab qilish huquqiga ega emas.

3.12. Intrenet orqali 3D Secure texnologiyasini qo‘llab Operatsiya amalga oshirish uchun Operatsiya mobil telefon raqamiga SMS-xabar ichida yuboriladigan maxsus bir martalik kod (verifikasiya kodi) bilan tasdiqlanishi kerak. Bank Kartochka saqlovchisiga Internet orqali Operatsiyani amalga oshirishni rad qilish huquqiga ega.

3.13. Mijoz Kartochka bo‘yicha Operatsiyalar bilan bog‘liq barcha hujjatlarni Operatsiya amalga oshirgan vaqtdan boshlab 60 (oltmish) kalendar kun mobaynida saqlashi va ushbu hujjatlarni Bankning talabi bilan unga taqdim qilishi shart.Mijoz Karta hisobvarag‘idan o‘chirilgan pul mablag‘larining miqdoriga rozi bo‘lmaganda, bu haqida Bank Ofisiga yozma ariza bilan murojaat qilib xabar berishi kerak, bunda cheklarning nusxasi amalga oshirilgan to‘lovlarning isboti bo‘ladi.

3.14. Mijoz tomonidan Kartochka yordamida amalga oshirilgan Transaksiyalar summasi Mijozning Karta hisobvarag‘idan o‘chiriladi va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmalarda aks etadi. Kartochkadan foydalanilganida har bir Transaksiyaning summasi Kartochka valyutasida aks etadi.

3.15. Kartochka bo‘yicha amalga oshirilgan Operatsiya summasining to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligini nazorat qilish uchun Mijoz Bank Ofisiga kelganida, MBX vositasida Karta

hisobvarag‘i/Kartochka bo‘yicha ko‘chirmalarni olishi kerak.Ko‘chirmada ko‘rsatilgan Operatsiyalar (summalar) va haqiqatda o‘tkazilgan (to‘lov amalga oshirilgan) Operatsiyalar o‘rtasida tafovut aniqlanganida, aniqlangan tafovutlarning mohiyati haqida Mijoz Bankni ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda xabardor qilishi kerak.

3.16. Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya Bank va/yoki Mijoz tomonidan o‘rnatilgan chegara doirasida amalga oshiriladi. Kartochkadan foydalangan holda Operatsiya bajarish Avtorizatsiya o‘tkazib ham To‘lov tizimlari Qoidalari va/yoki amaldagi Qonunchilikda belgilangan hollarda Avtorizatsiya o‘tkazmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

3.17. Bank tomonidan Avtorizatsiya o‘tkazishga so‘rov qabul qilinganida Bank foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining bir qismini Kartochka Saqlovchisi tomonidan Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib Operatsiyalarni amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar (shu jumladan elektron) Bankka kelguniga qadar yoki Avtorizatsiya bekor qilinguniga qadar Operatsiyaga to‘lov qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ miqdorida bloqlaydi. Mijoz foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining Bank tomonidan bloklangan qismidan ushbu Operatsiyalar summasi Karta hisobvarag‘idan yechib olinmaguncha yoki bunday Operatsiyalarning Avtorizatsiyasi bekor qilinmagunicha foydalanish huquqiga ega emas. Avtorizatsiya qilishga so‘rov bekor qilinganida Bank foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘larini tegishli summaga tiklaydi. Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya bo‘yicha Avtorizatsiya Operatsiya summasini Karta hisobvarag‘idan yechib olish uchun asos hisoblanadi.

3.18. Kartochka bo‘yicha Operatsiya o‘tkazilayotganida Kartochkadan foydalanib Operatsiya o‘tkazishda kirtilgan PIN-kodning tegishli Kartochkaga biriktirilgan PIN-kod mosligi, Operatsiya 3D Secure texnologiyasidan foydalanib o‘tkazilgan bo‘lsa, to‘g‘ri verifikasiya kodini kiritish, Tekshiruv kodidan, Saqlovchining imzosidan, Kartochkaning to‘g‘ri rekvizitlaridan foydalanish Bank uchun Operatsiya shaxsan Kartochka Saqlovchisi tomonidan amalga oshirilayotganligining so‘ssiz tasdig‘i bo‘lib, Karta hisobvarag‘idan Operatsiya summasini yechib olish orqali ushbu Operatsiyani Avtorizatsiyadan o‘tkazish (Avtorizatsiya jarayoni To‘lov tizimi qoidalari bilan nazarda tutilgan bo‘lsa) uchun asos hisoblanadi, ushbu holatda bunday Operatsiya o‘tkazilayotganligi uchun Mijoz javobgar bo‘ladi.

3.19. Foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari Avtorizatsiya qilinmagan operatsiyalar, Shartnoma va To‘lov tizimi qoidalari bilan nazarda tutilgan vositachilik haqi va boshqa to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmasa, shuningdek, valyuta kursidagi tafovut natijasida tasdiqlanmagan oferdraft kelib chiqishi mumkin. Bunda tasdiqlanmagan overdraft kelib chiqqanligi uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

3.20. Kartochka rekvizitlaridan (Kartochka raqami, uning amal qilish muddati, CVC2/CVV2-kodi, Kartochkaning magnit chizig‘ida va mikroprosessorida (chipida) joylashtirilgan ma'lumotlar (agar u bo‘lsa), ulardan foydalanganda Kartochka bo‘yicha Operatsiyalarni bajarishga imkon beruvchi boshqa ma'lumotlar) foydalangan holda o‘tkazilgan Operatsiyalar Kartochkalardan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar deb hisoblanadi. Kartochkadan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalarga taalluqli bo‘lgan Shartnomalarning barcha qoidalari, shu jumladan Bank Tariflari Kartochka rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

3.21. Kartochkadan va/yoki MBXdan ruxsatsiz foydalanish natijasida Karta hisobvarag‘idan pul mablag‘larini yo‘qolib qolishining oldini olish maqsadida Mijoz mumkin bo‘lgan barcha choralarni ko‘rishi kerak, xususan:

- Kartochka/karta hisobvarag‘i bo‘yicha barcha harakatlar to‘g‘risida SMS-xabar vositasida tezkor ma'lumot olish maqsadida Ariza to‘ldirib, “SMS-axborot” xizmatiga ulanish;
- PIN-kod va/yoki Kartochkani boshqa shaxslarga bermaslik, Kartochkadan faqat uning Saqlovchisi foydalanish huquqiga ega (agar bu To‘lov tizimi Qoidalari bilan nazarda tutilgan bo‘lsa);

- PIN-kodni Kartochkaga yozib qo‘ymaslik;
- PIN-kodni Kartochka bilan bir joyda saqlamaslik va buni boshqa shaxslarga aytmaslik;
- Kartochkani avtomashinada yoki ish joyida qoldirmaslik;
- Kartochka ma'lumotlarini (kartochkaning to‘liq raqamini, amal qilish muddatini) telefon orqali aytmaslik, Kartochkaga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Bankka murojaat qilish hollari bundan mustasno;
- MBXda va 3D Secure texnologiyalaridan foydalanib Internetda Operatsiya o‘tkashda Autentifikasiya qilish uchun foydalaniladigan kirish vositalarini, verifikasiya kodlarini boshqa shaxslarga aytmaslik;
- Kartochka va uning rekvizitlaridan boshqa shaxslar foydalana olmasligini ta'minlash, Kartochkani o‘zida yoki boshqalar bilmaydigan joyda saqlash;
- Kartochkaning saqlash joyida mavjudligini muntazam tekshirish, ayniqsa, uzoq muddat bo‘lmaslikdan (mehnat ta'tili, xizmat safari) so‘ng;
- tovarlar (xizmatlar) uchun to‘lov qilganda bir vaqtni o‘zida nechta Kartochkani ko‘rsatmaslik;
- elektron pochta orqali yuborilgan xabarlarga, shaxsiy va Kartochka haqidagi ma'lumotlar so‘ralgan SMS-xabarlarga javob bermaslik. Kodli ma'lumotni, pasport raqamini, Kartochka raqamini va uning PIN-kodini, Kartochka bo‘yicha oxirgi Operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni so‘rayotgan har qanday kompaniya yoki shaxslarga shubhali munosabatda bo‘lish;
- shaxsiy maxfiy yoki moliyaviy ma'lumotlarni axborot tizimlari oqrali yubormaslik;
- Internet tarmog‘i orqali Operatsiya o‘tkazishda foydalaniladigan kompyuter/uyali telefon/boshqa qurilmani tarmoq hujumlaridan, zarar yetkazadigan dasturlarni o‘rnatishdan va shaxsiy ma'lumotlarni o‘g‘irlashdan himoya qiluvchi dasturiy ta'minot o‘rnatish va uni muntazam yangilash;

3.22. Taraflar Bank Mijozni Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqida tegishli bildishnomani Internet bank, Mobil bankning Shaxsiy kabinetida joylashtirish, shuningdek, SMS-axborot xizmati orqali xabardor qilishi to‘g‘risida kelishdilar.

3.23. Kartochka yoki uning rekvizitlaridan va/yoki MBXdan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqidagi Bank bildirishnomasini, Kartochka va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmani olish uchun Mijoz har kuni Internet bank/Mobil bankka murojaat qilishi kerak. Ko‘chirmada ko‘rsatilgan Operatsiyalar (summalar) bilan amalda bajarilgan (to‘lov qilingan) Operatsiyalar o‘rtasida tafovutlar aniqlanganida Mijoz mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq bu haqida darhol Bankka bildirishi kerak.

3.24. Bank Mijozni, agar, SMS-axborot xizmati ulangan bo‘lsa, u orqali Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiya haqida qo‘shimcha ravishda xabardor qiladi.

3.25. Mazkur Shartnomaga asosan ochigan Karta hisobvarag‘iga Bank tomonidan pul mablag‘lag‘i xato kirim qilinganida, Mijoz Bankka qo‘shimcha topshiriqlarsiz Karta hisobvarag‘idan xato kirim qilingan pul mablag‘lari miqdoridagi pullarni yechib olish olish huquqini beradi va roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept). Ushbu holatlarda Kartochka hisovarag‘idan pul mablag‘larini qisman yechib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.26. Mijoz Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini amaldagi qonunchilik, Qoidalar, mazkur Tartib, Bank Tariflari va Banknig ichki hujjatlari hamda jarayonlariga asosan Operatsiya amalga oshirish orqali tasarruf qiladi. Slip (chek)/ elektron chek yoki amaldagi qonunchilik talablariga javob beradigan boshqa hujjat va/yoki Karta hisobvarag‘i bo‘yicha Operatsiyalar haqida ko‘chirma Operatsiya amalga oshirilganligining tasdig‘i bo‘lib hisoblanadi.

3.27. Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanish Amaldagi qonunchilik, Qoidalar, mazkur Tartib hamda Kartochka mansub bo‘lgan To‘lov tizimi Qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.28. Bank Bank Tariflariga asosan Bankka to‘lanishi lozim bo‘lgan vositachilik haqini to‘lash uchun yetarli pul mablag‘lari oldindan Kartochkaga joylashtirilgan bo‘lsa Shartnomaga muvofiq xizmatlarni ko‘rsatadi.Bunda Karta hisobvarag‘i ochish va Kartochka chiqarish Bank Tariflarida ko‘rsatilgan miqdordagi vositachilik haqi to‘langandan keyin amalga oshiriladi.

3.29. Kartochka bo‘yicha Karta hisobvarag‘i valyutasidan farq qiluvchi valyutada Operatsiya o‘tkazilgan taqdirda, pul mablag‘larini konvertasiya qilish Kartochka bo‘yicha operatsiya amalga oshirilgan kundagi va Karta hisobvarag‘idan/ga mablag‘larni o‘chirish/ kirim qilish sanasidagi To‘lov tizimi kursi yoki Bank kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda operatsiya o‘tkazilgan sana bilan pul mablag‘larini Karta hisobvarag‘idan/ga o‘chirish/ kirim qilish sanasi bilan to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Kartochka bo‘yicha operatsiya bajarilgan sanada amalda bo‘lgan To‘lov tizimi/Bank kursi pul mablag‘lariniKarta hisobvarag‘idan/ga o‘chirish/kirim qilish sanasida amalda bo‘lgan To‘lov tizimi/Bank kursidan farq qilishi mumkin.

Shuning uchun, Kartochka bo‘yicha operatsiya bajarilgan sanada Kartochkada bloklangan pul mablag‘lari miqdori Karta hisobvarag‘idan o‘chirilgan pul mablag‘lari miqdoridan farq kilishi mumkin, to‘lov qilish uchun Karta hisobvarag‘idan o‘chirilgan mablag‘ miqdori tovar qaytarilganda/xizmat rad etilganida Karta hisobvarag‘iga qaytarib beriladigan mablag‘ miqdoridan farq qilishi mumkin. Buning oqibatida kelib chiqqan valyuta kursidagi farq Mijoz tomonidan bildiriladigan et'tiroz predmeti bo‘la olmaydi.

3.30. Mijoz o‘zining Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish maqsadida amaldagi qonunchilikda belgilangan hisob-kitob hujjatlari asosida qo‘shimcha topshiriqlarsiz Bankka ushbu Shartnoma doirasida ochilgan Karta hisobvarag‘idan Kartochka yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar summasini va Bank Tariflarida o‘rnatilgan vositachilik haqini, shuningdek, Mijozning Bank oldidagi boshqa shartnomalar bo‘yicha qarzdorligini qo‘shgan holda ushbu Shartnomaga asosan Mijozning Bank oldida mavjud qarzdorligi miqdoridagi pul mablag‘larini yechib olish huquqini beradi hamda roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept), bunda Bankning Karta hisobvarag‘idan pul mablag‘larini yechib olish haqidagi talabini qisman ijro qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Karta hisobvarag‘idan pul mablag‘lari Mijoz majburiyatlari valyutasidan farq qiladigan valyutada yechib olinganda, Mijoz Bankdan majburiyatlar bajarilgan sanadagi To‘lov tizimi/Bank kursida konvertasiya (konversiya) amalga oshirishni so‘raydi.

3.31. Mijoz Bankka Kartochkani topshirganidan keyin 30 (o‘ttiz) bank kuni ichida yozma Arizaga (Ushbu Tartibning 5-Ilovasi) asosan pul mablag‘lari qoldig‘ini Karta hisobvarag‘idan o‘zining Bankdagi talab qilib olinguncha omonat hisobvarag‘iga qaytarishi yoki Karta hisobvarag‘i va Sug‘urta depozitidagi pul mablag‘lari qoldig‘ini Bank kassasi orqali naqd pul shaklida qaytarib olishi mumkin.

3.32. Karta hisobvarag‘i naqd pul mablag‘larini kirim qilish yo‘li bilan yoki amaldagi qonunchilikka asosan naqd pulsiz shaklda to‘ldirilishi mumkin.

3.33. Mijoz Karta hisobvarag‘ini to‘ldirish maqsadida xorijiy valyuta (AQSh dollari) sotib olish yoki Karta hisobvarag‘ida mavjud uchun xorijiy valyutani (AQSh dollari) sotish uchun MBX orqali yoki Bank Ofisida sotib olmoqchi/sotmoqi bo‘lgan xorijiy valyuta miqdorini, shuningdek, xorijiy valyuta/milliy valyuta kirim qilinadigan Kartochka/PKning rekvizitlarini,shuningdek, xorijiy valyuta/milliy valyuta yechib olinadigan Kartochka/PKning rekvizitlarini ko‘rsatgan holda Bank tasdiqlagan shaklda to‘ldirilgan Buyutrmanoma (Ushbu Tartibning 6,7-Ilovalari) beradi.

Xorijiy valyutani sotib olish/sotish bo‘yicha Operatsiyalar Bank Tariflariga asosan va Bankning Internet tarmog‘idagi saytida, Bank ofislarida, shuningdek, MBXda joylashtirilgan Mijoz tomonidan bevosita Operatsiya bajarish vaqtida amalda bo‘lgan sotib olish/sotish kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Xorijiy valyutani sotib olish/sotish bo‘yicha Operatsiyani amalga oshirishda Mijoz amaldagi Bank kursi va Bank tariflari bilan tanishgan deb hisoblanadi.

## 4. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. ***Mijozning majburiyatlari:***

4.1.1. Kartochka chiqarish uchun bank vositachilik haqini Ariza berilgan kuni va Karta hisobvarag‘i ochish hamda Kartochkani chiqarishdan oldin Bank Tariflariga asosan to‘lab berish.

4.1.2. Kartochkani olayotgan vaqtida uning orqa tomonidagi maxsus chiziqda sharikli ruchka bilan imzo qo‘yish. Imzolar namunasi Kartochkadan foydalanib operatsiya o‘tkazishda Mijozni identifikasiya qilish uchun xizmat qiladi.

4.1.3. Kartochkadan Shartnomaga asosan foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari chegarasida, Kartochkaning yuzida ko‘rsatilgan amal qilish muddati mobaynida foydalanish.

4.1.4. Operatsiya bajarilgan paytda amalda bo‘lgan Bank tariflariga asosan Bank xizmatlariga haq to‘lash.

4.1.5. Kartochkadan tovar va xizmatlarga to‘lov qilish joyining amaldagi qonunchiligi bilan sotish ta'qiqlangan tovar va xizmatlar uchun to‘lov qilishda foydalanmaslik. Bunda Kartochkadan noqonuniy foydalanganlik uchun to‘liq javobgarlik Kartochka Saqlovchisining zimmasida bo‘ladi.

4.1.6. Qo‘shimcha Kartochkalarni ham xisobga olgan holda Kartochkadan foydalanib noto‘g‘ri bajarilgan va Qoidalar, To‘lov tizimi qoidalari yoki ushbu Shartnomani buzgan holda hamda lozim darajada bajarmasdan amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar bo‘yicha javobgar bo‘lish.

4.1.7. Karta hisobvarag‘iga boshqa shaxs uchun qo‘shimcha Kartochka chiqarilganida qo‘shimcha Kartochka Saqlovchilarining qo‘shimcha Kartochkalardan foydalanib amalga oshirilgan barcha harakatlar uchun javobgar bo‘lish.

4.1.8. Mijoz Kartochkani yangi muddatga qayta chiqarishni rad qilganida, Kartochkaning amal qilish muddati tugagan kunning keyingi kunidan kechiktirmasdan Bankka MBX orqali yoki Bank Ofisiga Shartnomani bekor qilish to‘g‘risida Ariza berish, shuningdek, keyingi kundan kechiktirmasdan Bankka Kartochkani qaytarish.

4.1.9. Yashash joyi, pasport ma'lumotlari yoki telefon raqamlarining o‘zgarganligi haqida bundan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 bank kuni ichida Bankka ma'lum qilish.

4.1.10. Kartochkani saqlashda ehtiyotkor bo‘lish, shuningdek, PIN-kodni sir saqlash va uchinchi shaxlarga oshkor qilmaslik.

4.1.11. Nomiga Kartochka chiqarilgan Vakilidan, shuningdek, Bank vakolatli xodimlaridan tashqari, Kartochkani uchinchi shaxslarga bermaslik;

4.1.12. “Kapitalbank” ATB Mijozlarini qo‘llab-quvvatlash xizmatining Kartochkaning orqa tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqamiga telefon qilish orqali Kartochkaning yo‘qolganligi haqida Bankka darhol xabar berish va/yoki bu haqida (998 71) 232-26-07 faks raqamiga yoki cards@kapitalbank.uz e-mail manziliga Kartochka raqamingizni, Saqlovchining tug‘ilgan sanasini, Kartochka turini, aloqa telefoni va murojaaning sababini ko‘rsatgan holda xabar yuborish va Kartochkaning yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berish uchun 24 soat mobaynida Bank Ofisiga kelish.

4.1.13. O‘zining Kartochkasi bo‘yicha operatsiya amalga oshirganda To‘lov tizimi qoidalariga amal qilish.

4.1.14. Kartochkani Avtorizatsiya jarayonisiz to‘lov uchun qabul qilish huquqiga ega savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonasida foydalanish natijasida paydo bo‘lgan Tasdiqlanmagan overdraft miqdoridagi qarzdorlikni 30 kun mobaynida to‘lash.

4.1.15. Bankning birinchi talabi bilan Bankka Kartochka(lar)ni, Qo‘shimcha kartochka(lar)ni taqdim qilish.

4.1.16. Bank Tariflariga, Shartnoma doirasida foydalaniladigan yo‘riqnoma va boshqa xujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida yangi ma'lumotlarni olish maqsadida Bankning Internet tarmog‘idagi saytlarini muntazam ravishda kuzatib borish.

4.2. ***Mijozning huquqlari:***

4.2.1. Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining qoldig‘i va Bank tomonidan o‘rnatilgan Xarajatlar chegarasida Kartochka bo‘yicha Operatsiyalar amalga oshirish.

4.2.2. Karta hisobvarag‘idagi qoldiqni Bank kassasiga naqd pul topshirish orqali, shuningdek, amaldagi qonunchilikka asosan naqd pulsiz shaklda to‘ldirish.

4.2.3. Bank Tariflariga asosan va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda Karta hisobvarag‘i bo‘yicha o‘z nomiga/uchinchi shaxs nomiga Qo‘shimcha Kartochka rasmiylashtirish, shu orqali uchinchi shaxslarga Karta hisobvarag‘idagi mablag‘lardan o‘z xoxishiga asosan foydalanishga huquq berish.

4.2.4. Haqiqiyligiga shubha bo‘lgan va o‘zi amalga oshirmagan Transaksiyalarga nisbatan Bankka e'tiroz yo‘llash, Mijoz tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun Internet orqali amalga oshirilgan Transaksiyalar bundan mustasno.

E'tiroz Bankka Mijoz shubhalarining sababini ko‘rsatgan holda va ularni tasdiqlovchi hujjatlarning qog‘oz nusxasini ilova qilib yuboriladi.

4.2.5. Bank Ofisiga ShTHni shaxsan ko‘rsatgan holda murojaat qilib, Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirma olish.

4.2.6. Bankka Karta hisobvarag‘i va Kartochkani, Qo‘shimcha Kartochkani yopish to‘g‘risida Ariza (Ushbu Tartibning 5-ilovasi) bilan murojaat qilish.Mablag‘larni qaytarish ushbu Tartib va To‘lov tizimi Qoidalriga asosan amalga oshiriladi.

4.2.7. Shartnoma doirasida chiqarilgan Qo‘shimcha kartochkalarning amal qilishini to‘xtatib turish.

4.2.8. Internet to‘lovlarni o‘tkazishda ishlatiladigan CVV2 kodni o‘chirish haqida Ariza berish.

4.2.9. Amaldagi qonunchilik bilan nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni/operatsiyalarni olish/amalga oshirish.

## 5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. ***Bankning majburiyatlari:***

5.1.1. Mijoz Arizasi akseptlanganda Mijozga Karta hisobvarag‘i ochish, amaldagi Qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiningbank kartochkalaridan foydalanib operatsiya o‘tkazishni tartibga soluvchi normativ hujjatlari va Bankning ichki hujjatlari, Kompleks bank xizmati ko‘rsatish Shartnomasi va mazkur Tartibga asosan unga xizmat ko‘rsatish.

5.1.2. Mijozning yozma so‘roviga asosan uning Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirma berish.

5.1.3. Mijozning Karta hisobvarag‘ini Mijozning savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalarida, Bankomatlarda, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminallarida, Bank Ofisida Kartochkadan foydalanib amalga oshirgan Transaksiyalar summasiga, shuningdek, Kartochkaning rekvizitlaridan foydalanib, Internet orqali (Kartochkasiz) amalga oshirgan Transaksiyalar summasiga debetlash.

5.1.4. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ijobiy Qaror qabul qilinganida Kartochkani yetkazib berish muddatini hisoblamaganda Ariza berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kunida Mijozga Kartochka chiqarish/qayta chiqarish.

5.1.5. Mijozdan Kartochka yo‘qolganligi va Qoidalarning talabiga asosan undan noqonuniy fodalanganlik to‘g‘risida xabarnoma olinganida darhol Kartochkani bloklash.

5.1.6. Tegishli Arizaga asosan Mijozga “SMS-axborot” xizmatini ko‘rsatish.

5.2. ***Bankning huquqlari:***

5.2.1. Mijoz tomonidan ushbu Tartib va/yoki Qoidalarning shartlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, amaldagi qonunchilik talablarining hamda

Shartnoma yoki KBXSh doirasida Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan boshqa Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Kartochka (lar)ning, Qo‘shimcha Kartochkalarning ham amal qilishini to‘xtatib turish.

5.2.2. Firibgarlik tahdidi yoki Bank va Mijoz manfaatlari uchun boshqa xavf kelib chiqqanda, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda Karta hisobvarag‘i va/yoki Kartochka bo‘yicha Operatsiyalar o‘tkazishni bir tomonlama bloklash yoki cheklash.

5.2.3. Kartochka chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan boshlab 1 (bir) yil mobaynida Mijoz tomonidan olinmagan Kartochkani vositachilik haqini qaytarmasdan amal qilish muddatini to‘xtatish (Karta hisobvarag‘ini yopish bilan). Bankning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishi maqsadda Mijoz ushbu band Mijozning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopish uchun berilgan Arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

5.2.4. Arizada ko‘rsatilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish va ushbu ma'lumotlar noto‘g‘ri bo‘lsa, Mijozga sababini tushuntirmasdan Kartochka chiqarish va Karta hisobvarag‘i ochishni rad qilish.

5.2.5. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurishish maqsadida Mijozdan uni identifikasiya qilishga imkon beruvchi va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshiriladigan Operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish.

5.2.6. Mijozning Bank oldidagi quyidagi Bitimlardan kelib chiquvchi majburiyatlarini bajarishi maqsadida Karta hisobvarag‘idan, shu jumladan Sug‘urta depoziti hisobidan Mijozning qo‘shimcha topshirig‘isiz (oldindan berilgan aksept) akseptsiz tartibda pul mablag‘larini o‘chirish:

- Bank Tariflarida o‘rnatilgan vositachilik haqini qo‘shib hisoblaganda mazkur Tartibga asosan tuzilgan shartnomalar;
- asosiy qarz, foiz va kredit shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni qo‘shib hisoblaganda Bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomalari;
- Mijoz kafil sifatida qatnashadigan Bank bilan tuzilgan kafillik shartnomalari;
- Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar.

5.2.7. Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari buzilganda va Kartochkadan foydalanish natijasida Bank asossiz moliyaviy xavf ostiga qo‘yilganida Bank tomonidan tasdiqlangan jarima sanksiyalarini qo‘llash hamda Kartochkaning amal qilishini to‘xtatib turish.

5.2.8. Karta hisobvarag‘ida yetarli mablag‘lar bo‘lmaganda savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasiga Avtorizatsiya jarayonini o‘tkazishni rad qilish.

5.2.9. Mijozga Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatilganida Bank Tariflarida bo‘lmagan, biroq, To‘lov tizimida nazarda tutilgan, Bank tomonidan amalga oshirilgan vositachilik haqi xarajatlarini Mijozning hisobvarag‘idan undirish;

5.2.10. Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda Shartnomaga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritishni taklif qilish.

5.2.11. Operatsiyalarni amalga oshirganlik uchun Ban Tariflari bo‘yicha vositachilik haqini ushlab qolish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Bank o‘zining nazoratidan tashqarida bo‘lgan fors-major holatlari uchun hamda tashqi hisob-kitob tizimlaridagi, To‘lov tizimlaridagi, ma'lumotlarni qayta ishlash va yuborishdagi nosozliklar uchun, shuningdek, Kartochka uchinchi shaxs tomonidan to‘lov uchun qabul qilinmaganida javobgar bo‘lmaydi.

6.2. Bank Kartochkadan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun boshqa kredit tashkilotlari, moliya muassasalari, To‘lov tizimlari va hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilari tomonidan undiriladigan vositachilik haqi va qo‘shimcha to‘lovlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.3. Naqd pul mablag‘lari olish uchun chegara belgilashda xorijiy mamlakatning qaysidir darajada Mijozning manfaatlariga ta'sir qiluvchi valyuta cheklovi bo‘lsa, bu uchun bank javobgar bo‘lmaydi.

6.4. Bank Mijoz uni Kartochka bo‘yicha Operatsiyalarni amalga oshirishni to‘xtatib turish (bloklash) va Kartochkaning yo‘qolganligi to‘g‘risida xabardor qilguniga qadar Kartochka bo‘yicha, shu jumladan, Kartochka rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun javobgar bo‘lmaydi. Bank To‘lov tizimi talablariga asosan Kartochkadan yoki uning rekvizitlaridan foydalanib bajarilgan to‘lovlarni amalga oshirishga majbur va Mijozning Karta hisobvarag‘ini Mijoz tomonidan Kartochka bo‘yicha Operatsiyalarni amalga oshirishni to‘xtatib turish (bloklash) va Kartochkaning yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berilgunga qadar amalga oshirilgan Operatsiya miqdoriga teng summani debetlash huquqiga ega.

6.5. ***Bank quyidagilar uchun javob bermaydi:***

- Transaksiyalar Kartochka rekvizitlarini ko‘rsatgan holda Internet orqali o‘tkazilgan bo‘lsa, Mijozning moliyaviy yo‘qotishlari uchun;
- Bankning nazoratidan tashqarida bo‘lgan holatlar sababli o‘z majburiyatlarini bajara olmasa;

6.6. Mijoz quyidagilar uchun javob beradi:

- Shartnoma shartlarini buzganlik uchun;
- Kartochkaning butligi va saqlanishi uchun, naqd pul mablag‘lari uchun ham, shuningdek, Mijoz va Kartochkadagi shaxsiy ma'lumotlardan hamda Kartochkaning magnit chizig‘iga kiritilgan ma'lumotlardan xabardor bo‘lgan uchinchi shaxslar tomonidan;

Kartochka yordamida amalga oshirilgan Transaksiyalar uchun;

- PIN-kod va Kartochka rekvizitlarini boshqa shaxslarga berganligi uchun;
- PIN-kod uchinchi shaxslarga oshkor bo‘lganligi haqida Bank yozma ravishda xabardor qilingunga qadar bajarilgan har qanday transaksiyalar uchun. Bunday xabarnomadan 24 (yigirma to‘rt) soat o‘tganidan keyinKartochkani taqdim qilingan yozma arizadan kechikmasdan qayta kodlash uchun Bankka topshirish sharti bilan biror-bir shaxsning Kartochkadan firibgarlik yo‘lida foydalanganligi uchun Mijozning javobgarligi bekor bo‘ladi;
- Kartochka Mijoz tomonidan yo‘qotilgan hollarda Bank xabardor qilingunga qadar Kartochkadan foydalanib o‘tkazilgan barcha Transaksiyalar bo‘yicha;
- Kartochka rekvizitlaridan foydalanib Internet orqali o‘tkazilgan barcha Transaksiyalar uchun;
- Bankka taqdim qilinadigan barcha ma'lumotlarning to‘g‘riligi uchun.

## 7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur Tartibga asosan Shartnoma tuzilgan sanadan kuchga kiradi va muddatsiz hisoblanadi.

7.2. Shartnoma Mijozning Arizasiga ko‘ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Bunda Ariza shartnomani bekor qilish rejalashtirilayotgan sanadan kamida 45 (qirq besh) kalendar kun oldin berilishi kerak. Mijoz Shartnoma bo‘yicha chiqarilgan, amal qilib turgan barcha Kartochkalarni Ariza berilgan kunda qaytarib berishi shart.Qarta hisobvarag‘idan Pul mablag‘lari qoldig‘ini qaytarish amaldagi qonunchilik talablariga, To‘lov tizimi va mazkur Tartib qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

7.3. Shartnoma faqatgina quyidagi shartlar asosida bekor qilishini mumkin:

- Mazkur Tartibga asosan barcha Kartochkalar Bankka qaytarib berilgan bo‘lishi sharti bilan Mijozning yozma arizasiga asosan;

- Mijoz Shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarni bajarganda;

- Mijozning Bank oldida qarzdorligi bo‘lmasa.

7.4. Kartochka chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan boshlab 1 (bir) yil mobaynida Mijoz tomonidan olinmagan bo‘lsa va Shartnoma doirasida chiqarilgan boshqa amal qilib turgan Kartochkalar mavjud emasligi sharti bilan Shartnomaning amal qilish muddati tugagan (bekor qilingan) hisoblanadi. Mijoz ushbu band Mijozning Karta hisobvarag‘ini va Kartochkani yopish uchun berilgan Arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

7.5. Shartnoma bekor qilinganda, Shartnoma bekor qilingunga qadar Mijoz tomonidan Bank Tariflariga asosan to‘langan Kartochka va u bo‘yicha operatsiyalar bilan bog‘liq barcha vositachilik haqlari Mijozga qaytarib berilmaydi.

7.6. Shartnomani tugatish (bekor qilish) Taraflarning Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarining tugatilishiga olib keladi hamda Karta hisobvarag‘ini yopish uchun asos hisoblanadi.

## 8. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

8.1. Shartnomadan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklar Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

8.2. Mazkur Tartibning shartlari bilan belgilanmagan qolgan barcha holatlar bo‘yicha Taraflar amaldagi qonunchilik, Qoidalar va Bank Tariflariga amal qiladilar.

8.3. Shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgarish va qo‘shimchalar, agar ular Qoidalarning talablariga asosan amalga oshirilgan bo‘lsa haqiqiy hisoblanadi.

## 9. MAZKUR TARTIBNING ILOVALARI

9.1. Quyidagi ilovalar mazkur Tartibning ajralmas qismi hisoblanadi (*murojaatlar qilish shakli va shartlariga qarab arizalar va buyurtmanomalarning shakli ilovadagilardan farq qilishi mumkin*):

***1-Ilova*** – “VISAplastik kartochkasidan foydalanish qoidalari”.

***2-Ilova*** – “VISAkartochkasi bilan Internet orqali operatsiyalar o‘tkazilganda xavfsizlikka rioya qilish qoidalari”.

***3-ilova*** – “Visaxalqaro plastik kartochkasini chiqarishga Ariza”.

***4-Ilova*** – “Visakartochkasini qayta chiqarishga Ariza”.

***5-Ilova*** – “Karta hisobvarag‘ini va Visakartochkasini yopishga Ariza”.

***6-Ilova*** – “Xorijiy valyutani sotib olishga Buyurtmanoma”.

***7-Ilova*** – “Milliy valyutani sotib olishga Buyurtmanoma”.

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
1-ILOVA

**VISA PLASTIK KARTOCHKASIDAN FOYDALANISH QOIDALARI**

I. Umumiy qoidalar

1. Saqlovchiga topshiriladigan Kartochka “Kapitalbank” ATBning mulki hisoblanadi. Kartochkaning amal qilish muddati uning yuza qismida ko‘rsatilgan va amal qilish muddati o‘tgandan keyin Kartochka haqiqiy bo‘lmaydi. Muddati o‘tgan Kartochkani topshirish va yangi muddatga chiqarilgan Kartochkani olish uchun Bankka o‘z vaqtida murojaat qilish kerak.

2. Kartochkaning yuzasida ismi va uning orqa tomonidan imzo namunasi ko‘rsatilgan, VISA xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi Shartnomaga asosan Kartochkadan foydalanish huquqini Bankdan olgan shaxs Kartochkaning Saqlovchisi hisoblanadi.

II. Kartochkani olish

3. Kartochkani ola yotganingizda uning orqa tomonidagi imzo uchun joyda albatta o‘z imzoingizni qo‘ying.

4. Kartochka boshqa shaxsga berilishi mumkin emas va amal qilish muddati tugaganidan so‘ng yoki Bankning talabi bilan Bankka topshirilishi kerak.

5. Kartochka savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarida tovar hamda xizmatlarga to‘lovlar qilish va VISA to‘lov tizimi emblemasi joylashtirilgan bank muassasasi va bankomatlardan naqd pul mablag‘larini olish uchun mo‘lajllangan.

6. Yangi yoki qayta chiqarilgan kartochkani faollashtirish Mijoz tomonidan Bankomat vositasida (VISA xalqaro plastik kartochkalari bo‘yicha) yoki Mijozlarni ko‘llab-quvvatlash xizmati telefon raqami orqali Bankka murojaat qilib yoxud Ban Ofisida mustaqil amalga oshiriladi.

III. Shaxsiy identifikasion raqam (PIN-kod)

7. Siz Kartochka bilan birga ichida bankomalar orqali naqd pul mablag‘lari olishda zarur bo‘lgan, shuningdek, bank muassasalarida naqd pul mablag‘lari olishda yoki ba'zi hollarda terminallardan foydalangan holda tovar va xizmatlarga to‘lov qilishda foydalaniladigan shaxsiy identifikasion raqam (PIN-kod) bo‘lgan muhrlangan konvert olasiz.

8. Kartochkangizdan boshqa shaxs foydalanishining oldini olish uchun PIN-kodni Kartochkadan alohida saqlang, PIN-kodni Kartochkaning ustiga yozib qo‘ymang, PIN-kodni boshqa shaxslarga aytmang.PIN-kodni elektron terminalda yoki bankomatda terishda kiritayotgan raqamlaringizni atrofdagilarga ko‘rimaydigan qilib tering. Agar Siz PINkodni esingizdan chiqargan bo‘lsangiz, yangi raqamli va yangi PIN-kodli Kartochka chiqarish uchun “Kapitalbank” ATBga murojaat qiling.

9. Kartochkangizning raqamini va PIN-kodini yozib qo‘ying. Bu raqamni Kartochkadan alohida saqlang. Uni yo‘qotganda yoki biror-bir tushunmovchilik yuzaga kelganda qo‘ng‘iroq qilish lozim bo‘lgan telefon raqamini (Kartochkaning orqa tomoniga qarang) darhol uyali telefoningiz xotirasiga yoki qayd daftariga yozib qo‘ying. Ushbu qayd Kartochkangiz o‘g‘irlanganda, Sizga karta hisobvarag‘ingizni ruxsatsiz kirishdan himoya qilishga hamda buning uchun zarur choralarni ko‘rish maqsadida darhol Bankka murojaat qilishingizga yordam beradi.

IV. Kartochka shikastlanishining oldini olish choralari

10. Kartochkaga elektro magnit maydonlarning ta'sirini oldini olish maqsadida uni elektr uskunalar (sovutgich, televizor, radio, mikroto‘lqinli pech' va boshqa) yaqinida qoldirmang. Kartochkani magnitli yopqichli xamyonda yoki sumkada saqlamang. Shuningdek, Kartochkani uyali aloqa telefoni oldida saqlamang. Kartochkani metall yuzasiga qo‘ymang, uni buklamang va qirmang. Kartochkani hamyoningiz va naqd pullar bilan bir joyda, shuningdek, kiyimingizning Kartochkaga tasodifan zarar yetkazish ehtimoli yuqori bo‘lgan joylarida (masalan: shimlarning orqa cho‘ntagi, kalitlar va boshqa narsalar bilan saqlash va boshq) saqlamang. Kartochkani ifloslanishidan, yuqori haroratning, shuningdek, kartochkaning plastik qatlamini va/yoki chipini buzadigan tajovuzkor muhitning Kartochkaga ta'sir ko‘rsatishidan saqlaning.

11. Shikastlanish natijasida Kartochkadan Operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanishning imkonsiz bo‘lib qolsa, uni topshirish va yangi Kartochka olish uchun “Kapitalbank” ATBning Sizga Kartochka bergan bo‘limiga murojaat qiling.

## V. Firibgarlikdan himoyalanish uchun xafvsizlik choralari

12. Kartochkangizni atrofdagilarning qo‘li yetmaydigan joyda saqlang.

13. Kartochkangiz bilan firibgarlik qilishlarining oldini olish uchun u bilan faqat o‘zingizning ishtirokingizda operatsiya o‘tkazilishini talab qiling, uni ko‘z oldingizdan olib ketishlariga yo‘l qo‘ymang.

14. Kartochkangizdan ehtimoliy firibgarlik yo‘lida foydalanishga shubha paydo bo‘lsa, bu haqida “Kapitalbank” ATB Mijozlarini qo‘llab-quvvatlash xizmatining Kartochkaning orqa tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqamiga darhol xabar bering va/yoki bu haqida (998 71) 232-26-07 faks raqamiga yoki **cards@kapitalbank.uz.** E-mail manziliga Kartochka raqamingizni, Saqlovchining tug‘ilgan sanasini, Kartochka turini, aloqa telefoni va murojaatning sababini ko‘rsatgan holda xabar yuboring va 24 soat mobaynida Bank Ofisiga keling.

## VI. Karta hisobvarag‘ini to‘ldirish

15. Karta hisobvarag‘i naqd pul mablag‘larini kirim qilish yo‘li bilan yoki amaldagi qonunchilikka asosan naqd pulsiz shaklda to‘ldirilishi mumkin.

## VII. Bankomatdan naqd pul mablag‘lari olish

16. Kartochka bo‘yicha Bankomat orqali naqd pul mablag‘larini olish Operatsiyasini o‘tkazishdan oldin, Bankomatda Kartochkangizga mos keladigan to‘lov tizimi belgisi, shunigdek, bankomatga xizmat ko‘rsatuvchi bank to‘g‘risida ma'lumotlar (nomi, manzili, telefon raqami) mavjudligiga ishonch hosil qiling.

17. Bankomat orqali operatsiya o‘tkazish bo‘yicha (shu jumladan, operatsiyasi valyutasi to‘g‘risida) Yo‘riqnoma bankomatning ekranida ketma-ket ko‘rina boshlaydi.

18. PIN-kodingizni kiritshda xatoga yo‘l qo‘ymang. PIN-kod ketma-ket uch marotaba noto‘g‘ri kiritilganda Kartochkangiz Bankomatda qoladi.

19. Operatsiya tugaganidan so‘ng pulni, Kartochkani va bankomat chekini (ular har qanday tartibda qaytarilishi mumkin) olishni unutmang. Aks holda taqdim etilgan pullar v Kartochka 20-40 sekund o‘tganidan keyin Bankomatda qolishi mumkin. Ularni qaytib olish uchun bankomatda ko‘rsatilgan telefon raqamlari orqali bank bilan bog‘lanishingiz kerak bo‘ladi.

20. Kartochka bankomatda qolib ketganida, **VISA plastik kartochkasidan foydalanish Qoidalarining 14 b.da** ko‘rsatilgan telefon/faksga xabar qilish uni darhol bloklashingiz kerak bo‘ladi.Shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatilganida Sizga qaytarib berilishi mumkin bo‘lgan kartochkangizni olish uchun bankomatda ko‘rsatilgan telefon yoki manzil bo‘yicha bankomat tegishli bo‘lgan bankka keyingi ish kunidan kechiktirmasdan murojaat qilishingiz kerak.

21. Barcha bankomatlarning chekini 6 oy mobaynida saqlang.

## VIII. Tovar va xizmatlarga to‘lov qilish

22. Operatsiya elektron terminaldan foydalanib amalga oshirilayotgan bo‘lsa, kassir Sizga PIN-kodni elektron terminalning tashqi klaviaturasida kiritishni taklif qilishi mumkin.

23. Operatsiya tugaganidan so‘ng kassir Sizga savdo chekini berishi lozim. Chekni oling va unda summa hamda valyuta o‘tkazilgan operatsiyaga to‘g‘ri kelishiga ishonch hosil qiling. Summa, valyuta, operatsiya sanasi, savdo-xizmat ko‘rsatish nuqtasining nomi qo‘yilmagan (haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan) chekni imzolamang.

24. Xariddan voz kechganingizda operatsiya tugashi bilanoq operatsiyani bekor qilishni talab qiling va oldin rasmiylashtirilgan chek yo‘q qilinganiga ishonch hosil qiling.

25. Savdo-xizmat ko‘rsatish nuqtasida Kartochkangiz bo‘yicha oldin olingan xarid qaytarilganda yoki xizmatdan voz kechilganida Savdo-xizmat ko‘rsatish nuqtasi kassiri imzolagan chekni (CreditVoucher) majburiy rasmiylashtirish orqali “xaridni qaytarish» operatsiyasi o‘tkazilishi kerak. Chekni albatta saqlab qo‘ying. Operatsiya summasi hisobvarag‘ingizga 30 kun ichida kelib tushmasa, nizoli transaksiya haqida arizani rasmiylashtirish uchun Sizga Kartochka bergan Bank bo‘limiga murojaat qiling.

26. Barcha cheklarni 6 oy mobaynida saqlang.

## IX. Kartochka bo‘yicha operatsiyalarni nazorat qilish

27. Siz Kartochkangiz bo‘yicha mablag‘lar harakati bo‘yicha hisobotni – Karta hisobvarag‘ingiz bo‘yicha ko‘chirmani “Kapitalbank” ATBdan olishingiz mumkin.Siz ko‘chirmada ko‘rsatilgan biror-bir Operatsiya bilan rozi bo‘lmasangiz, nizoli transaksiya haqida ariza berishga huquqingiz bo‘ladi.

## X. Kartochkaning yo‘qolishi

28. Kartochka yo‘qolganda (yo‘qotilganda, o‘g‘irlanganda, olib qo‘yilganda) yoki PIN-kod yoxud kartochkaning rekvizitlari haqidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarda ma'lum bo‘lganida, “Kapitalbank” ATB bilan darhol bog‘laning va Kartochkaning yo‘qolganligi haqida og‘zaki yoki yozma shaklda xabar bering.

29. Saqlovchining har qanday og‘zaki murojaati murojaat qilingan vaqtdan 24 soat ichida “Kapitalbank”ka yozma ariza bilan tasdiqlanishi kerak.

30. Yozma ariza Bank Ofisi tarkibiy bo‘limiga berilishi kerak.

31. Kartochka savdo-xizmat ko‘rsatish nuqtasida yoki naqd pul berish shahobchasida olib qo‘yilgan hollarda sana, olib qo‘yish vaqti va sababi ko‘rsatilgan tilxatni talab qiling, Sizdan olib qo‘yilgan kartochka Sizning ishtirokingizda qirqilganiga ishonch hosil qiling.Kartochka olib qo‘yilganligi haqida “Kapitalbank” ATBga ma'lum qiling.

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
2-ILOVA

## VISA KARTOCHKASI BILAN INTERNET ORQALI OPERATSIYALAR O'TKAZILGANDA XAVFSIZLIKKA RIOYA QILISH QOIDALARI

I. Alohida kartochka bilan to'lovni amalga oshiring

Hisobida yirik pul mablag'i bo'lgan asosiy kartochkangizdan Internet orqali to'lov qilishda foydalanmang. Bunday maqsadlar uchun alohida Kartochka va Karta hisobvarag'i oching hamda bu hisobvaraqqa zaruratga qarab pul mablag'lari o'tkazing.

II. Notanish saytlarda Kartochkangizhaqidagi ma'lumotlarni qoldirmang

O'zingiz va Kartochkangiz haqidagi ma'lumotlarni Sizga notanish bo'lgan saytlarda qoldirmang. To'lov amalga oshirmoqchi bo'lgan tashkilotingiz qaerda joylashganligiga qarang. Agar uning manzili bo'lmasa yoki u Sizda shubha uyg'otsa,to'lovni amalga oshirishdan oldin o'ylab ko'ring.

III. Xavfsiz veb saytlardan foydalaning

Ishonchli internet-do'konlar bitim amalga oshirayotganda shaxsiy ma'lumotlaringizni ximoyasini kafolatlaydigan maxsus texnologiyadan foydalanishadi.

Sizning ma'lumotlaringiz internet-do'konga yuborilayotganda kiberfiribgarlar ularni qo'lga kiritishga harakat qilishlari mumkin, shuning uchunIshonchli internet-do'konlar Interent orqali uzatiladigan shaxsiy ma'lumotlarni shifrlash texnologiyasidan foydalanishadi. Veb saytning URL-manzilini tekshirish uning himoyalanganligini tekshirishni usullaridan biri hisoblanadi: u **'http'** emas, balki, **'https'** prefiksi bilan boshlanishi kerak. Agar Siz ikkilansangiz, internet-do'konning mijozlar bilan ishlash xizmatiga qo'ng'iroq qiling va ular foydalanadigan xavfsizlik siyosati to'g'risida so'rang. Ushbu sayt orqali hisob-kitoblarning xavfsizligini tasdiqlaydigan turli xildagi sertifikatlarga e'tibor qiling.

IV. Komp'yuteringizning xavfsizlik dasturini sotib oling

Kompyuterning Internetda xarid amalga oshirishda ehtimoliy xavflarni aniqlaydigan va bloklaydigan kompleks xavfsizlik dasturini sotib oling.

Xavfsizlik dasturlarining narxi qimmat emas, biroq Sizga zarar yetishidan oldin internet firibgarlikning oldini olib sezilarli mablag'ingizni tejashi mumkin.

Ishonchli xavfsizlik tizimi (masalan **McAfee® InternetSecurity**) Siz qaysi veb saytlarga kirishingizdan qat'i nazar, doimiy himoyani ta'minlaydi. **McAfee® InternetSecurity** xavfsizlik tizimlarining shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashdan, fishingdan himoya qilish funksiyalari va **SiteAdvisor®** ma'lumotlaringizning maxfiy saqlanishini ta'minlaydi.

V. Faqat ishonchli do'konlarga ishoning

Agar Siz veb saytning ishonchli ekanligiga ishnchingiz komil bo'lmasa, u yerda xaridni amalga oshirmang.

Siz buyurtma qilmoqchi bo'lgan kompaniyaga nisbatan Sizda biror-bir bezovtalik bo'lsa, bitimni amalga oshirmang. Agar taklif Sizga "rost bo'lishi uchun juda zo'r" deb tuyulsa, balki, bunga rozi bo'lmaganingiz ma'quldir. Hali juda ko'p internet-do'konlar bora, faqatgina yana bir nechta manzillargakirib ko'rish kerak.

Karta hisobvarag'idan mablag'ni noqonuniy yechib olish to'g'risida ozgina shubha paydo bo'lsa, Sizga Kartochkani bergan Bank Ofisiga murojaat qiling. Sizda rad qilish yoki Karta hisobvarag'ingizdan mablag' noqonuniy yechilganligi yuzasidan nizolashish uchun muddat bor. Mazkur muddatning davomiyligini Kartochkani olayotganda Bank Ofisida aniqlash kerak.

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

3-ILOVA

*"Kartochkani berishga ruxsat etaman"*

________________________________

________________________

KAPITALBANK ATB
Filiali

______________________________________________________________________________Dan

*(F.I.Sh. Jismoniy shaxs uchun)*

**Visa xalqaro plastik kartochkasini chiqarishga**

## ARIZA

Mening nomimga VISA xalqaro plastik kartochkasini chiqarishingizni so'rayman: ☐ Visa Classic ☐ Visa Electron
☐Visa Gold ☐Visa Platinum ☐ Visa Infinite ☐ Visa Travel ☐ Visa GM
☐asosiy Visa kartochkasi ☐qo'shimcha Visa kartochkasi

Kartochkaga tushirish uchun ism va familiyangizni ko'rsating (Pasportda ko'rsatilganidek bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi)

| | |
|---|---|
| Kartochka uchun Ism | |
| Kartochka uchun Familiya | |

**SHAXSIY MA'LUMOTLAR:**

Tug'ilgan sana: ________________________ *kun oy yil*

Fuqarolik: ________________________ *Fuqaroligingizni ko'rsating*

Ro'yxatga olingan joy bo'yicha manzil: ______________________________________
Ro'yxatda turgan joyingizning manzilini Pasportda ko'rsatilganidek to'liq ko'rsating

Uy telefoni: ____________________ Uy telefonini ko'rsating

E-mail: ____________________ Elektron pochta manzilini ko'rsating

Uyali telefon raqami: ____________________________
Uyali telefon raqamini prefiks bilan ko'rsating

**PASPORT MA'LUMOTLARI**

______________________________________________________________________________

**NAZORAT SO'ZI:**

Kartochkangizga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha telefon so'zlashuvlarida Bank ishchilari Sizni identifikasiya qila oladigan nazorat so'zini ko'rsating: ______________________________

**MA'LUMOTNING HAQIQIYLIGI TO'G'RISIDA ARIZA:**

Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlayman.
Bank:

- Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishga huquqi borligiga
- Sababini tushuntirmasdan bank plastik kartochkasini chiqarishni rad qilish huquqi mavjudligiga roziligimni bildiraman

**"Kapitalbank" ATBning Tariflari va VISA kartochkalaridan foydalanish Qoidalari bilan tanishdim hamda ularni bajarish majburiyatini olaman**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Kartochka Saqlovchining imzosi** | ✓ | **Sana** | |

- - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

**<u>KARTOCHKANI OLISH:</u>**

☐Bankdan
☐Quyidiga manzilga yetkazib berish: _______________shahar______________________________ko'cha: ____________ uy ________ xonadon Orientir ______________________________________________
Taxminiy yetkazib berish vaqti (san ava vaqti): ______/______/_______ __________ _______
sana vaqt

| | |
|---|---|
| **Kartochka Saqlovchining imzosi** | ✓ |

**<u>Ushbu imzo orqali Kartochkani "Kartochkani olish" bo'limida ko'rsatilgan shartlarda berishingizni so'rashimni tasdiqlayman</u>**

- - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

**BANKNING XIZMAT BELGILARI**

| | |
|---|---|
| **Karta hisobvarag'i raqami:** | |

| Xizmatharakatlari/qarori/belgilari | Xodimning F.I.Sh. | Imzo |
|---|---|---|
| Arizani qabul qildi | | ☐ |
| Kelishildi | | ☐ |

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

4-ILOVA

*"Kartochkani berishga ruxsat etaman"* ________________________________

________________________
"Kapitalbank" ATB

______________________________________________________________________________________________Dan

*(F.I.Sh. Jismoniy shaxs uchun)*

**Visa kartochkasini qayta chiqarishga**

## ARIZA

Mening nomimga xalqaro VISA plastik kartochkasini qayta chiqarishingizni so'rayman ☐ **Visa GM** ☐ **Visa Classic** ☐ **Visa Electron** ☐ **Visa Gold** ☐ **Visa Travel** ☐ **Visa Platinum** ☐ **Visa Infinite**

Kartochka raqami

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **4** | **2** | **7** | **8** | | | * | * | * | * | * | * | | | | |

**Qayta chiqarishning sababini ko'rsating:**

a) ☐ kartochkalarning amal qilish muddati tugagan
b) ☐ saqlovchining pasportidagi ism/familiyasidagi o'zgarish
c) ☐ kartochkaning yo'qolganligi/o'g'irlanganligi*
d) ☐ kartochkaning shikastlanishi
e) ☐ kartochkaning texnik nosozligi
f) ☐ kartochka bilan firibgarlik harakatlarining bajarilishiga Shubha
g) ☐ PIN-kodni almashtirish

☐ **Asosiy Visa kartochkasi** ☐ **Qo'shimcha Visa kartochkasi**

Kartochkaga tushirish uchun ism va familiyangizni ko'rsating (pasportdagidek lotin harflarida)

ISM

FAMILIYA

SHAXSIY MA'LUMOTLAR

Tug'ilgan sana: ____________________________ Fuqarolik: Rezident/Norezident ________________________________________
*kun oy yil* *Fuqaroligingizni ko'rsating*

Ro'yxatga olingan joy bo'yicha manzil:_________________________________________________________________________________
Ro'yxatda turgan joyingizning manzilini Pasportda ko'rsatilganidek to'liq ko'rsating

Uy telefoni: _________________________E-mail: _______________________________
*Uy telefonini ko'rsating* *Elektron pochta manzilini ko'rsating*

Uyali telefon raqami: ____________________________________
*Uyali telefon raqamini prefiks bilan ko'rsating*

**PASPORT MA'LUMOTLARI** ____________________________________________________________

**NAZORAT SO'ZI:**
Kartochkangizga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha telefon so'zlashuvlarida Bank ishchilari Sizni identifikasiya qila oladigan nazorat so'zini ko'rsating: ____________________________________________

MA'LUMOTNING HAQIQIYLIGI TO'G'RISIDA ARIZA:
Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlayman.
Bank:
- Ushbu Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishga huquqi borligiga
- Sababini tushuntirmasdan bank plastik kartochkasini chiqarishni rad qilish huquqi mavjudligiga

roziligimni bildiraman

**Bank Tariflari va "VISA plastik kartochkalaridan foydalanish Qoidalari" hamda "Visakartochkasi bilan internet orqali operatsiyalar o'tkazilganda xavfsizlikka rioya qilish qoidalari" bilan tanishdim hamda ularni bajarish majburiyatini olaman**

**ARIZANI IMZOLASH PAYTIDA KARTOCHKANING HOLATI:**
☐ **Arizada ko'rsatilgan raqamli Kartochka bankka topshirildi va mening ishtirokimda yo'q qilindi** ☐ **Yo'qotilgan**

**Kartochka Saqlovchining imzosi** ☐ **Sana**

---

**KARTOCHKANI OLISH:**

☐ Bankdan
☐ Quyidiga manzilga yetkazib berish: __________________ shahar__________________________________ko'cha: _____________ uy ________ xonadon Orientir ____________________________________________________________
Taxminiy yetkazib berish vaqti (san ava vaqti): ______/_______/_______ __________ _______
sana vaqt

**Kartochka Saqlovchining imzosi** ☐

**Ushbu imzo orqali Kartochkani "Kartochkani olish» bo'limida ko'rsatilgan shartlarda berishingizni so'rashimni tasdiqlayman**

---

**BANKNING XIZMAT BELGILARI**

**Karta hisobvarag'i raqami:**

| Xizmatharakatlari/qarori/belgilari | Xodimning F.I.Sh. | Imzo |
|---|---|---|
| Kartochka va arizani (yo‘qolmagan bo‘lsa) qabul qildim | | ✐ |
| Kelishildi | | ✐ |

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
5-ILOVA

____________________
**"Kapitalbanka" ATB**
__________________________________________________________________________________ **dan**

**KARTA HISOBVARAG'INI VA VISA KARTOCHKASINI YOPISHGA ARIZA**

Sizdan Visa plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi _______yildagi ________–sonli Shartnomani

☐ **Visa Classic** ☐ **Visa Electron** ☐ **Visa Gold** ☐ **Visa Travel** ☐ **Visa GM**

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | 2 | 7 | 8 | | | * | * | * | * | * | * | | | | |

- sonli Kartochka hisobvaraqlarimni va Visakartochkamni (kartochkalarim)

Shuningdek

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2** | **2** | **6** | **1** | | | | | | | | | | | | | | | |

-sonli Kartochka hisobvaraqlarimni bekor qilishingizni va foydalanilmagan mablag' qoldig'ini mening __________________________________________- sonli talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'imga o'tkazib berishingizni so'rayman.

Men quyida taqdim qilinayotgan ma'lumotlarning haqiqiyligini va to'liq ekanligini tasdiqlayman. Avtorizatsiya qilingan va o'zaro hisob-kitob qilinmagan transaksiyalar mavjud bo'lsa, mablag'larni qaytarishtransaksiyalarni o'tkazilishiga qarab, o'tkazigan transaksiyalar summasini, shuningdek, bank xizmatlari uchun vositachilik haqini ayirib 30 kun ichida amalga oshirilishimenga ma'lum.

**ARIZANI IMZOLASH PAYTIDA KARTOCHKANING HOLATI:**

☐ **Arizada ko'rsatilgan raqamli Kartochka bankka yo'q qilindi**

☐ **Yo'qotilgan topshirildi va mening ishtirokimda**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Kartochka Saqlovchisining imzosi** | ✓ | **Sana** | |

BANK BELGISI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Kartochkatopshirildi:** | | **Vaqti** | |
| **Kartochka bloklangan:**<br>**Sana** | | **Vaqti** | |

Bankning xizmat belgilari

| Xizmat harakati/qarori/belgilari | Xodimning F.I.Sh. | Imzo |
|---|---|---|
| **Kartochkani va Arizani (agar yo'qolmagan bo'lsa) qabul qildi**<br>**Заявление и карту (если не утеряна) принял(а)** | | ✎ |
| **Kelishildi** | | ✎ |

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
6-ILOVA

_________________________

"Kapitalbank" ATB__

____________________________________________________________ manzilida yashovchi

__________________________________________________________________________ dan
(Arizachining F.I.Sh.)

Xorijiy valyutani sotib olishga

**BUYURTMANOMA***

№ 8600 ____XXXXXX________ shaxsiy bank kartochkasida bo'lgan
________________________________________________________________________ so'm,
(raqam va so'z bilan)
miqdoridagi milliy valyutani

___________________________________________________________________AQSh dollari miqdoridagi xorijiy valyutaga

☐ VISA xalqaro to'lov kartochkasi ochib
xorijiy valyutadagi mablag'larni unga kirim qilish orqali

☐ № 4278 XXXXXXXX___________________
xalqaro kartochkaga kiri qilish orqali
(Arizachining nomiga ochilgan xalqaro to'lov kartochka mavjud bo'lsa)
ayirboshlab berishingizni so'raymiz.

________________________________________

**Arizachining imzosi _______________** **Sana: "____"____________ 201__yil.**

_________________________
**(bank xodimining imzosi)**

__________________________________

(MUHR)

*Imzolar tekshirilgan, hisobvaraq sal'dosi yo'l quyadi*

*Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartochkasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*
7-ILOVA

______________________________
"Kapitalbank"ATB ____________

__________________________________________________________________________________
____________________________________________________________ manzilida yashovchi

_____________________________________________________________________________ dan
*(Arizachining F.I.Sh.)*

Xorijiy valyutani milliy valyutaga ayirboshlashga

**BUYURTMANOMA***

4278_____XXXXXX - sonli shaxsiy xalqaro bank kartochkasidagi _______________________________________________________________
*(so'z va raqam bilan)*

AQSh dollari miqdoridagi xorijiy valyutani

☐ 8600 XXXXXXXX - sonli shaxsiy bankkartochkasiga kirim qilish orqali

________________________________________________________________________________
*(so'z va raqam bilan)*

so'm miqdoridagi milliy valyutaga ayirboshlab berishingizni so'rayman.

__________________________________________________________________________________

**Arizachining imzosi _______________ Sana: "_____" _____________ 201_y.**

__________________________
*(bank xodimi imzosi)*

____________________________________

(Konversion operatsiyalar bo'limining muhri)

*Imzolar tekshirilgan, hisobvaraq sal'dosi yo'l quyadi.*

**“Kapitalbank” ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalariga**
**3-ILOVA**

## JISMONIY SHAXSGA TALAB QILIB OLINGUNCHA OMONAT (HISOBVARAQ) OCHISH TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA TUZISH VA BAJARISH TARTIBI

### 1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Tartibning maqsadlari uchun quyidagi atama va ta'riflardan foydalaniladi:

Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasi (Shartnoma)- Bank va Mijoz o‘rtasida tuziladigan jismoniy shaxsning talab qilib olinguncha hisobvarag‘ini ochish tartibi.

Talab qilib olinguncha hisobvaraq –kelgan pul mablag‘larini qabul qilish va kirim qilish, shuningdek muayyan mablag‘larni Mijozning birinchi talabi bilan o‘chirish, o‘tkazib berish va berish to‘g‘risidagi Topshiriqlarini ijro qilish va mazkur Tartib hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni bajarish uchun ushbuTartibga asosanBank tomonidan Mijozga ochiladigantalab qilib olinguncha depozit hisobvaraq.

1.2. Mazkur Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta'riflar Kompleks xizmat ko‘rsatish Qoidalaridagi mazmun bilan bir xil ma'noga ega.

### 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasini tuzish va bajarish tartibini belgilaydi.

2.2. Mijoz shartnoma tuzish uchun Bank tasdiqlagan shaklda to‘ldirilgan Arizani va amaldagi qonunchilik va Bank tomonidan o‘rnatilgan tartiga asosan Shartnoma tuzish uchun kerak bo‘lgan hujjatlarni Bankka beradi. Mijozning Arizasi Bank tomonidan akseptlangandan so‘ng Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Mijoz tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan Ariza Bank tomonidan akseptlangan taqdirda Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi va Shartnomaning Qoidalarda, mazkur Tartibda bayon etilgan umumiy shartlariga Mijozning to‘liq va so‘ssiz roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Ariza berish jarayonida Mijozning Bank Tariflari bilan tanishganligini va ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Bank belgisi qo‘yilgan Ariza nusxasi Mijozga uning so‘rovi bo‘yicha Bank Ofisida beriladi.

2.3. Bank Mijozga talab qilib olinguncha hisobvaraq ochadi va topshiriqnomalarni faqatgina Mijozning o‘zidan yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikka asosan uning ishonchli vakilidan qabul qiladi. Mijoz yoki uning ishonchli vakili topshirig‘isiz Bank tomonidan mablag‘larni hisobdan o‘chirish faqatgina O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

2.4. Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha Operatsiyalar amaldagi qonunchilik, mazkur tartib va bank ichki normativ hujjatlari talablariga asosan amalga oshiriladi

2.5. Bank Tariflarida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, Mijozning talab qilib olinguncha hisobvaraqda mavjud pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun Bank tomonidan foizlar yozilmaydi.

2.6. Quyidagilar Shartnomani tashkil qiluvchi hujjatlar hisoblanadi:

- Kompleks bank xizmati ko‘rsatish Qoidalari;
- Ushbu tartib, shu jumladan, Bankning amalda bo‘lgan Tariflari;
- Mijozning Bank tomonidan akseptlangan talab qilib olinguncha hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi Arizasi;

2.7. Mijoz KBXSh doirasida Bankda uning nomiga ochilgan barcha hisobvaraqalarga jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish Qoidalarining shartlariga asosan Mijozning hisobvaraqalaridan pul mablag‘larina ko‘chirish bo‘yicha Topshiriqnoma rasmiylashtirish imkoniyatini hisobga olgan holda Internet bank va Mobil bankdagi Shaxsiy kabinet orqali kirishi mumkin.

## 3. BANKNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatlari

3.1.1. Mijoz Bank Ofisiga murojaat qilganda Bank uning talabi bilan Mijozga uning rekvizitlarini o‘z ichiga olgan talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha ko‘chirma taqdim qiladi.

3.1.2. Mijozning pul mablag‘larni saqlash, talab qilib olinguncha hisobvaraqqa keladigan mablag‘larni kirim qilish, ularni ko‘chirish va Bank kassalarida berish to‘g‘risidagi Mijoz Topshiriqlarini bajarish, shuningdek, amaldagi qonunchilik, u asosida o‘rnatilgan Bank qoidalari va Shartnoma shartlari bilan talab qilib olinguncha hisobvaraq uchun nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni bajarish, shuningdek, Mijozni Bankka berilgan topshiriqnomalarning ijrosi to‘g‘risida kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash.Bunda talab qilib olinguncha hisobvaraqda yetarli pul mablag‘lari bo‘lmasa, pul mablag‘larini o‘chirish amalga oshirilmaydi.

3.1.3. Mijozning birinchi talabi bilan uning Topshiriqnomasini tegishli Topshiriqnoma bankka kelgandan so‘ng keyingi kundan kechiktirmasdan ijro qilish. Bunda Mijozning Topshiriqnomasi Operasion kun tugaganidan so‘ng yoki dam olish yoxud bayram kunlari (ishlanmaydigan kunlar) kelgan bo‘lsa, Operatsiya dam olish yoxud bayram kunlari(ishlanmaydigan kunlar)dan keyingi Operasion kunda amalga oshiriladi.

## 4. BANKNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. Mijozning Bank oldidagi quyidagi Bitimlardan kelib chiquvchi majburiyatlarini bajarishi maqsadida talab qilib olinguncha hisobvaraqdan Mijozning qo‘shimcha topshirig‘isiz (oldindan berilgan aksept) akseptsiz tartibda pul mablag‘larini o‘chirish:

- Bank Tariflarida o‘rnatilgan vositachilik haqini qo‘shib hisoblaganda mazkur Tartibga asosan tuzilgan shartnomalar;
- asosiy qarz, foiz va kredit shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni qo‘shib hisoblaganda Bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomalari;
- Mijoz kafil sifatida qatnashadigan Bank bilan tuzilgan kafillik shartnomalari;
- Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar.

4.1.2. Shartnomaga asosan ochilgan talab qilib olinguncha hisobvaraqqa Bank tomonidan pul mablag‘lag‘i xato kirim qilinganida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasi yoki uning bo‘limlari tomonidan pul mablag‘lari xato o‘tkazilganida, shu jumladan, amaldagi qonunchlik hujjatlari bilan to‘lovlarning bekor bo‘lishiga olib keluvchi vaziyatlar sodir bo‘lgandan so‘ng xato o‘tkazilganida, Mijoz Bankka qo‘shimcha topshiriqlarsiz talab qilib olinguncha hisobvarag‘idan xato kirim qilingan pul mablag‘lari miqdoridagi pullarni, shu jumladan,

mablag‘larni to‘lagan O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasi yoki uning bo‘limlari talabi bilan yechib olish olish huquqini beradi va roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept). Ko‘rsatilgan holatlarda talab qilib olinguncha hisobvaraqdan pul mablag‘larini qisman yechib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.1.3. Pul mablag‘larini Mijozga tegishli hisobvaraq raqami bo‘yicha talab qilib olinguncha hisobvaraqqa kirim qilish.

4.1.4. Hisob-kitob hujjatlari noto‘g‘ri rasmiylashtirilganida yoki Bankka topshiriq beriladigan operatsiyalar amaldagi qonunchilikka zid bo‘lganida Hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishni rad qilish.

4.1.5. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurishish maqsadida Mijozdan uni identifikasiya qilishga imkon beruvchi va talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha amalga oshiriladigan Operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish.

4.1.6. Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda talab qilib olinguncha hisobvaraq Shartnomasiga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritishni taklif qilish.

## 5. MIJOZNING MAJBURIYATLARI

5.1. Mijozning majburiyatlari:

5.1.1. Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan va amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan Operatsiyalar o‘tkazish.

5.1.2. Mijozning F.I.Sh., manzili va/yoki pasport ma'lumotlari o‘zgarganda 5 (besh) kalendar kun ichida o‘zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini va o‘zgarishlarni tasdiqlovchi arizani Bank ofisiga taqdim qilish. Hujjatlardagi o‘zgarishlar ular Bankka taqdim qilingan vaqtdan boshlab Bank uchun amal qilishni boshlaydi.

5.1.3. Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha Operatsiya amalga oshirilganida Bank Tariflariga asosan Bank xizmatlari bahosini to‘lab berish.

5.1.5. Bank Tariflari va Qoidalariga kiritiladigan o‘zgarishlar va/yoki qo‘shimchalar to‘g‘risidagi ma'lumotlar mavjudligini tekshirish maqsadida o‘z mustaqil yoki ishonchli shaxslari orqali Bankning www.kapital24.uz saytiga muntazam (haftasiga kamida bir marotaba) kirib turish. Bank Tariflari va/yoki Qoidalariga kiritiladigan o‘zgarishlarga rozi bo‘lmaganda, Mijoz mazkur Tartibga asosan tuzilgan KBXSh va/yoki Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

5.1.6. Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amaldagi qonunchilik va Bank ichki hujjatlarigi qat'iy rioya qilgan holda amalgsha oshirish. Mijoz Talab qilib olinguncha hisobvaraq ochish va u bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirish uchun taqdim qilinadigan hujjatlarning to‘g‘riligi uchun javobgar hisoblanadi.

5.1.7. Talab qilib olinguncha hisobvaraqqa xato kirim qilingan va/yoki hisobdan o‘chirilgan mablag‘lar aniqlanganda bu haqida darhol Bankka xabar qilish.

## 6. MIJOZNING HUQUQLARI

6.1. Mijozning huquqlari:

6.1.1. bank ofisiga murojaat qilganda omonat daftarchasini olish;

6.1.2. Amaldagi qonunchilikda va talab qilib olinguncha hisobvaraq Shartnomasida nazarda tutilgan hisob-kitoblarni amalga oshirish. Pul mablag‘lari Mijozning Topshriqnomasi asosida qo‘chirib beriladi.

6.1.3. Amaldagi qonunchilik talablari asosida lozim darajada rasmiylashtirilgan ishonchnomaga asosan Vakilga talab qilib olinguncha hisobvaraqdagi pul mablag‘larini tasarruf qilish huquqini beradi.

6.1.4. Talab qilib olinguncha hisobvaraqni tasarruf qilishga Vakilga berilgan ishonchnomani bekor qilish. Bunda Mijoz ishonchnoma muddatidan oldin bekor qilingan kunda bu haqida Bankka yozma ravishda xabar berib, xatga oldin berilgan ishonchnomani bekor qilish to‘g‘risidagi ariza nusxasini ilova qilishi kerak. Ishonchnomani muddatidan oldin bekor qilish dam olish yoki bayram kuniga (ishlanmaydigan kunlar) to‘g‘ri kelsa, Mijoz yozma arizani dam olish yoki bayram kunidan (ishlanmaydigan kunlar) keyingi birinchi ish kunida beradi. Ishonchnoma bekor bo‘lganligi haqida o‘z vaqtida xabar berilmagan bo‘lsa, Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha Vakil tomonidan amalga oshirilgan operatsiya uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

## 7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Mijoz tomonidan taqdim qilingan hisob-kitob hujjatlarida pulni xato ko‘chirilishiga olib keluvchi mablag‘ oluvchining rekvizitlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa, shuningdek, operatsiyalarni to‘xtatishning qonuniyligi, sud va boshqa organlarning hal qiluv qarori (qaror va boshk.) asosida Mijozning Talab qilib olinguncha hisobvarag‘iga ta'qiq solinganligi va pul mablag‘larining o‘chirilganligi uchun hamda ularda pul mablag‘larini undirishning asosi to‘g‘ri ko‘rsatilishi uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

7.2. Mijozning Talab qilib olinguncha hisobvarag‘iga kelgan pullarni o‘z vaqtida kirim qilinmaganligi yoki Bank tomonidan talab qilib olinguncha hisobvaradan pul mablag‘lari asossiz o‘chirilganligi uchun Bank amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo‘ladi.

7.3. Vakolatsiz shaxs tomonidan topshiriqnoma berilganligini Bank tomonidan bank qoidalarida va talab qilib olinguncha hisobvaraq Shartnomasida nazarda tutilgan jarayonlardan foydalanib aniqlashning imkoni bo‘lmagan bo‘lsa, Bank talab qilib olinguncha hisobvaraq bo‘yicha vakolatsiz shaxs tomonidan berilgan topshiriqnomani ijro qilishning oqibati uchun javobgar bo‘lmaydi.

7.4. Mijozning toshpriqnomasidagi ma'lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik Mijozning ziimasiga yuklatiladi. Mijoz tuzilgan Shartnomaga asosan ma'lumot va hujjatlarni Bankning talabi bilan taqdim qilish majburiyatini oladi.

## 8. TALAB QILIB OLINGUNCHA HISOBVARAQ SHARTNOMASINI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasini chegaralanmagan muddatga tuziladi.

8.2. Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasi Mijozning arizasiga asosan Bank Ofisida bekor qilinishi mumkin.

8.3. Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 788-moddasiga va amaldagi qonunchilikka asosan Bankning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

8.4. Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasining bekor qilinishi talab qilib olinguncha hisobvaraqni yopish uchun asos bo‘ladi.

8.5. Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasiga o'zgartirish Taraflarning o'zaro kelishuvi asosida kiritiladi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Shartnomadan kelib chiqadigan kelishmovchilik va nizolar Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

9.2. Talab qilib olinguncha hisobvaraqqa qabul qilingan pul mablag'larining qaytishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risidagi Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasining omonatlarni kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.

9.3. Bank Talab qilib olinguncha hisobvaraq va u bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning, shuningdek Mijoz haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi. Bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar faqatgina Mijozning o'ziga, uning vakiliga, shuningdek, amaldagi qonunchilik va Qoidalar bilan o'rnatilgan tartibda uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin.

9.4. Bank omonatdagi pullarning butligini va daxlsizligini kafolatlaydi. Omonatda turgan pul mablag'lariga ta'qiq solish yoki omonat bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollardagina bo'lishi mumkin.

9.5. Talab qilib olinguncha hisobvaraq bo'yicha 1 (bir) yil davomida hech qanday operatsiyalar amalga oshirilmagan bo'lsa, Talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq harakatsiz omonat deb topiladi. Harakatsiz omonatni yuritish tartibi O'zbekiston Respubliksining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

**“Kapitalbank” ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalariga**
**4-ILOVA**

## JISMONIY SHAXSGA MUDDATLI OMONAT OCHISH TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA TUZISH VA BAJARISH TARTIBI

### 1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Tartibning maqsadlari uchun quyidagi atama va ta'riflardan foydalaniladi:

***Qo‘shimcha to‘lov*** – agar bu Omonat shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, Shartnomaning amal qilish muddati davomida Arizaga asosan amalga oshiriladigan (Ushbu tartibning 3-Ilovasi)Mijoz tomonidan omonat mablag‘lariga qo‘shimcha pul mablag‘lari kiritish.

***Talab qilib olinguncha hisobvaraq shartnomasi (Shartnoma)*** - Bank va Mijoz o‘rtasida tuziladigan jismoniy shaxsning talab qilib olinguncha hisobvarag‘ini ochish tartibi.

***Foizlarni kapitallashtirish*** – Agar bu Omonat shartlari bilan nazarda tutilgan bo‘lsa, hisoblangan foizlarni Omonatning asosiy summasiga qo‘shish.Omonatga qo‘shilgan foizlar Omonat hisobvarag‘iga qirim qilingan paytdan ularga nisbatan Muddatli jamg‘arma omonat Shartnomasining shartlari qo‘llaniladi.

***Mijoz*** – ushbu Tartibga asosan nomiga Omoant hisobvarag‘i ochiladigan jismoniy shaxs (rezident, norezident) – Bank omonatchisi.

***Omonatning eng kam miqdori*** – Amaldagi omonat shartlari bo‘yicha u yoki bu omonatga joylashtirish (ochish) uchun yoki Qo‘shimcha to‘lovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larining eng kam miqdori.

***Kamaymaydigan qoldiq*** – Omonatning butun muddati davomida Mijoz tomonidan omonatda bo‘lishini ta'minlanadigan pul mablag‘larining eng kam miqdori.

***Uzaytirish (prolongatsiya)*** –Agar bu omonat shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, Omonatni jalb qilish sanasida ushbu Omonat turi bo‘yicha Bankda amalda bo‘lgan omonat shartlarida Omonat muddatini xuddi shuncha muddatga uzaytirish (Omonatning muddati tugash sanasida Omonat mijoz tomonidan talab qilinmagan bo‘lsa).

***Jamg‘arma omonat*** – Bank Ofisi orqali naqd ko‘rinishda yoki Mijozning hisobvarag‘idan/Kartochkasidan omonat hisobvarag‘iga pul ko‘chirish vositasida jalb qilinadigan, Omonat shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, boshlang‘ich omonat summasiga omonat bo‘yicha Omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda hisoblangan foizlarni ham hisobga olib, qo‘shimcha mablag‘lar kiritish huquqi bilan belgilangan shartlar asosida to‘planadigan va aniq maqsadlar uchun yuboriladigan, O‘zbekiston Respublikasiningmilliy valyutasi va xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari.

***Omonat muddati*** – Pul mablag‘lari Omonatga joylashtiriladigan Bank tomonidan o‘rnatilgan muayyan vaqt davri (kunlar, oylar, yillar bilan ifodalanishi mumkin).

***Muddatli omonat*** – Bank omonati shartnoma shartnomasida belgilangan muddat tugaganidan so‘ng qaytarib berish sharti bilan Bank Ofisi orqali naqd ko‘rinishda yoki Mijozning hisobvarag‘idan/Kartochkasidan omonat hisobvarag‘iga pul ko‘chirish vositasida jalb qilinadigan O‘zbekiston Respublikasiningmilliy valyutasi va xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari,shu jumladan, agar, bu omonat shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, Omonat shartnomasining amal qilish muddati davomida boshlang‘ich omonat summasiga omonat bo‘yicha Omonat shartlarida nazarda tutilgan

shartlarda va tartibda hisoblangan foizlarni ham hisobga olib Mijoz tomonidan kiritiladigan qo'shimcha pul mablag'lari.

***Omonat shartlari*** – Omonat ochish to'g'risidagi Arizaga (Ushbu Tartibning 1,2 Ilovalari) asosan Omonatga pul mablag'larini joylashtirish shartlari: Omonat valyutasi, Omonat muddati, foiz stavkasi, Omonatning eng kam miqdori, Omonatni muddatidan oldin qaytarish tartibi, Qo'shimcha to'lov qilish va Qisman yechib olish imkoniyati hamda Omonatning Omonat ochish to'g'risidagi Arizada (Ushbu Tartibning 1,2Ilovalari) ko'rsatilgan boshqa muhim shartlari.

***Qisman yechib olish*** – agar bu Omonat shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, Omonat shartnomasining amal qilish muddati davomida muddatli/jamg'arma omonatni qisman qaytarish to'g'risidagi Arizaga (Ushbu Tartibning 4-Ilovasi) asosan Omonatning bir qismini Mijozga qaytarish.

1.2. Mazkur Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta'riflar Kompleks xizmat ko'rsatish Qoidalaridagi mazmun bilan bir xil ma'noga ega.

## 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Talab muddatli/jamg'arma omonatShartnomasini tuzish va bajarish tartibini belgilaydi.

2.2. Quyidagilar Shartnomani (Qo'shimcha shartnomani) tashkil qiluvchi hujjatlar hisoblanadi:

- Kompleks bank xizmati ko'rsatish Qoidalari;
- Ushbu tartib;
- Mijozning omonat ochish to'g'risidagi Arizasi (Ushbu Tartibning 1,2-Ilovalari);
- Mijozning muddatli/jamg'arma omonatga qo'shimcha mablag'lar kiritish to'g'risidagi Arizasi (Ushbu Tartibning 3-Ilovasi) (Omonat shartlari bilan nazarda tutilgan bo'lsa);
- Mijozning omonatni qisman yechib olish to'g'risidagi Arizasi (Omonat shartlari bilan nazarda tutilgan bo'lsa);
- Muddatli/jamg'arma omonatni muddatidan oldin yopish to'g'risida Ariza (Ushbu Tartibning 5-Ilovasi)

2.3. Mijzning boshqa hisobvaraqalarga (talab qilib olinguncha hisobvaraq, plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar hisobvarag'i) ehtiyoji bo'lsa, Mijoz hisobvaraqlarni Amaldagi qonunchilik, Qoidalar, Tariflar va Bank ichki hujjatlariga asosan ochishi kerak.

## 3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Bank Omonatchiga 20606/20406-sonli muddatli/jamg'arma depozit hisobraqami ochadi va 20606/20406-sonli muddatli/jamg'arma depozit hisobraqamiga joylashtirish uchun Omonatchidan pul mablag'larini (omonat) qabul qilib oladi hamda omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda omonat summasini qaytaradi hamda unga foizlar to'laydi.

## 4. OMONAT OCHISH VA YURITISH TARTIBI

4.1. Mijoz shartnoma tuzish va hisobvaraq ochish uchun Bank tasdiqlagan shaklda to'ldirilgan, Arizani (Ushbu Tartibning 1,2-Ilovalari) rasmiylashtirish vaqtida amalda bo'lgan Omonatning Shartlari, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq hisobvaraq ochish to'g'risidagi Arizaga asosan Mijozning Muddatli/jamg'arma omonat ochish va Omonatga pul ko'chirish/naqd pul mablag'larini kirim qilish haqidagi topshirig'ini hamda boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Arizani Operasion kun davomida Bankka topshiradi. Zarur bo'lganda Mijoz Ariza bilan

birgaamaldagi qonunchilik va Bank tomonidan oʻrnatilgan talablarga asosan Shartnoma tuzish uchun kerak boʻlgan hujjatlarni yuboradi. Shartnoma Bank tomonidan Mijozning arizasi akseptlangandan soʻng tuzilgan hisoblanadi. Hisobvaraq ochish va Omonatning toʻliq summasini mauddatli/jamgʻarma omonatga kirim qilish Bankning aksepti hisoblanadi.

4.2. Shartnoma imzolangan taqdirda Mijoz tomonidan toʻldirilgan va imzolangan

Ariza Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Mijozning Shartnomada, Qoidalarda, ushbu Tartibda bayon qilingan umumiy shartlarga toʻliq va soʻssiz roziligini, shuningdek, Mijoz Ariza berish jarayonida Omonatning shartlari bilan tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi.

4.3. Qoʻshimcha toʻlov qilish, Qisman yechib olish yoki Omonatni muddatidan oldin yopish uchun Mijoz Omonatning nomini, oʻzgartiriladigan summani, Qoʻshimcha toʻlov, Qisman yechib olish summasini, shuningdek, Mijozning pul mablagʻlarini Omonatga kirim qilish/echish haqidagi topshirigʻini va boshqa ma'lumotlarni oʻz ichiga olgan, Bank tasdiqlagan shakl boʻyicha toʻldirilgan Arizani taqdim qiladi.Mijozning arizasi Bank tomonidan akseptlanganidan soʻng Koʻshimcha kelishuv tuzilgan hisoblanadi.Qoʻshimcha toʻlovni/Qisman yechib olishni muddatli/jamgʻarma omonatga/dan kirim qilish/echib olish Bankning asepti boʻlib hisoblanadi.

4.4. Bank belgisi qoʻyilgan Ariza nusxasi Mijozga uning soʻrovi boʻyicha Bank Ofisida beriladi.

4.5. Bank Mijozning Arizasiga asosan uning nomiga Omonat hisobvaraq ochadi va koʻchirilgan pul mablagʻlarini Omonat hisobvaraqqa kirim qiladi.Muddatli/jamgʻarma omonat ochish “Kapitalbank” ATBning “Kapital-24” chakana biznes filialida amalga oshiriladi.

4.6. Muddatli/jamgʻarma omonat hisobvaragʻi Omonat ochishdaMuddatli/jamgʻarma omonat hisobvaraqqa kirim qilinadigan pul mablagʻlari valyutasida ochiladi.

4.7. Bank Ariza berilayotganda Mijoz tomonidan koʻrsatilgan Omonat shartlarida Mijozdan pul mablagʻlari qabul qiladi va Omonat mablagʻlarini qaytarish majburiyatini oladi hamda Mazkur tartibda va Mijoz tomonidan tanlangan Omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda foizlar toʻlaydi.

4.8. Omonat summasiga foizlar Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 764-moddasiga asosan pul mablagʻlari bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga koʻra omonatchining hisobvaragʻidan oʻchirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi.

4.9. Omonat summasini koʻpaytirish Omonatchi tomonidan milliy valyutadagi naqd pul mablagʻlarini cheklanmagan miqdorda kirim qilish orqali amalga oshiriladi, bunda foizlar pul mablagʻlari Bankka kelib tushgan kunning ertasidan boshlab 20606/20406 sonli muddatli/jamgʻarma depozit hisobraqamdagi omonatning haqiqiy qoldiq summasiga yoziladi.

4.10. Pul mablagʻlariga qonunchilikda belgilangan tartibda taqiq qoʻyilgan boʻlsa, ushbu taqiq yechilguniga qadar omonat boʻyicha foizlarni hisoblash toʻxtatib turiladi.

4.11. Omonatning muddati tugaganligi munosabati bilan uni qaytarish sanasi dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlarga toʻgʻri kelsa, omonatni qaytarib berish dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kundan keyingi birinchi bank kunida amalga oshiriladi.

4.12. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 762-moddasiga asosan omonatchi Omonatni muddati tugagunga qadar qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Agar omonatchi omonatni muddati tugagunga qadar talab qilish niyatida boʻlsa, u oʻzining bu niyatidan Bankni omonatni olishni moʻljallayotgan sanadan kamida 1 (bir) oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart. Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari Omonat ochish toʻgʻrisidagi Arizada (Ushbu tartibning 1,2-Ilovalari) koʻrsatilgan.

4.13. Shartnoma muddati tugaganidan so‘ng Omonatchi tomonidan omonatni qaytarib berish talab qilinmasa, omonat summasi Mijozning 20606/20406 “Jismoniy shaxslarning muddatli/jamg‘arma depozitlari” hisobvarag‘idan 20206 “Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari” hisobvarag‘iga yoki Arizaga asosan 22618 “Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo‘yicha majburiyatlar» hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

4.14. Ushbu Shartnomaga asosan Mijozga ochilgan 20606/20406 hisobvarag‘i omonat muddati tugaganda va/yoki ushb Shartnoma bekor qilinganida yopiladi.

4.15. Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag‘larining qaytishi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasining omonatlarni kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.

4.16. Ushbu shartnoma quyidagi hollarda bekor qilingan deb hisoblanadi:

- omonat summasi yoxud uning bir qismi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda sud yoki davlat organlari tomonidan kamaytirilganda (olib qo‘yish, undirish va h.k.);

- agar Omonat shartlarida boshqacha hol nazarda tutilgmagan bo‘lsa, Omonatchi tomonidan ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar omonatning bir qismi talab qilinganda.

Makzur holatda foizlarni to‘lash omonatni muddatidan oldin talab qilish tartibi va shartlarida amalga oshiriladi.

4.17. Mijoz Bank Ofisiga murojaat qilganda Bank uning talabi bilan Mijozga muddatli/jamg‘arma omonat hisobvaraq bo‘yicha omonatning qo‘yilganlgini tasdiqlovchi ko‘chirma taqdim qiladi.

4.18. Omonat Bankdan olinadigan kreditlar bo‘yicha garov ta'minoti sifatida Mijoz tomonidan Bankka taqdim qilinishi mumkin.

4.19. Shartnomaga asosan ochilgan muddatli/jamg‘arma omonat hisobvarag‘iga Bank tomonidan pul mablag‘lag‘i xato kirim qilinganida, shuningdek, pul mablag‘lari xato ko‘chirilganida Mijoz Bankka qo‘shimcha topshiriqlarsiz muddatli/jamg‘arma omonat hisobvarag‘idan xato kirim qilingan pul mablag‘lari miqdoridagi pullarni yechib olish olish huquqini beradi va roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept). Ko‘rsatilgan hollarmuddatli/jamg‘arma omonat hisobvarag‘idan pul mablag‘larini qisman yechib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

- Mijozgamuddatli/jamg‘arma omonat shartlarini to‘liq tushuntirish;

- Mijozning omonat ochish to‘g‘risidagi Arizasida (Ushbu tartibning 1,2-Ilovalari) ko‘rsatilgan miqdordagi pul mablag‘larini Mijozdan qabul qilib olish va ularni 20606/20406 “Jismoniy shaxslarning muddatli/jamg‘arma depozitlari” hisobvarag‘iga kirim qilish;

- Omonat shartlariga asosan foizlar hisoblash va to‘lab berish;

- Omonatning muddati tugaganidan keyinomonat shartlariga asosan omonat summasini qaytarish.

5.2. Mijozning huquqlari:

- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosannotarial tasdiqlangan ishonchnoma rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxslarga omonatni tasarruf qilish huquqini berish.

- omonatni uchinchi shaxslar tomonidan tasarruf qilish uchun berilgan notarial tasdiqlangan ishonchnomani muddatidan oldin bekor qilish.

5.3. Mijozning majburiyatlari:

- Omonat ochish to‘g‘risidagi Arizada ko‘rsatilgan miqdordagi naqd pul mablag‘larini ushbu shartnoma imzolangan sanadapul mablag‘larini Bankka kirim qilish/o‘tkazib berish shartlariga rioya qilgan holda muddatli/jamg‘arma omonatgakirim qilish/o‘tkazib berish;

- omonat daftarchasini olgan taqdirda, olingan omonat daftarchasini lozim darajada saqlash, u yo‘qotilgan taqdirda, uning yo‘qolganligini Bankka yozma ravishda ma'lum qilib, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Bank tariflarida belgilangan miqdorda jarima to‘lash;

- ishonchnoma muddatidan oldin bekor qilinganda, Mijoz bu haqida o‘sha kunning uzida Bankka yozma ravishda xabar berishi va xatga ishonchnomani bekor qilish haqida notarial idoraga taqdim qilingan ariza nusxasini ilova qilishi shart. Ishonchnomani bekor qilish sanasi dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlarga to‘g‘ri kelib qolsa, Omonatchi yozma arizani dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kundan keyingi birinchi bank kunida taqdim etadi. Ishonchnomaning bekor bo‘lganligi haqida o‘z vaqtida xabar berilmagan hollarda, ishonchnoma bo‘yicha berilgan omonat uchun bank javobgar bo‘lmaydi.

- Omonatchining manzili, telefon raqami, ismi, otasining ismi yoki familiyasi o‘zgargan hollarda, shuningdek, uning shaxsini tasdiqlovchi xujjatlar almashtirilganda, Omonatchi bunday o‘zgarishlar haqida Bankni 5 kalendar' kun ichida yozma ravishda xabardor qilib, zarurat bo‘lganda yangi hujjatning nusxasini taqdim qilishi shart.

5.4. Mijoz omonat qoldiqlari, kirim-chiqim operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni mobil aloqa vositasi orqali “SMS banking” dasturidan yoki “Kapitabank”ning mobil ilovasidan foydalanib olishi mumkin.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, shartnoma shartlarini buzgan taraf O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida o‘rnatilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

6.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar, tabiiy sharoitlar, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qaroriga asosan majburiyatni bajarishni kechiktirish (moratoriy), qonunning yoki muayyan munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa hujjatning amal qilishini to‘xtatish natijasida majburiyatni lozim darajada bajarish imkonsiz bo‘lib qolsa, Taraflar mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

## 7. BANK SIRI

7.1. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonuni 3moddasiga asosan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydi.

7.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqatgina O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Mazkur shartnomani tuzishdan, unga o‘zgartirish kiritishdan, bajarishdan, buzishdan, bekor qilishdan, to‘xtatishdan, haqiqiy emasligidan yoxud tuzilmaganligidan kelib chiqqan (to‘liq va/yoki qisman) yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha nizo, kelishmovchilik, talab va e'tirozlar da'vogarning tanlashi bo‘yicha sudlovga taalluqlilik va tegishlilik qoidalariga ko‘ra O‘zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda yoki Hakamlik sudi Reglamenti, Hakmlik sudi to‘g‘risidagi, Hakamlik sudida taraflarning yig‘imi, xarajatlari va chiqimi to‘g‘risidagi Nizomlarga asosan O‘zbekiston Respublikasi savdo-sanoat Palatasi huzuridagi Hakamlik sudida (keyingi o‘rinlarda “Hakamlik sudi” deb nomlanadi) ko‘rib chiqiladi. Da'vo ariza bilan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga yoki hakamlik sudiga murojaat qilishni tanlash huquqi da'vogarda qoladi.

8.2. Shartnoma shartlariga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar Taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida ushbu shartnomaga qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi, shartnomaning 8.3 bandi bundan mustasno.

8.3. Bank tomonidan yuridik manzil yoki pochta manzili, bank rekvizitlari va firma nomi o‘zgartirilgan taqdirda, bu haqida Bank binosida, Bank saytida, ommaviy axborot vositalarida tegishli e'lon joylashtirish va/eki bank tanlagan boshqa har qanday usullarda Mijozga ma'lum qilinadi.

8.4. Shartnomada nazarda tutilmagan har qanday masalalarda Taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini qo‘llaydi.

8.5. Ushbu orqali Mijoz shartnoma tuzish chog‘ida Bank tariflari bilan tanishganligini hamda ularga roziligini tasdiqlaydi.

## 9. MAZKUR TARTIBNING ILOVALARI

9.1. Quyidagi ilovalar mazkur Tartibning ajralmas qismi hisoblanadi:

***1-Ilova*** – “Omonat ochish to‘g‘risida Ariza”;

***2-Ilova*** – “Jamg‘arma omonat ochish to‘g‘risida Ariza”;

***3-Ilova*** – “Muddatli/jamg‘arma omonatga qo‘shimcha mablag‘lar kiritish to‘g‘risida Ariza”;

***4-Ilova*** – “Muddatli/jamg‘arma omonatni qisman yechib olish to‘g‘risida Ariza”;

***5-Ilova*** – “Muddatli/jamg‘arma omonatni muddatidan oldin yopish to‘g‘risida Ariza”;

*Jismoniy shaxsga muddatli/jamg‘arma omonat ochish to‘g‘risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

1-ILOVA

**Muddatli omonat ochishga __________-sonli Ariza**

Ushbu orqali “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki “Kapital-24” chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish qoidalari, jismoniy shaxslarga muddatli/jamg‘arma omonat ochish to‘g‘risidagi Shartnomani tuzish va bajarish Tartibi, menga tushunarli bo‘lgan Bank Tariflari bilan tanishganligimni tasdiqlayman va shu munosabat bilan Men bilan “Omonatning nomi” muddatlibank omonati shartlarida Shartnomasi tuzishingizni so‘rayman.

Cheklovlarni, omonanti to‘ldirish, muddatidan oldin talab qilish, kapitallashish, uzaytirish, qisman yechib olish shartlari menga tanish ekanligini hisobga olib, pul mablag‘larini quyidagi shartlarda omonatga qabul qilishingizni so‘rayman:

| | | |
|---|---|---|
| Omonat miqdori ____________________, biroq, Omonatning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda | | |
| Omonat Valyutasi | UZS ☐ USD ☐ | EUR ☐ |
| Omonat muddati | _______________ | |
| Omonat hisobvarag‘i raqami | ______________ | |
| Omonat ochilgan sana | ______________ | |
| Omonatni amal qilish muddatining tugashi | ______________ | |
| Kamaymaydigan qoldiq | ______________ | |
| Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari | ______________ | |
| Foizlarni to‘lash | ______________ naqd pulda ☐ naqd pulsiz shaklda ☐ | |
| Foizlar naqd pulsiz shaklda to‘langanda hisobvaraqqa kirim qilinadi | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Omonatning asosiy summasi hisobvaraqqa qaytariladi | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Avtomatik kapitallashish | ha ☐ | yo‘q ☐ |
| Uzaytirish | ha ☐ | yo‘q ☐ |
| Qo‘shimcha to‘lov | ha ☐ | yo‘q ☐ |
| Qisman yechib olish | ha ☐ | yo‘q ☐ |

**Bank:**
**“Kapitalbank” ATB**
Mas'ul ijrochi F.I.Sh.

___________________________________
*(imzo, muhr)*

Chakana mahsulotlarni sotish bo‘limi boshlig‘i F.I.Sh.

________________________
*(imzo)*

Sana: ________________

**Omonatchi:**

_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________

Pasport ma'lumotlari:

Berilgan:

Manzil:
Omonat daftarchasi raqami__________________

Omonatchining imzosi: ✓________________

*Jismoniy shaxsga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

2-ILOVA

**Jamg'arma omonat ochishga __________-sonli Ariza**

Ushbu orqali "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki "Kapital-24"

chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish qoidalari, jismoniy shaxslarga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risidagi Shartnomani tuzish va bajarish Tartibi, menga tushunarli bo'lgan Bank Tariflari bilan tanishganligimni tasdiqlayman va shu munosabat bilan Men bilan "Omonatning nomi" jamg'arma omonati shartlarida Shartnomasi tuzishingizni so'rayman.

Cheklovlarni, omonanti to'ldirish, muddatidan oldin talab qilish, kapitallashish, uzaytirish, qisman yechib olish shartlari menga tanish ekanligini hisobga olib, pul mablag'larini quyidagi shartlarda omonatga qabul qilishingizni so'rayman:

| | | |
|---|---|---|
| Omonat miqdori ____________________, biroq, Omonatning eng kam miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda | | |
| Omonat Valyutasi | UZS ☐ USD ☐ | EUR ☐ |
| Omonat muddati | ____________ | |
| Omonat hisobvarag'i raqami | ______________ | |
| Omonat ochilgan sana | ______________ | |
| Omonatning maqsadi | ______________ | |
| Omonatni amal qilish muddatining tugashi | ______________ | |
| Kamaymaydigan qoldiq | ______________ | |
| Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari | ______________ | |
| Foizlarni to'lash | naqd pulda ☐ | naqd pulsiz shaklda ☐ |
| Foizlar naqd pulsiz shaklda to'langanda hisobvaraqqa kirim qilinadi | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Omonatning asosiy summasi hisobvaraqqa qaytariladi | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Avtomatik kapitallashish | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Uzaytirish | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qo'shimcha to'lov | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qisman yechib olish | ha ☐ | yo'q ☐ |

**Bank:**
**"Kapitalbank" ATB**

Mas'ul ijrochi F.I.Sh.

___________________________________
*(imzo, muhr)*

Chakana mahsulotlarni sotish bo'limi boshlig'i F.I.Sh.

________________________
(imzo)

Sana: ________________

**Omonatchi:**

_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________

Pasport ma'lumotlari:

Berilgan:

Manzil:

Omonat daftarchasi raqami__________________

Omonatchining imzosi: ☐________________

*Jismoniy shaxsga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

3-ILOVA

**Muddatli/jamg'arma omonatga qo'shimcha mablag'lar kiritish to'g'risida __________sonli Ariza**

Ushbu orqali "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki "Kapital-24" chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish qoidalari, jismoniy shaxslarga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risidagi Shartnomani tuzish va bajarish Tartibi, menga tushunarli bo'lgan Bank Tariflari bilan tanishganligimni tasdiqlayman va shu munosabat bilan muddatli/jamg'arma omonatni "Omonatning nomi" omonati shartlarida to'ldirishingizni so'rayman.

Cheklovlarni, omonanti to'ldirish, muddatidan oldin talab qilish, kapitallashish, uzaytirish, qisman yechib olish shartlari menga tanish ekanligini hisobga olib, pul mablag'larini quyidagi shartlarda omonatga qabul qilishingizni so'rayman:

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qo'shimcha kiritilgan mablag'lar miqdori______________ | | | |
| Omonatning umumiy miqdori______________ | | | |
| Omonat hisobvarag'i Raqami | ____________ | | |
| Omonat Valyutasi | UZS ☐ | USD ☐ | EUR ☐ |
| Omonat muddati | | | |
| Omonat ochilgan sana | ______________ | | |
| Omonatni amal qilish muddatining tugashi | ______________ | | |
| Kamaymaydigan qoldi | ______________ | | |
| Omonatni qisman yechib olish shartlari | ______________ | | |
| Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari | ______________ | | |
| Foizlarni to'lash | ______________naqd pulda ☐ naqd pulsiz shaklda ☐ | | |
| Avtomatik kapitallashish | ha ☐ | yo'q ☐ | |
| Uzaytirish | ha ☐ | yo'q ☐ | |
| Qo'shimcha to'lov | ha ☐ | yo'q ☐ | |
| Qisman yechib olish | ha ☐ | yo'q ☐ | |

**Bank:**
**"Kapitalbank" ATB**

Mas'ul ijrochi F.I.Sh.

___________________________________

*(imzo, muhr)*

Chakana mahsulotlarni sotish bo'limi boshlig'i F.I.Sh.

________________________

(imzo)

Sana: ________________

**Omonatchi:**

_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________

Pasport ma'lumotlari:

Berilgan:

Manzil:

Omonat daftarchasi raqami__________________

Omonatchining imzosi: ☐________________

*Jismoniy shaxsga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risida shartnoma tuzish va bajarish tartibiga*

4-ILOVA

**Muddatli/jamg'arma omonatni qisman yechib olish to'g'risida_____-sonli Ariza**

Ushbu orqali "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki "Kapital-24" chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish qoidalari, jismoniy shaxslarga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risidagi Shartnomani tuzish va bajarish Tartibi, menga tushunarli bo'lgan Bank Tariflari bilan tanishganligimni tasdiqlayman va shu munosabat bilan muddatli/jamg'arma omonatning bir qismini "Omonatning nomi" omonati shartlarida yechib olishni so'rayman.

Cheklovlarni, omonanti to'ldirish, muddatidan oldin talab qilish, kapitallashish, uzaytirish, qisman yechib olish shartlari menga tanish ekanligini hisobga olib, pul mablag'larini omonatdan quyidagi shartlarda qisman yechib olishingizni so'rayman:

| | | |
|---|---|---|
| Omonatning yechib olingan qismi miqdori | | |
| Omonatning umumiy miqdori | ______________ | |
| Omonat hisobvarag'i raqami | ______________ | |
| Omonat Valyutasi | UZS ☐ USD ☐ | EUR ☐ |
| Omonat muddati | | |
| Omonat ochilgan sana | ______________ | |
| Omonatni amal qilish muddatining tugashi | ______________ | |
| Kamaymaydigan qoldiq | ______________ | |
| Omonatni qisman yechib olish shartlari | ______________ | |
| Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari | ______________ | |
| Foizlarni to'lash | ______________naqd pulda ☐ | naqd pulsiz shaklda ☐ |
| Avtomatik kapitallashish | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Uzaytirish | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qo'shimcha to'lov | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qisman yechib olish | ha ☐ | yo'q ☐ |

**Bank:**
**"Kapitalbank" ATB**

Mas'ul ijrochi F.I.Sh.

___________________________________

*(imzo, muhr)*

Chakana mahsulotlarni sotish bo'limi boshlig'i F.I.Sh.

________________________

(imzo)
Sana: ________________

**Omonatchi:**

_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________

Pasport ma'lumotlari:

Berilgan:

Manzil:

Omonat daftarchasi raqami__________________
Omonatchining imzosi: ☐________________

**Muddatli/jamg'arma omonatni muddatidan oldin yopish to'g'risida___-sonli Ariza**

Ushbu orqali "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki "Kapital-24" chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish qoidalari, jismoniy shaxslarga muddatli/jamg'arma omonat ochish to'g'risidagi Shartnomani tuzish va bajarish Tartibi, menga tushunarli bo'lgan Bank Tariflari bilan tanishganligimni tasdiqlayman va shu munosabat bilan muddatli omonatni "Omonatning nomi" omonati shartlarida muddatidan oldin yopishingizni so'rayman.

Omonatni muddatidan oldin yopishingizni so'rayman.Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari menga ma'lum:

| | | | |
|---|---|---|---|
| Omonat miqdori | ______________ | | |
| Omonat hisobvarag'i raqami | ______________ | | |
| Omonat Valyutasi | UZS ☐ | USD ☐ | EUR ☐ |
| Omonat muddati | | | |
| Omonat ochilgan sana | ______________ | | |
| Omonatni amal qilish muddatining tugashi | ______________ | | |
| Kamaymaydigan qoldiq | ______________ | | |
| Omonatni qisman yechib olish shartlari | ______________ | | |
| Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari | ______________ | | |
| Foizlarni to'lash | ______________ | naqd pulda ☐ naqd pulsiz shaklda ☐ | |
| Foizlar naqd pulsiz shaklda to'langanda hisobvaraqqa kirim qilinadi | | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Omonatning asosiy summasi hisobvaraqqa qaytariladi | | 20206 ☐ | 22618 ☐ |
| Avtomatik kapitallashish | | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Uzaytirish | | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qo'shimcha to'lov | | ha ☐ | yo'q ☐ |
| Qisman yechib olish | | ha ☐ | yo'q ☐ |

**Bank:**
**"Kapitalbank" ATB**
Mas'ul ijrochi F.I.Sh.

___________________________________

*(imzo, muhr)*

Chakana mahsulotlarni sotish bo'limi boshlig'i F.I.Sh.

________________________

*(imzo)*
Sana: ___________________

**Omonatchi:**
_____________________________________
_____________________________________
_____________________________________

Pasport ma'lumotlari:

Berilgan:

Manzil:
Omonat daftarchasi raqami__________________
Omonatchining imzosi: ☐________________

**“Kapitalbank” ATB “Kapital 24” chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalariga**
**5-ILOVA**

________________________________
**“Kapitalbank” ATB**
**“Kapital 24” chakana biznes filiali**
____________________

**“Kapitalbank” ATB “Kapital-24” chakana biznes filiali tomonidan jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish uchun**
**ARIZA-ANKETA**

**1. MIJOZNI IDENTIFIKATSIYALASH**

**1.1. Mijoz to‘g‘risidagi ma'lumotlar**

Familiya:________________________________ Ism:________________________________
Otasining ismi: ________________________________ (keyingi o‘rinlarda – “mijoz”)
fuqaroligi: ☐ O‘zbekiston Respublikasi, ☐ boshqa (ko‘rsatilsin)
________________________________________________________________________________
tug‘ilgan sanasi: _________________ yil, tug‘ilgan joyi:___________________________
STIR (mavjud bo‘lsa):____________________

**1.2. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat:**

Hujjat turi: _________________________seriyasi: _______ raqami: __________________
Berilgan vaqti: ____________________________ yil
Kim tomonidan berilgan: __________________________________________________

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish huquqini tasdiqlovchi hujjat (shu jumladan, pasport, yashash guvohnomasi, vaqtincha propiska) *(O‘z.R. fuqarolari uchun ko‘rsatilmaydi*):

________________________________________________________________________________
*(seriyasi, raqami, berilgan vaqti, kim tomonidan berilgan, propiska muddati)*

**1.3. Yashash joyi** (shaxsni tasdiqlovich yoki yashash huquqini tasdiqlovchi hujjat asosida): indeks: __________________ viloyat: __________________ shahar: __________________
tuman:__________________ ko‘cha:__________________________ uy:_______ xona:_______

**1.4. Haqiqiy yashash manzili:**

☐ yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan manzil bilan to‘g‘ri keladi (*yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan manzil bilan to‘g‘ri kelmasa, quyida keltirilgan ma'lumotlarni to‘ldirish kerak*)
indeks: __________________ viloyat: __________________ shahar: __________________
tuman:__________________ ko‘cha:__________________________ uy:_______ xona:_______

**1.5. Yozishmalarni quyidagi manzil bo‘yicha yuborishingizni so‘rayman:**

☐ yashash joyi ☐ haqiqiy yashash joyi

**1.6. Aloqa ma'lumotlari:**

Mobil telefon: ______________________ uy telefoni: ______________________ xizmat telefoni:_____________________ e-mail:_______________________________
kodli so‘z:_______________________________

## 2. MIJOZNING MAJBURIYATLARI VA ROZILIGI

**Men ushbu orqali quyidagilarni bildiraman va o‘z qo‘lim bilan qo‘yilgan imzo orqali tasdiqlayman:**

- “Kapitalbank” ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati qo‘rsatish Qoidalarining (keyingi o‘rinlarda – “Qoidalar” deb nomlanadi) amaldagi tahririga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasida nazarda tutilgan tartibda hech qanday shartsiz va to‘liq (biror bir qo‘shimcha shartlarsiz, istisnolarsiz, mustasnolarsiz va e'tirozlarsiz) qo‘shilaman. “Kapitalbank” ATBning Qoida va Tariflari AKB “Kapitalbank”ning www.kapital24.uz rasmiy saytida joylashtirilganligidan xabardorman;
- Qoidalarning asosiyqoidalari va bank mahsulotini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomaning muhim shartlari menga to‘liq tushunarli va mazkur Ariza-Anketa imzolangunga qadar;
- Bank hisobvaraqalari va omonatlarini, ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun plastik kartochkalarni ochish, yuritish va yopish shartnomalarini tuzish va bajarish tartibi;
- UzCard-EMV, VISA vaboshq. bank kartochkalaridan foydalanib bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha umumiy xizmat ko‘rsatish va hisob-kitoblar o‘tkazish;
- Loyallik dasturlarida ishtirok qilish va sh.o‘; bo‘yichaInternet bank, Mobil bank, Masofaviy bank xizmatlaridan (keyingi o‘rinlarda – “MBX” deb nomlanadi) foydalanishning umumiy qoidalari bilan birgalikda menga to‘liq tushuntirilgan.
- mazkur Ariza-Anketada Men taqdim qilgan ma'lumotlar haqiqiy va to‘liq;
- MBXdan foydalanishda xavfsizlik bo‘yicha ko‘rsatmalar; favqulodda vaziyatlarda men bajaradigan harakatlar; to‘lovning elektron vositalaridan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ma'lumot berish tartibi; Qoidalarning shartlariga ko‘ra MBX ko‘rsatish jarayonida Taraflarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;
- - Qoidalarga qo‘shilishim munosabati bilan men uchun kelib chiqadigan ehtimoliy yuridik oqibatlar;
- “Kapitalbank” ATBda amalda bo‘lgan Tariflar va “Kapitalbank” ATB “Kapital 24» chakana biznes filiali (keyingi o‘rinlarda “Filial”) tomonidan “Kapitalbank” ATBning Qoida va Tariflariga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish tartibi; haqida mening e'tiborimga yetkazilgan
- huquqiy layoqatim/muomala layoqatim bor va qiziqishimni hamda Filial bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishga qonuniy huquqimni isbotlayman

**Men ushbu orqali:**

- Mazkur Ariza-anketa, “Kapitalbank” ATBning Qoida va Tariflarining barchasi birgalikda kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasini (keyingi o‘rinlarda ”KBXSh”) tashkil qilishidan;
- men tomondan mazkur Ariza-anketada va Mening Filialga taqdim qilgan boshqa har qanday hujjatlarimda ko‘rsatilgan aloqa ma'lumotlaridan KBXShni va bank mahsulotlarini taqdim qilish to‘g‘risidagi Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnomalar”) bajarishga taalluqli har qanday ma'lumotni Menga ma'lum qilishda Filial tomonidan foydalanilishidan. Filial tomonidan ma'lumot taqdim qilinadigan kodli so‘zdan va aloqa vositalaridan uchinchi shaxslarning foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini olishimdan;
- mazkur Arizada ko‘rsatilgan ma'lumotlarda ro‘y bergan har qanday muhim o‘zgarishlar haqida Filialni darhol yozma ravishda xabardor qilishim **shartligidan**;
- ushbu Ariza-anketani imzolash, shuningdek, MBX xizmatlari bilan bog‘liq harakatlar shaxsan Mijoz tomonidan amalag oshirilishi lozimligidan. Vakolatlari ishonchnomaga asoslangan Mijoz vakili tomonidan MBX va uning alohida qismlaridan foydalangan holda operatsiyalar o‘tkazish Qoidalarda ko‘rsatilgan hollarda va tartibda amalga oshirilishidan.

**Xabardor ekanligimni va bunga roziligimni ma'lum qilaman**

**Ushbu orqali filialdan quyidagilarni so‘rayman va unga o‘zimning qaytarib olinmaydigan roziligimni beraman:**

• Qoidalarning shartlariga asosan Mijoz tomonidan bir martalik almashuvan kodlar (tekshiruv kodlari) yoki boshqa bir bir martalik identifikatorlar bilan birgalikda taqdim qilinadigan login va parolga Mijozning tegishli ekanligini tasdiqlash orqali mening autentifikasiyamni amalga oshirishni;

• MBX xizmatlari ko‘rsatilishi uchun Filialga murojaat qilganimda meni kirish kodlari (raqamli va/yoki harfli kodlar)orqali identifikasiya qilishni;

• Menga ushbu Ariza va Qoidalarning shartlariga muvofiq MBX imknoyatlaridan foydalanish huquqi taqdim qilinishini hamda undan foydalanish imkoniyatini ta'minlab berilishini;

• Qoidalarning shartlariga asosan menga tegishli bo‘lgan ________________________ mobil telefon raqamini ro‘yxatga olinishini va ushbu telefon raqamiga tekshiruv kodi (elektron to‘lovni tasdiqlashda va elektron hujjatlarni imzolaganda) va SMS-xabar jo‘natilishini (“SMS-axborot” xizmati ulanganda va boshq.). Men tomondan oldin ulangan “SMS-axborot” xizmati mavjud bo‘lganda va boshqa hollarda Filialga ushbu raqamdan yangi mobil telefoni raqami sifatida foydlanilishini. Bir martalarik kodni (tekshiruv kodini) yuborishda Filial tomonidan kompleks bank xizmatlari Shartnomasi va Shartnomalarning shartlarini bajarilishi maqsadida mobil telefon raqamini va tasdiqlanadigan operatsiyalarning/bitim tuzishning belgilarini uyali aloqa operatoriga yuborilishiga va ularni qayta ishlanishiga roziman;

• quyida ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali mening ___________________________ mobil telefon raqamimga va __________________________________ elektron pochtamga ma'lumot va reklama tusidagi xabarlarni, AKB “Kapitalbank” yangi xizmatlari va “Kapitalbank” hamda uchinchi shaxslarning hamkorlikdagi mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, MBXga taalluqli ma'lumotlarni jo‘natilishini. Mijoz ushbu Arizani imzolash orqali qo‘rastilgan harakatlarga o‘zining qaytarib olinmaydigan roziligini beradi.

Filial tomonidan bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni, shaxsiy ma'lumotlar to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, ushbu Ariza-anketada, Qoidalarda, KBXSh va Shartnomalarda bayon etilgan shartlarda KBXSh bo‘yicha xizmat ko‘rsatish/Bank mahsulotlarini taqdim qilish uchun Filialga kerak bo‘lgan qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni **O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risidagi” va “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari” to‘g‘risidagi Qonunlarga asosan** Filial tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim qilinishiga mustaqil ravisha, o‘z xoxishim bilan va o‘z manfatlarimda rozilik beraman.

**3. MIJOZNING IMZOLAR NAMUNASI**

Familiya, ismi, otasining ismi

______________________________________________________________________

Imzo namunasi: _____________________________________________________________

*(shaxsni tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan namuna bo‘yicha)*

Men tomonidan ushbu Ariza-anketada ko‘rsatilgan ma'lumotlar haqiqiy va to‘liq hisoblanadi, KBXSh xizmatlaridan foydalanish uchun Menga login va parol berishingizni so‘rayman.

____________________________________________________________/_________________/

*(Mijozning F.I.Sh., imzo)*

**4. XIZMAT MA'LUMOTLARI**

Ushbu ariza Mijoz tomonidan Arizani qabul qilgan xodim ishtirokida shaxsan imzolangan.

Mijzning loginі:_________________________ Mijozning paroli: _______________________

**Ariza olindi:**

Tarkibiy bo‘lim nomi:________________________________________(smartbank)
Xodimning lavozimi: ________________________________________________________

Xujjatlarni qabul qilgan va ularning aslidan nusxa ko‘chirgan xodimning F.I.Sh:
__________________________________________________________/________________/
sana: 20____ yil “____”________________.

***Ushbu ariza Mijoz va Filial uchun 2 (ikki) nusxada rasmiylashtiriladi va Mijozning Qoidalarga qo‘shilganligini tasdiqlovchi qog‘ozdagi yagona yozma hujjat hisoblanadi.***

***Arizaning qabul qilinganligi haqida filialning belgisi qo‘ilgan nusxasi Mijozga beriladi.***

**Arizaning bir nusxasini oldim** /______________________/ *(mijozning imzosi)**

**Mijozning imzosi ARIZA-ANKETANING har bir betiga qo‘yiladi.*

**“Kapitalbank” ATB “Kapital 24” chakana biznes filialida jismnoiy shaxslarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish Qoidalariga**
**6-ILOVA**

________________________________ bankning
*(bankning nomi)*
________________________________filialiga
________________________________________
________________________________________dan
*(arizachining ismi, familiyasi, otasining ismi)*

## ARIZA

___________________________________________________________________nomiga
*(ism, familiya, otasining ismi)*
________________________________________________________________________da
*(valyuta nomi)*
___________________________________________ hisobvaraq ochishingizni so‘rayman
*(talab qilib olinguncha, muddatli, jamg‘arma depozit vaboshq.)*

Mening ____________________________________________-sonli hisobvarag‘im bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirishda majburiy bo‘lgan imzolarim (men tomonimdan vakil qilingan shaxsning imzolari) namunasini ma'lum qilaman.

Sana “___”_______ 20__ y. _________________________
*(hisobvaraq egasining imzosi)*

---

## BANK BELGISI

Hisobvaraq ochish uchun xujjatlarni tekshirdi:
Bosh buxgalter __________________________________________________
*(imzo)*
_____________________________________________________________________da
*(valyuta nomi)*

_________________________________________ hisobvaraqni ochishga ruxsat beraman
(talab qilib olinguncha depoziti, muddatli depozit, omonat depoziti va boshqalar).

Boshqaruvchi _____________________________________________________
*(imzo)*

20___ yil. “___” _______da hisobvaraq ochildi
Hisobvaraq raqami _____________________________________________
Boshqa qaydlar ________________________________________________
______________________________________________________________
Omonat daftarchasi raqami ________________________________________